

# **GOLDEN BRAIN**

**Scientific Journal**

**ISSN: 2181-4120**



**Volume 1, Issue 27**



**2023/27  
October**

ISSN 2181-4120

VOLUME 1, ISSUE 27

OCTOBER 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1, ISSUE 27, OCTOBER, 2023**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldasheva**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

***Editorial Secretary: J. Eshonkulov***

## O'QUVCHILARDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**Muminov Maxamadali Islamjanovich**

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,  
metodik xizmat bo'limi boshlig'i.

Elektron pochta: [mmuminov7474@gmail.com](mailto:mmuminov7474@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli axborot manbalaridan to'g'ri va oqilona foydalanish, qabul qilinayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish ko'nikmasi, bir so'z bilan aytganda XXI asr odamlari uchun eng zarur bo'lgan axborot savodxonligi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Internet, axborot, taraqqiyot, savodxonlik, texnologiya, Google, Yandeks, telegram, media.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, yosh avlod qalbida yurt taqdiri uchun dahldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongi va qalbini mafkuraviy va ma'naviy tahdidlardan ishonchli himoya qilish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida barcha sohalardagi islohotlar, tub yangilanishlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

Yangi davr shiddati o'z navbatida ta'lim-tarbiyaga aniq va qat'iy talablarini qo'yamoqda. Chunki islohotlardan ko'zlagan pirovard maqsad va natijalarga erishish ko'p jihatdan kadrlar masalasiga borib taqaladi. Hozirgi zamon talablariga javob

beradigan munosib kadrlarni tayyorlash esa ta’lim-tarbiya jarayonining sifatiga bevosita bog‘liqdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdidlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi davr har kimdan kuchli bilim va tafakkur egasi bo‘lishni, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli va maqsadli foydalanishni, yon atrofda sodir bo‘layotgan voqeа va hodisalarga mustahkam fuqarolik pozitsiyasi bilan yondashishni talab etadi.

Demak, o‘zini shu yurt farzandi deb hisoblaydigan har bir inson mavjud xavflarning mohiyatini chuqur anglashi, ularga nisbatan o‘zida mafkuraviy immunitetni shakllantirib borishi shart.

Avvalgi yillarda biz yangiliklarni televide niya, radio, gazeta va jurnallar orqali qabul qilar edik va o‘z navbatida o‘sha davrda ma’lumotlarni bizgacha yetib kelishida ma’lum bir o‘lchov, o‘ziga xos “filtr” mavjud edi.

Bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar (1-rasm) rivozlanib borishi natijasida har qanday ma’lumotni iste’molchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qila boshladi.



1-rasm

Biz media dunyosida yashayapmiz, turli axborot manbalaridan foydalanapmiz, lekin qabul qilinayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish ko'nikmasi, bir so'z bilan aytganda axborot savodxonligi afsuski hali to'liq shakllangan emas.

Bugungi kunda mediata'lism, mediasavodxonlik, mediatanqid ko'nikmalarini shakllantirishdan maqsad axborot asrida tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglash, foydalanishga o'rgata olishdir. Axborot ishonchli, xolis, tushunarli va foydali bo'lishi kerak.

Har qanday reklama, ommaviy axborot vositalaridagi xabarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar mediamatn sanaladi. Shuning uchun boshqa fanlar tarkibida ham yoshlarimizda bu ko'nikmalarni – axborotning to'g'ri va soxtaligini, ya'ni feyk (fake – soxta) yangiliklarni ajratish, soxta faktlarni aniqlash va tarqatmaslik masalalarini anglatish, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu yoshdagi bolalar qiziquvchanligi sababli turli mavzulariga oid ko'p sonli materiallar bilan tanishish mumkin. Media axborot savodxonligining (MAS) umumiy konsepsiyasidan tortib, axborot manbalari bilan ishslashning o'ziga xosligini tushuntirib borish lozim.

### **Media va axborot savodxonligi o'zi nima.**

Media va axborot savodxonligi 2007-yilda UNESCO tomonidan taklif etilgan keng qamrovli tushunchadir. U axborot savodxonligi va mediasavodxonlik bilan bog'liq barcha kompetensiyalarni, shu jumladan raqamli yoki texnologik savodxonlikni ham qamrab oladi.

Media va axborot savodxonligi – bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir.

2016 yildan beri UNESCO har yili o'tkaziladigan Media va axborot savodxonligi haftaligidagi yoshlarga bag'ishlangan platformani, ya'ni "Yoshlar kun tartibi" forumini taqdim etib keladi. Forumni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad

yoshlarning media va axborot savodxonligini oshirish dasturlari, tashabbus va tadbirlarida ishtirokini ta'minlash muhimligini ta'kidlash, media va axborot savodxonligi bo'yicha bilim va resurslarni yaratish va tarqatishda yoshlarni jalb etishdan iborat.

Mediyasavodxonlik ko'nikmalarini egallahda:

- ma'lumotlarni taqqoslash;
- tanqidiy fikrlash;
- axborotni olish va saralash;
- tahlil qilish;
- baholashni o'rghanish;
- sharhlash;
- asoslash;
- xulosalarni ifodalash kabi tushunchalar qamrab olingan.

Bu ko'nikmalarni egallah davomida o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarga ega bo'ladi, balki o'z qiziqishlari doirasida bunyodkorlik, ijodkorlik qobiliyatini o'zlashtiradi, raqamlı texnologiyalarning sir-asrorini anglaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirgan o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari doirasida aniq va asosli ma'lumotlarni qidirib topib, o'z qarashlari asosida yangiliklar (ixtiolar) yaratishga qodir bo'ladi. Shuning uchun ham o'quvchi yoshlarda bu ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim sanaladi

### **Mediasavodxonlik nima uchun kerak?**

#### **Avvalo:**

- xuquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;
- axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'ymaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish;

- insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinishlarni o'qiy olish;
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish; "Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o'zida aks ettiriyapti" degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Bizningcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondashish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. Medisavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir

### **Nima uchun bizga mediasavodli bo'lish muhim?**

Mediasavodxonlik XXI asr odamlari uchun eng zarur bo'lgan ko'nikma ekanligidan kelib chiqib, xuddi o'qish, yozish qobiliyati kabi juda muhim ko'nikma.

Albatta, har kim bu ma'lumot qanchalik foydali yoki zararli bo'lishi mumkinligini o'zi o'ylashi kerak. Shu ma'noda menga axborotlar oziq-ovqatlar bilan taqqoslanadigan metafora juda yoqadi. Biz aynigan ovqatni yemaymiz. Juda yog'li yoki juda achchiq taomni iste'mol qilmaymiz. Albatta, bu masalada insonni o'zi nimani tanlashini hal qilishi kerak.

Axborotlar ham xuddi shunday. Turli ta'mli mahsulotlar tanlanishi mumkin, ammo aynigan ya'ni yolg'on ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'qish, iste'mol qilish kerak emas. Nazarimda, bu metafora, axborot dunyosida hozir nima sodir bo'layotganini juda yaxshi ko'rsatib beradi. Fast fud (tez pishadigan taom) kabi hamma narsani iste'mol qiladigan odamlar bor. Sifatli mahsulotni tanlab, saralab o'qiydigan,

tinglaydigan odamlar ham mavjud. Ammo, bu ma'noda qaraydigan bo'lsak, inson uchun axborotdan keladigan xavf oziq-ovqatnikidan kam emas.

Agar biz fast fudni iste'mol qilsak nima bo'ladi? Biz ortiqcha vaznni orttirib olamiz. Mobodo biz sifati past ma'lumotlarni o'qisak, unda dunyo haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lamiz. Ehtimol, ba'zi firibgarlar bizni aldab ketadi.

### **Post-haqiqat nima?**

Bugungi kunda post-haqiqat fenomeni mavjud, bu shunday izohlanadi: har bir kishi har qanday fikrning tasdig'ini internetdan topishi mumkin. Bu yangi hodisa, internet paydo bo'lgunga qadar bu holat kuzatilmagan. Sababi, hammaning ham o'z fikrlarini yoza olish imkoniyati bo'limgan. Kitob nashri misolida ko'radigan bo'lsak, kitob matni yozilgandan so'ng, unga boshqa birov taqriz yozadi, muharrir esa fikrlarni ko'rib chiqib, ularni qaytadan tekshiradi.

Bugungi kunda har bir tarmoq foydalanuvchisi veb-sayt yaratishi mumkin. Unda yangi akkaunt ochib hayoliga kelgan narsani yozishi mumkin. Internetda har xil g'alati, ba'zida esankiratib qo'yadigan, dahshatli qandaydir nazariyalar paydo bo'lmoqda. Ular gohida oddiy va kulguli, bir yoqlama lekin ular dinga, masalan, millatga nisbatan radikal bo'lishi mumkin. Bu esa juda qayg'uli holat. Internetning ochiqligi kishini tashvishga soladi, negaki odamlar hali ham ma'lumotlar bilan ishlashni o'r ganmagan.

### **Mediasavodxonlikni qanday oshirish mumkin?**

Jurnalist uchun odatiy shu bilan birga oddiy ko'nikmalarga ehtiyoj bor. Ma'lumotlarni elementar tekshirish yoki bunga ko'nikmalar kerak. Masalan, avvalo, odamlarga manbani tekshirishni tavsiya qilaman. Ya'ni, agar siz biron bir yangilik, habar yoki biron-bir veb-saytga ilovani uchratsangiz: manba kim? Buni kim chop etmoqda? Buni do'stingiz sizga yuborgan bo'lsa ham, siz asosiy manbani topishga harakat qilishingiz zarur. Keyin bu o'ylab topilgan, uydirma yangiliklar sayti bo'lib chiqishi ham mumkin. Yoki bu ishonchli bo'limgan biror-bir akkaunt bo'lishi mumkin. Bunday akkauntlarni aniqlashni o'r ganish ham juda muhim. Bu haqda nima deyish mumkin? G'alati ismlar, avatarsining yo'qligi, fotosuratlar va habarlar juda

g‘alati, masalan: ko‘plab repostlari bor. Bunday odamlarning shaxsiy fotosuratlari kam bo‘ladi do‘srlarning akkauntida ham qayd etilgan fotosuratlari bo‘lmaydi. Masalaga prinsipial yondashadigan bo‘lsak, bu masala asosiy manbani topishga arziydi. Keyin ma’lumotni kim tarqatganiga e’tibor bering: bu qandaydir g‘alati akkaunt yoki sayt. Yana bir muhim ishni qiling: ushbu mavzu bo‘yicha umuman biror narsa qidirishga harakat qiling.

Biz faoliyatimiz davomida talabalar va maktab o‘quvchilari bilan bu haqda suhbatlashamiz. Ha, ular ijtimoiy tarmoqlarni juda yaxshi bilishadi, ular bu kabi tarmoqlarda post yozishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin, ammo negadir ular hali ham **Google** va **Yandex** borligini unutishmoqda. Shu ma’lumotdan nusxa olib uni internetdagি qidiruv tizimiga qo‘yishning o‘zi kifoya. Qidirish mexanizmi ushbu ma’lumotlar dastlab joylashtirilgan saytlarning ro‘yxatini topadi. Siz aynan shu usulda “feyk” ya’ni soxta ma’lumotni fosh qiladigan maqola topishingiz mumkin va mana shu qadam juda muhimdir. Chunki ko‘pincha bu soxta ma’lumotlar yillar davomida aylanib yuribdi va siz ularni ancha oldin qilinganligi haqidagi yozuvlarni topishingiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarni yoshligidan axborotlarni saralashga o‘rgatish ham bugunning asosiy talabi hisoblanadi. Chunki, axborot oluvchi, tarqatuvchi va yaratuvchi ham aynan siz-u biz tarbiyalayotgan maktab o‘quvchisi bo‘lishi mumkin.

Axborot ishonchli, xolis, tushunarli va foydali bo‘lishi kerak. Har qanday reklama, ommaviy axborot vositalaridagi habarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar mediamatn sanaladi. Shuning uchun fanlar tarkibida ham yoshlarimizda bu ko‘nikmalarni – axborotning to‘g‘ri va soxtaligini, ya’ni feyk (fake – soxta) yangiliklarni ajratish, soxta faktlarni aniqlash va tarqatmaslik masalalarini anglatish, ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Maktab yoshidagi bolalar qiziquvchanligi sababli turli mavzulariga oid ko‘p sonli materiallar bilan tanishish mumkin. Media axborot savodxonligining (MAS) umumiyl konsepsiyasidan tortib, axborot manbalari bilan ishlashning o‘ziga xosligini tushuntirib borish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.I.Paxrutdinov Globallashuv va axborot almashinuvi jadallahsgan sharoitda mediata'limning ahamiyati. – T.: Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. – T.: 2017-yil 2-son.
2. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak>.
3. Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. – O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: 2021-yil

## POTASSIUM CHLORIDE PRODUCTION PROCESS FROM SILVINITE ORE

Baxshilloyev Nozim Komil o‘g‘li

Shodiyev Azim Ziyadullayevich

Fatilloyev Shamshod Fayzullo o‘g‘li

Bukhara Institute of Engineering and Technology

Teacher of the Department of Chemical Technology of Inorganic Substances

Bukhara, Uzbekistan

### **ANNOTATSIYA**

*Bugungi kunda ko’plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o’rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so’zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloq etish, tarkibiy jihatdan o’zgartirish va diversifikasiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta’minlash, faoliyat ko’rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.*

**Kalit so‘zlar:** Silvinit, shlam chiqindisiz, mineral o‘g‘it, flotatsiya, Galurgik usul, NaCl birikmasi, Dehqonobod kaliy zavodi silvinit rudasi.

### **ABSTRACT**

*Nowadays, many people who occupy the place of the market in the world economy and production prove this without words, that to reach the health and the world, first of all, the production reform of the economy, production support, training and diversification, to high technology. it is possible to ensure rapid production of effective new production and production processes, modernization of operating capacities and acceleration of technical renewal processes.*

**Key words:** Sylvinit, without sludge waste, mineral fertilizer, flotation, Galurgic method, NaCl compound, sylvinit ore of Dehkhanabad potash plant.

## INTRODUCTION.

It is known that while the potassium fertilizer processing complex is being built near the Dehghanabad railway station, the construction of the underground and surface facilities of the mining complex was completed 46 kilometers away from it - directly at the Tyubegatan mine. Among them, the most important and rare ones - the inclined lahms dug underground have already reached the sylvinitic layer, and this event is recognized as a great achievement by experts of the world chemical industry. In recent years, the separation of KCl from sylvinitic by the flotation method has become widespread. Also, gravity (a method of separating KCl and NaCl using the difference in density), electrostatic separation (a method based on the separation of oppositely charged particles in an electric field) are promising methods. Chlorine-free potassium fertilizer, for example, K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, is obtained in Ukraine mainly from chloride-sulfate potassium minerals in the Prikarpatsky mine (reserves of 2.5 billion t.), by gallurgy and flotation methods [1]. Currently, the Dehqonabad potash plant in Uzbekistan separates the potassium chloride compound by flotation processing of sylvinitic ore. The flotation method cannot obtain a high-quality concentrate with a KCl content of 95-96% from low-grade potash ores. In addition, thin sylvinitic fractions do not give effective results. The most effective way to improve the quality of potassium fertilizers is to remove the 0.2 mm class from the flotation feed and send it to gallurgic processing. The use of the galurgical beneficiation method allows to significantly increase the efficiency of processing of low-grade potash ores in most cases. [1].

## DISCUSSION.

Potassium chloride is approved for use in all types of soil. It dissolves well in the soil solution. The main entrance is in the autumn period. The initial planting in May and during the growing season, between June and August, is best done as dressing. Application should be made after heavy watering or rain. A filter is a device that separates liquids, gases, or solids by passing them through a porous barrier. Inorganic substances have different structures in production technology floats are used. These include drum, disk, belt and carousel vacuum filters, leaf, frame filter presses and

MMAKM type automatic filters, notch filters. Such a variety of the structure of filters is connected with the difference between the properties of suspensions and the purpose of the swimming process. One of the main elements of filters is the filter barrier. The efficiency of the filters, the purity of the filtered liquid (filtrate), the service life of the barriers and the economy of the filtering process largely depend on the choice of filter barriers. Basically, they should meet the following requirements: - resistant to environmental influences; — sufficiently mechanically robust; — heat resistant; — good retention of solid particles; - should have low hydraulic resistance to sedimentation and low adhesion. Usually, different fabrics are used as filter barriers.

## **RESULTS.**

Drum dryers: 1) direct heat exchanger, i.e. direct collision of the product being dried and hot gas (product and gas in one direction and in the opposite direction). 2) indirect heat exchanger, i.e. heat is supplied to the product to be dried through a metal wall (fence) for dryers. The first type of dryers are used to dry concentrate and mineral raw materials. The second type of dryers are used to prevent environmental pollution and to change the color of the product being dried. The direct hot exchange drum dryer consists of a rotating drum installed at an angle of 1-5 (toward the direction of product discharge), the drum consists of two bandages (belts) and a toothed ring of the transmission.

## **CONCLUSION.**

Any new technological process is first tested in laboratories and test facilities before being applied to industrial enterprises. It is determined that the process inspected in these devices is technically perfect and socially economical. In accordance with the conditions of uniformity of the processes, the shape and dimensions of the device, the conditions of conducting the process, the critical constants of the substances involved in it, the output of the product, the ratio of raw materials and energy cost and other issues will be resolved. Comparison of the obtained results for that they are tested in the studied industrial devices. For the design of new devices, the laws of calculation equations and uniformity conditions obtained from laboratory and experimental

conditions are of great importance. Various heat exchangers are used in industry. In this course work, we will use the "abstract hot bed" type of dryer construction. Dryer devices differ from each other in different characteristics. From the science of chemical production processes and devices, process types are studied, namely, mechanical, hydromechanical, drying, heating of the product in the process of mass exchange, the principle of operation of dryer devices during drying, the disadvantages and advantages, and the use in production areas. I studied and analyzed the heat, material balances, hydraulic, and mechanical calculations of the construction of the plant. At the same time, the heat load of the pipe, the temperature surface for the heat load between the temperatures, the flow of heat in the pipes, the volume consumption of the auxiliary equipment pump and the stability calculation of the device were studied.

## REFERENCES

1. Файзуллаев О. Аналитик кимё асослари. Тошкент, А.кодирий нашриёти. 2003.
2. Миркомилова М.С., Аналитик кимё, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2003.
3. Алексеев В.Н. Количественный анализ: Учебн. М.: Химия, 1972.
4. Васильев В.П. Аналитик кимё. 1-кисм. Тошкент, Узбекистон. 1999.
5. Бобоев Н.Б., Турабов Н.Т., Ибраимов Ч.И. Титриметрик анализ методлари. Методик қўлланма. Тошкент. Университет. 1994.
6. Толипов Ш.Т., Хусаинов Х. Аналитик кимёдан масалалар туплами. Тошкент. Ўқитувчи, 1983.

## SOTSIAL SANKTSIYALAR NING QO'LLANILISHI VA UNING KISHILAR HAYOTIGA AHAMIYATI

**Hamrayeva Vasilisa Mirzohid qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Sotsiologiya yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Sanksiya ijtimoiy nazoratning asosiy vositasi sifatida tan olinadi va rag'batlantirish (ijobiy sanktsiya) yoki jazo (salbiy sanktsiya) shaklida ifodalangan normalarga) rioya qilish uchun rag'batdir. Sanktsiyalar rasmiy bo'lib, davlat yoki maxsus vakolatli tashkilotlar va shaxslar tomonidan qo'llaniladi va norasmiy shaxslar tomonidan ifodalanadi.

**Kalit so'zlar:** sanktsiya, formal sanktsiya, ijobiy sanktsiya, norasmiy sanktsiya, salbiy sanktsiya, jazo, shikoyat, tuhmat, "xulq-atvor qoidasi".

**Аннотация:** Санкция признается основным инструментом социального контроля и является стимулом к соблюдению норм, выражаемым в форме поощрения (положительная санкция) или наказания (негативная санкция). Санкции являются официальными и применяются государством или специально уполномоченными организациями и физическими лицами и представлены неофициальными лицами.

**Ключевые слова:** санкция, формальная санкция, положительная санкция, неформальная санкция, негативная санкция, наказание, жалоба, клевета, «правила поведения».

**Abstract:** Sanction is recognized as the main tool of social control and is an incentive to comply with norms expressed in the form of encouragement (positive sanction) or punishment (negative sanction). Sanctions are official and are applied by the state or specially authorized organizations and individuals and are represented by unofficial individuals.

**Key words:** sanction, formal sanction, positive sanction, informal sanction, negative sanction, punishment, complaint, slander, "rule of conduct".

Ijtimoiy sanktsiyalar - bu odamlarni ijtimoiy normalarga rioya qilishga undaydigan mukofot va jazolar. Shu munosabat bilan ijtimoiy sanktsiyalarni ijtimoiy normalarning qo‘riqchisi deb atash mumkin.

Ijtimoiy sanktsiya quyidagi asosiy ikki turga bo‘linadi ijobiy va salbiy, har ikki tur ham yana ichki guruhlarga bo‘linin ketadi. Ya’ni rasmiy va norasmiy:

Ijtimoiy sanktsiyalar to‘rt qismdan iborat. Ular quyidagilar:

1. salbiy ijtimoiy sanksiyalar - keraksiz harakatlar uchun jazo. Qabul ijtimoiy normalar tark bir odamga qarshi qaratilgan.
2. Ijobiy sanktsiyalar - harakatlar uchun rag‘batlantirish, quyidagi standartlarga, shaxsni qo‘llab-quvvatlash uchun kompaniyasi tasdiqlash.
3. Formal ijtimoiy sanksiyalar - rasmiy, davlat va hukumat idoralari kelgan.
4. Norasmiy sanktsiyalar - ijtimoiy guruh a’zolari reaktsiya bor.

Ijobiy sanktsiyalar salbiy ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. rasmiy nisbatan bir vaqtning o‘zida, norasmiy sanktsiyalar, eng samarali hisoblanadi. inson shaxsiy munosabatlar, qabul, sharmandalik va hukm qo‘rqib jazo va mukofotlar ko‘proq imtiyozlar mavjud. Sanktsiyalar barcha turlari bir necha kombinasyonları hosil qiladi. birlashtirish va ijtimoiy sanksiyalar bu misollarni ko‘rib chiqaylik.

- Formal ijobiy - rasmiy tashkilotlar (mukofotlari, unvonlari, mukofotlar, daraja, sertifikatlar) jamoat tasdiqlash.
- Ijobiy norasmiy - ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.
- Formal salbiy - qonunda nazarda tutilgan jarimalar (etc jarima, hibsga olish, ozodlikdan mahrum, ishdan bo‘shatish, ...)
- Norasmiy salbiy - izoh, masxara, shikoyat, tuhmat va boshqalar

Ijtimoiy jazo choralarini qo‘llash ba’zi hollarda begona shaxslarning mavjudligini talab qiladi, boshqalarida esa yo‘q (qamoq jazosi jiddiy sudlovni talab qiladi, uning asosida hukm chiqariladi). Ilmiy daraja berish dissertatsiyani himoya qilish va Ilmiy kengash tomonidan qaror qabul qilishning bir xil darajada murakkab jarayonini o‘z ichiga oladi. Agar sanktsiyani qo‘llash shaxsning o‘zi tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, o‘ziga qaratilgan bo‘lsa va uning ichida sodir bo‘lsa, unda nazoratning bu shakli o‘z-

o‘zini nazorat qilish deb ataladi. O‘z-o‘zini nazorat qilish - bu ichki nazorat. Shaxslar o‘zlarining xatti-harakatlarini mustaqil ravishda nazorat qiladilar, uni umume’tirof etilgan me’yorlar bilan muvofiqlashtiradilar. Ijtimoiylashuv jarayonida me’yorlar shunchalik qattiq o‘zlashtiriladiki, ularni buzgan odamlar o‘zlarini aybdor his qilishadi. Ijtimoiy nazoratning taxminan 70% o‘z-o‘zini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zini o‘zi nazorat qilish qanchalik yuqori rivojlangan bo‘lsa, bu jamiyat uchun tashqi nazoratga murojaat qilish qanchalik muhim emas va aksincha, o‘zini o‘zi boshqarish qanchalik zaif bo‘lsa, tashqi nazorat ham shunchalik qattiq bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, qat’iy tashqi nazorat, fuqarolarning mayda vasiyligi o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishiga to‘sinqlik qiladi va shaxsning ixtiyoriy sa’y-harakatlarini bo‘g‘adi, natijada diktatura paydo bo‘ladi. Ko‘pincha diktatura fuqarolar manfaati uchun, tartibni tiklash uchun vaqtincha o‘rnataladi, lekin majburlash nazoratiga bo‘ysunishga odatlangan fuqarolar ichki nazoratni rivojlantirmaydilar, ular ijtimoiy mavjudot sifatida, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir shaxs sifatida asta-sekin tanazzulga uchraydi. tashqi majburlovsiz, ya’ni diktaturasiz qiling, shuning uchun o‘z-o‘zini nazorat qilishning rivojlanish darajasi jamiyatda hukmronlik qiladigan odamlar turini va davlatning paydo bo‘lgan shaklini tavsiflaydi. Rivojlangan o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan demokratiyani o‘rnatish ehtimoli yuqori, o‘zini o‘zi boshqarish rivojlanmagan - diktatura.

Rasmiy salbiy sanktsiyalar jamiyatda ijtimoiy normalarni saqlash vositalaridan biridir. Bu atama lotin tilidan olingan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri "xulq-atvor qoidasi", "namuna" degan ma’noni anglatadi. Hammamiz jamiyatda, jamiyatda yashaymiz. Har bir insonning o‘z qadriyatları, afzalliklari, qiziqishlari bor. Bularning barchasi shaxsga muayyan huquq va erkinliklarni beradi. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, odamlar yonma-yon yashaydilar. Bu birlashgan jamoa jamiyat yoki jamiyat deb ataladi. Undagi xulq-atvor qoidalari qanday qonunlar bilan tartibga solinganligini bilish ham muhimdir. Ular ijtimoiy normalar deb ataladi. Rasmiy salbiy sanktsiyalar ularni amalga oshirishga imkon beradi.

Keling, mehnat qonunchiligidan aniq bir misol keltiraylik. Aytaylik, fuqaro Ravshanov tadbirkor. Uning uchun bir necha kishi ishlaydi. Mehnat munosabatlari jarayonida Ravshanov xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlarini buzadi va ularning ish haqini kechiktiradi, buni iqtisodiyotdagি inqiroz hodisalari bilan izohlaydi. Darhaqiqat, savdo hajmi keskin kamaydi. Xodimlar oldidagi ish haqi qarzini qoplash uchun tadbirkorning puli yetarli emas. Siz uni aybdor emas deb o‘ylashingiz mumkin va pulni jazosiz ushlab turishi mumkin. Lekin aslida unday emas. Tadbirkor sifatida u o‘z faoliyatini amalgga oshirishda barcha tavakkalchiliklarni o‘ylab ko‘rishi kerak edi. Aks holda, u xodimlarni bu haqda ogohlantirishi va tegishli tartib-qoidalarni boshlashi shart. Bu qonun bilan ta’minlangan. Ammo buning o‘rniga Ravshanov hammasi joyida bo‘lishiga umid qildi. Ishchilar, albatta, hech narsadan shubhalanmadilar.

To‘lov kuni kelganda, klassada pul yo‘qligini bilishadi. Tabiiyki, bu holatda ularning huquqlari buziladi (har bir xodimning ta’til uchun moliyaviy rejalar, ijtimoiy ta’minot va, ehtimol, ma’lum moliyaviy majburiyatlar mavjud). Ishchilar mehnatni muhofaza qilish davlat inspeksiyasiga rasmiy shikoyat bilan murojaat qilishadi. Tadbirkor bu holatda mehnat va fuqarolik kodeksi normalarini buzgan. Tekshiruv organlari buni tasdiqladi va tez orada ish haqini to‘lashni buyurdi. Kechiktirilgan har bir kun uchun endi davlat bankining qayta moliyalash stavkasiga muvofiq ma’lum bir jarima undiriladi. Bundan tashqari, inspeksiya organlari Ivanovga mehnat me’yorlarini buzganlik uchun ma’muriy jarima soldi. Bunday harakatlar rasmiy salbiy sanktsiyalarga misol bo‘ladi. Ammo ma’muriy jarima yagona chora emas. Masalan, ishxonaga kechikib kelgan xodimga qattiq tanbeh berildi. Bu holatda rasmiyatchilik ma’lum bir harakatdan iborat - shaxsiy faylga kirish. Agar uning kechikishining oqibatlari faqat direktorning hissiy jihatdan, so‘z bilan aytganda, unga izoh bergani bilan chegaralangan bo‘lsa, bu norasmiy salbiy sanktsiyalarga misol bo‘lar edi.

Ijtimoiy sanktsiyalarni qo‘llash ba’zi hollarda begona shaxslarning mavjudligini talab qiladi, boshqalarida esa yo‘q. Ishdan bo‘shatish muassasaning kadrlar bo‘limi tomonidan rasmiylashtiriladi va oldindan buyruq yoki buyruq chiqarishni o‘z ichiga

oladi. Ozodlikdan mahrum qilish sud muhokamasining murakkab tartibini talab qiladi, uning asosida sud qarori chiqariladi. Ma'muriy javobgarlikka tortish, aytaylik, chiptasiz sayohat qilish uchun jarima, rasmiy transport nazoratchisi, ba'zan politsiyachining mavjudligini talab qiladi. Ilmiy darajani berish ilmiy dissertatsiyani himoya qilish va Ilmiy kengash qarori bilan bir xil darajada murakkab tartibni o'z ichiga oladi. Guruh odatlarini buzganlarga nisbatan sanktsiyalar kamroq sonli shaxslarning mavjudligini talab qiladi. Sanktsiyalar hech qachon o'ziga nisbatan qo'llanilmaydi. Agar sanktsiyalarni qo'llash shaxsning o'zi tomonidan sodir etilgan bo'lsa, o'ziga qaratilgan bo'lsa va uning ichida sodir bo'lsa, unda nazoratning ushbu shakli o'zini o'zi nazorat qilish deb hisoblanishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Sotsiologiya" – X.B. Saitxojayev
2. "Sotsiologiya asoslari"- M. Bekmurodov
3. <https://uz.unansea.com/ijtimoiy-sanktsiyalar-bu-nima-turlari-misollar/>
4. <http://www.kompy.info/psixologiya-va-gumanitar-fanlar.html?page=58>
5. <https://buhconsul.ru/uz/rol-socialnyh-sankcii-v-obshchestve-ponyatie-socialnyh-norm/>

## ЭКРАНИРОВАНИЕ КАБЕЛЕЙ И ПРОВОДОВ В КОНТЕКСТЕ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ СОВМЕСТИМОСТИ (ЭМС)

Студент: **Мухаммаджонов Жавохир Баходир угли**

Научный руководитель: **Валиев Гайрат Сафиевич**

Филиал Российской национального исследовательского ядерного университета  
«МИФИ» в г. Ташкенте

В современном мире, где электронные устройства оказывают влияние на каждый аспект жизни, проблема электромагнитной совместимости становится все более актуальной. Особое внимание уделяется экранированию кабелей и проводов, которые играют важную роль в обеспечении бесперебойной работы устройств. В современных системах связи, передачи данных и энергопитания кабели и провода играют большую роль. Однако они также являются потенциальными источниками и приемниками электромагнитных помех. Электромагнитные поля, генерируемые другими устройствами, а также внешние электромагнитные помехи, могут воздействовать на кабели и провода, нарушая передачу сигналов и энергии. Эти факторы могут привести к ухудшению производительности, потере данных и даже повреждению оборудования. Эффективное экранирование кабелей и проводов базируется на ключевых принципах. Принцип Фарадея предполагает создание заземленного экрана, разряжающего электромагнитные поля, где материалы с высокой проводимостью ведут себя как магнитные поглотители. Материалы с хорошей электрической проводимостью поглощают электрические поля, а магнитопроводящие материалы - магнитные.[1] Эффективность экранирования зависит от толщины материала, который не только защищает от помеховых полей, но и поглощает энергию электромагнитных волн. Континуальность материала обеспечивает непрерывное поглощение и отражение полей, а связь с

заземлением выводит избыточные заряды, создавая равномерное распределение потенциала. В совокупности эти принципы позволяют создавать надежные экранирующие конструкции, уменьшая воздействие электромагнитных помех на кабели и провода. [3] Типы экранирования кабелей и проводов включают использование тканевых оболочек для создания барьера от электромагнитных полей, добавление тонких металлических слоев (фольги или пленки) для блокировки помех, и применение оплеток или металлических гофр для дополнительной защиты. Материалы для экранирования включают проводящие пленки и фольги, создающие электрический барьер, а также металлические сетки и оплетки с высокой электрической и магнитной проводимостью.[2]




Рис. 1. Частотные зависимости энергетических коэффициентов отражения и поглощения сигналов для различных металлов (толщина листа 0,05мм). [3]

Практическое применение экранирования видно в промышленной автоматизации для стабильности передачи сигналов, в медицинской технике для точности данных, и в аудио- и видеоустройствах для высококачественных сигналов. Эти примеры демонстрируют важность экранирования в обеспечении надежности и качества работы электронных систем.

Экранирование кабелей и проводов в контексте электромагнитной совместимости играет решающую роль в обеспечении надежной и стабильной работы электронных систем. Основанные на принципах закона Фарадея, электрической и магнитной способности, толщине и континуальности

материалов, а также связи с заземлением методы экранирования позволяют минимизировать негативное воздействие электромагнитных помех. Выбор типа экранирования, а также материала для создания экранирующих слоев зависит от требований конкретных применений. От промышленной автоматизации и медицинской техники до аудио- и видеоустройств, экранирование способствует сохранению высокой производительности, точности передачи данных и качества сигнала. Понимание и применение основных принципов и методов экранирования кабелей и проводов позволяют инженерам и специалистам в области электротехники создавать надежные и эффективные системы, устойчивые к воздействию электромагнитных помех и обеспечивающие непрерывную работу электронных устройств в различных сферах применения.

### Литература:

1. В.Ф. Янушкевича. Электромагнитные поля и волны. Издатель “Полоцкий государственный университет”, 2007
2. “Cable.ru Назначение экранирования кабелей и используемые для этого материалы.” <https://cable.ru/articles/1230-naznachenie-ekranirovaniya-kabeley-i-ispolzuemye-dlya-etogo-materialy>
3. Островский О. С. Защитные экраны и поглотители электромагнитных волн / О. С. Островский, Е. Н. Одаренко, А. А. Шматько // Фізична інженерія поверхні. - 2003. - Т. 1, № 2. - С. 161-173.

## HTTP VA FTP PROTOKOLLARIDA ISHLASH UNUMDORLIGINI TAHLILI

**Mamayeva Oydinoy Ismoiljon qizi,**

**Abduqodirov Abdulhay Abdulaziz o‘g‘li**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabalari.

*Annotatsiya. Ushbu maqolada HTTP (HyperText Transfer Protocol) va FTP (File Transfer Protocol) protokollari o‘rtasidagi muhim farqlarni tahlil qilingan, shu bilan bir qatorda HTTP va FTP — bu ikki o‘zaro aloqador protokollar, ulardan biri ma’lum bir veb sahifasidan ma’lumotlarni yuklab olish, boshqa esa fayllarni ko‘chirish usullari samaradorligi ko‘rib chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** URL, HTTP, FTP, index, HTML, web sayt.

URL (Uniform resource locator) – so‘ralayotgan hujjatning aniq adresini ko‘rsatish imkoniyatini berish. URL yozilishida quyidagilar ishtirok etadi: Protocol, internet manzil, yo‘l, fayl nomi, kengaytma.

Shunday qilib URL bu – so‘ralayotgan xujjatning aniq adresini ko‘rsatish imkoniyatini berish uchun [www.umail.uz](http://www.umail.uz) kabi adreslar turlari kombinatsiyasi va yana ko‘shimcha elementlarga ega. URL day foydalanib, web-brauzerlar yordamida ixtiyoriy xujjat va xizmatlarga dostup olish mumkin. URL quyidagi tartibda yoziladi: Protokol://internet\_adres/yo‘l\_fayl\_nomi.kengaytma yoki Protokol://internet\_adres URL ga misol:

<http://www.microsoft.com/windows/index.html>

Bu erda: http:// – protokol;

[www.microsoft.com](http://www.microsoft.com) – internet\_adres(Microsoft

kompaniyasinnig web-serverinnig nomi)

/windows/ – yo‘l

index – fayl\_nomi

html – kengaytma

URL da qo'llaniladigan protokollar ro'yxati:

Protokol nomi	Protokol nimaga dostup berishi mumkinligi
http://	HTTP (veb) serverlariga
https://	Shifrlangan ba'zi bir HTTP (web) serverlarga
file://	Foydalanuvchi qattiq diskidagi fayllarga
ftp://	FTP server fayllariga
gopher://	Gopher menuy va fayllariga
news://	Usenet yangiliklar serverlari gruppasiga
news:	Aniq Usenet yangiliklar gruppasiga
mailto:	Aniq elektron pochta adresiga
telnet:	Telnet (udalen) serveriga

HTTP (HyperText Transfer Protocol) – Gipetmatnlarni jo'natish protokoli – web-brauzer va web-server muloqotining asosini tashkil etadi. HTTP Internetda foydalaniladigan yagona protokol emas.

TCP (Transmission Control Protocol) – Ma'lumotlarni uzatishni boshqarish protokoli; IP (Internet Protocol) – Internet protokoli - Har bir kompyuterga qo'yiluvchi manzil; FTP (File Transfer Protocol) – Fayllar uzatish protokoli; SMTP (Simple Mail Transfer Protocol) – elektron pochta uzatish protokoli; POP (Post Office Protocol) – pochta bo'limi protokoli; HTTPS (HyperText Transfer Protocol Secure) – shifrlangan gipermatnlarni uzatish protokoli; IMAP (Internet Message Access Protocol) – Internet xabarlaridan foydalanish protokoli kabi protokollar mavjud.


Gipetmatnlarni jo'natish protokolida web-brauzer HTTP maxsus komandasi orqali server bilan bog'lanish uchun so'rov jo'natadi. Agar so'rov qoniqtirilsa, brauzer server bilan bog'lanadi.

Qabul qiluvchi tomon nima qilishni o'zi xal qiladi yoki ekranda faylni ko'rsatadi, yoki uni diskda saqlab qo'yadi.

Gipermatnlarni belgilash tili (HTML – HyperText Markup Language) webbrauzerlar ekraniga ma'lumotlarni standart kodlar orqali chop etish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunning talablaridan kelib chiqib to‘laqonli web -saytlar yaratishda bir qancha turdag'i dasturiy vositalardan foydalaniлади. Chunki to‘laqonli web-saytni shakllantirish uchun uning turli formatdagi informatsion obyektlariga turli muharrirlar yordamida ishlov beriladi. Masalan, saytga tegishli turli formatdagi tasvirlar (rasmlar) grafik muharrirlar yordamida yaratiladi va ularga ishlov beriladi.

Shu kabi to‘laqonli web-saytlar yaratishga xizmat qiluvchi dasturiy vositalarni to‘rtta katta guruhg‘a ajratish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Web-saytlar yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalalar guruhlari.

Unga ko‘ra: Grafik muharrirlar; Web muharrirlar; Animator dasturlar; Audio-video muharrirlar. Grafik muharrirlar: Adobe Photoshop, Corel Draw, Adobe Illustrator, AutoCad, Ulead PhotoImpact. Web muharrirlar: FrontPage, Macromedia Dreamweaver, HomeSite, WebStudio, Web Page Maker. Animator dasturlar: Adobe Flash, 3DS Max, GIF Animator, XARA 3D, Alias MAYA. Audio-video muharrirlar: Ulead VideoStudio, Pinnacle Studio, Video EditMagic, Sound Forge, Adobe Premiere Pro. Bundan tashqari web-muharrirlarning ham turlari juda ko‘p. Ular o‘zining imkoniyati, tezkorligi, interfeysi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. Bular: Блокнот (NotePad), AkelPad, Sothing DHTML Menu, PHP Designer, HTML Reader, HomeSite, Dreamweaver CS4.

DHTML tili HTML va JavaScriptlardan farqli ravishda bir qancha qo'shimcha internet texnologiyalariga ega. Dinamik HTML – Netscape va Microsoft tomonidan o'ylab topilgan tijorat termini bo'lib, unda Web -brauzerlarning dinamik imkoniyatini kengaytirish maqsadida kiritilgan. Bu texnologiyalar HTML yordamida Web -sahifa yaratishdagi mavjud imkoniyatning cheklanganligi va ana shu cheklovdan o'tib ketish uchun yaratilgan yoki qo'shilgan hisoblanadi. Chunki bizga ma'lumki HTMLning faqatgina o'zidan foydalanib, bugungi kunda mukammal Web -sahifalar yaratib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, mavjud Internetda matnli ma'lumotlar va grafik ma'lumotiarga mo'ljallangan juda yaxshi texnologiyalar mavjud edi. Ammo multimedia imkoniyatlariga ko'nikib qolgan odamlar esa bunga ko'nika olmadi. Shu sababli Internet imkoniyatlarini kengaytirish kerak edi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xonto'rayev, S. (2023). Oliy ta'llim muassasalarida Web resurslarda mavjud dasturiy, texnik va uslubiy muammolarni bartaraf etish. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, Т. 27. спец. выпуск № 2).
2. Nabijonov, R., & Ergasheva, A. (2023). Media portallar yaratishda vue.js operatorlari tahlili. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/52>
3. Порубай О. В., Хасанова М. У. К. Обзор процесса принятия решений в условиях риска и неопределенности //Universum: технические науки. – 2022. – №. 7-1 (100). – С. 17-19.
4. Азимов, Р. К., Шипулин, Ш. Ю., Холматов, У. С., Абдуллаев, Т. А., & Исмоилов, Х. А. (2016). Морфологический метод структурного проектирования оптоэлектронных преобразователей на основе полых и волоконных световодов (ОЭГТВС). In Современные материалы, техника и технологии в машиностроении». III Международная научно-практическая конференция (pp. 15-19).

5. Nabijonov , R., Ergasheva , A., Ibrohimova , N., & Azamov , S. (2023). Masofaviy ta’limda internet tizimlari afzalliklari va ulardan xavfsiz foydalanish usullari. *Research and Implementation*, 1(4), 31–38. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/881>
6. Шипулин, Ю. Г., Рустамов, Э., Абдуллаев, Т. М., & Мейлиев, С. Н. (2019). Интеллектуальный оптоэлектронный датчик температуры с волоконно-оптическими элементами. In Проблемы получения, обработки и передачи измерительной информации (pp. 248-253).
7. Шипулин, Ю. Г., & Абдуллаев, Т. М. (2020). Состояние и развитие интеллектуальных оптоэлектронных преобразователей перемещений на основе волоконных и полых световодов. *Universum: технические науки*, (5-1 (74)), 5-9.
8. Шипулин, Ю.Г. , & Мейлиев, С.Н. (2022). Состояние и развитие оптоэлектронных дискретных преобразователей перемещений на основе волоконных и полых световодов. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 ( Special Issue 4-2), 1201-1208.
9. Nabijonov, R., & Ergasheva, A. (2023). Masofaviy o‘qitish tizimlarini ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/44>
10. Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o‘g‘li. (2022). Media portal yaratishning asosiy afzallik va kamchiliklarI . *World Scientific Research Journal*, 10(2), 125–131. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2379>
11. Nabijonov , R., & Ibrohimova , N. (2023). Flutter frameworkidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/883>

## O'ZBEKISTONNING SUV HAVZALARIGA MARSHRUTLAR TAYYORLASHNING TURIZMDA TUTGAN O'RNI

**Soatov Yusuf Xo'jayor o'g'li**

Renessans ta'lim Universiteti iqtisodiyot

kafedrasи katta o'qituvchisi

[soatovyusuf@gmail.com](mailto:soatovyusuf@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Hozirgi rivojlangan jamiyatimizda sayohat-sayrga chiqmagan biron ta inson bo'lmasa kerak. Ushbu sayrlarning asosiy yo'nalishlari dengiz va plaj hududlariga amalga oshirmoqda. Bu tatqiqoda O'zbekistonning suv havzalariga marshutlar amalga oshirish ahamiyatiga to'xtalamiz.*

**Kalit so'zlar:** Aydar-Arnasoy, texnologik xarita, ekoturizm- rekreatsiya.

### **ABSTRACT**

*In this article, there should not be a single person who did not travel in our now developed society. The main routes of these walks are implementing to the sea and beach areas. The importance of the implementation of marshuts to the water bodies of Uzbekistan*

**Keywords:** Aydar-Arnasoy, technological map, ecotourism - recreation.

### **KIRISH**

Biz mamlakatimizda ekoturizmni faqat biologik resurslar asosida emas balki, vatanimizning suv havzalarida ham rivojlantirishimiz lozim. Chunki, O'zbekistonda 500 dan sal ko'proq ko'llar, maydoni  $10 \text{ km}^2$  dan ko'proq 32ta ko'llar bor. O'zbekistonda eng katta ko'llar tizimi – bu Aydar-Arnasoy, maydoni  $3600 \text{ km}^2$ , hajmi esa  $42 \text{ km}^3$ , hamma suv omborlari zaxirasidan ustin turadi.

Ko‘llardan tashqari hozirgi vaqtida respublikada 55 suv ombori ishlab turibdi. Ularning to‘liq loyiha hajmi 18,8 km<sup>3</sup>, foydalisi–14,8 km<sup>3</sup> dan iborat. Eng yiriklari: Tuyamo‘yin, Chorvoq, Tudako‘l, Kattaqo‘rg‘on suv omborlari hisoblanadi. Ular daryo suv oqimlarini yil davomida boshqarib turish, ekinlarni sug‘orish davrida foydalanish, favqulodda suv toshqinlarini oldini olish uchun qurilgan. Ekoturizm-rekreatsiyani rivojlantirishda qayd qilingan ko‘llar va suv omborlaridan foydalanish xalqaro ekoturizmni ham, ichki ekoturizmni ham rivojlantirishdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Turistik marshrutning texnologik xaritasi.** Turistik marshrutning texnologik xaritasi turning asosiy hujjati hisoblanadi va bu texnologik xarita rasmiy jihatdan to‘ldirilishi va turistik firmanın rahbari tomonidan imzolanishi va muhrlanishi kerak. Quyidagi texnologik xaritani to‘ldirish namunalarini keltiramiz:

***Turistik ekskursiya marshrutining texnologik xaritasi***

1. Marshrutning nomi, mavzusi—«*Aydarko‘lda dam oling» ekoturizm-rekreatsiya marshruti*
2. Marshrutning muddati (boshlanishi va tugashi)- ***1 kun, .....may 2021 yil.***
3. Marshrut turi – ***ekoturizm-rekreatsiya***
4. Marshrut masofasi (km)-***150 km***
5. Marshrut harakatlanishi:-***Avtobusda va piyoda***
  - a) transportda (km)-***140 km***
  - b)piyoda (km)-***5 km***
  - v) mahalliy transportda (km)-***0***
  - g) suv havzalarida (km)-***5 km***
6. Marshrutdagi turistlar soni- ***20 ekoturist va 3 xizmat qiluvchilar.***
7. Marshrutdagi ekskursiyalar mavzusi va yozma shakli- ***ilova qilinadi.***
8. Marshrut egasi bo‘lgan korxona manzili- ***Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 9-uy, telefon-.....***

***M.O‘. Rahbarning ismi familiyasi va imzosi-***

**Turistik marshrutning hujjatlari.** Har bir tur uchun texnologik hujjatlar yig‘indisi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Marshrutda turistlar sayohatning texnologik xaritasi
2. Marshrutda xizmatlar ko‘rsatuvchi turistik korxonalarining buyurtmalarni bajarish grafigi-...**may 2021 yil**
3. Turistik sayohat yo‘llanmasiga axborot varaqasi
4. Hamkorlar bilan shartnomalar (mehmonxona, transport, ekskursiya byurolari, turistik tashkilotlar).
5. Turning bahosi (kalkulyasiyasi)- **50 000 so‘m.**
6. Marshrutning yozma matni-**ilova qilinadi.**
- Innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qiluvchi korxonalar. Fikrimizcha, ushbu toifadagi suyektlar ko‘proq rag‘batlantirishga muhtoj. Chunki, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini ta’minlashning asosiy shartidir. Bundan tashqari, innovatsiyalar ishlab chiqarishni alohida rag‘batlantirish innovatsiyalarni eksport qilish imkoniyatiga olib keladi.

- Innovatsion mahsulot iste’molchilar bo‘lgan korxonalar. Ushbu korxonalar ham innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshirish maqsadida soliqlar vositasida rag‘batlantirishga muhtoj. Shuningdek, innovatsion mahsulotlarni iste’mol qilishni alohida rag‘batlantirish innovatsion mahsulotlarni import qilish imkoniyatiga olb keladi.

- Innovatsion infartuzilma korxonalari. Ushbu toifaning soliqlar vositasida rag‘batlantirish talab etiladigan subyektlar tarkibiga kiritilishi innovatsion infratuzilma korxonalarning faoliyati innovatsion faoliyatning barcha bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lib, innovatsion iqtisodiyotni normal ishlashi uchun muhimdir.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1.
2. Рузметов Б. Региональная экономика. Тошкент, «Фан» 2002.
3. Эшниязова Ю. “Стимулирующая роль налогового механизма в формировании инновационной экономики региона” Журнал “Экономика и предпринимательство” №10 (147) 2022г. Стр.314-317
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. (Yangi tahriri) (O‘zR 30.12.2019 y. O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan)

## ЎСМИР ШАХС ХУСУСИЯТЛАРИ НАМОЁН БЎЛИШИДА ТУГИЛИШДАГИ ТАРТИБНИНГ ТАЪСИРИ

**Ғайибова Наргиза Анорбаевна**

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

e-mail: ms.gayibova@mail.ru

### **АННОТАЦИЯ**

*Мақолада шахс шакланишига тугилишдаги тартибнинг таъсири борасидаги олимлар муроҳазалари ҳамда ўсмир ва унинг шахс хусусиятларига тугилишдаги тартиб, яъни сиблинг мақомининг таъсири ҳақида маълумот берилган. Шунингдек, мақолада мазкур муаммо бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари келтирилган.*

**Калим сўзлар:** ўсмир, оила, тугилишдаги тартиб, сиблинг мақоми, сиблинг муносабатлар, тўнгич фарзанд, ўртанча фарзанд, кенжса фарзанд, ёлғиз фарзанд, шахслараро муносабатлар.

### **INFLUENCE OF BIRTH ORDER ON PERSONAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS**

### **ABSTRACT**

*The article presents the views of scientists on the influence of birth order on the formation of personality. Information about the influence of birth order, i.e. sibling status, on the teenager and his personal characteristics. The article also presents the results of research on this issue.*

**Key words:** teenager, family, birth order, sibling position, sibling relationship, older child, younger child, only child, interpersonal relationships.

**КИРИШ.** Шахс шаклланишида, унинг ўзига хос индивидуал-психологик хусусиятлари ривожланишида шахслараро муносабатларнинг аҳамияти бекиёсdir. Хусусан, ўсмирнинг шаклланиши ва келажагини белгилашда оиласдаги шахслараро муносабатларнинг, жумладан, сиблинглар – ака-ука, опасингиллари билан муносабатларининг ўзига хослиги, оиласда фарзандларнинг ўзаро муносабатлари, уларнинг туғилишдаги тартиби ва мазкур тартиб асосидаги ота-она ва фарзанд муносабатларининг ташкил этилиши аҳамиятли таъсир кўрсатади. Шу боис ҳам ўсмирнинг тенгқурлари билан бўладиган шахслараро муносабатларига таъсир этувчи омиллар қаторида унинг сиблинг мақоми таъсирини илмий жиҳатдан ўрганиш долзарб масалалардан биридир [5].

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ.** Туғилишдаги тартиб моҳиятини очиб беришда илмий адабиётларда сиблинг мақоми тушунчасидан фойдаланилади. Психологик адабиётларда сиблинг мақоми туғилишдаги тартибни ҳисобга олган ҳолда шартли равишда асосан 4 турга: тўнғич, ўртанча, кенж ва ягона фарзандга ажратиб кўрсатилган [3; 5;].

Оилаларда фарзандларнинг ўзаро сиблинг муносабатлари маҳсус психологик тадқиқотлар предмети сифатида ўрганилиши даставвал ғарб олимлари ишларида кузатилади. Индивидуал психология асосчиси А.Адлер илк бор оиласда боланинг туғилиш тартиби, фарзандлар ўзаро муносабатларининг индивиднинг ҳаёт услубини шаклланишига муҳим таъсир кўрсатишини ўрганди. Адлер оиласдаги ҳаёт тарзининг ўзгариши фарзандларнинг ҳар бирiga турлича таъсир кўрсатади, деб ҳисоблади. Шахс шаклланишида ижтимоий муҳитнинг асосий роли ҳақида гапирап экан, ҳаёт тарзидаги асосий детерминант, қилиб туғилишдаги тартибни кўрсатади. Унинг фикрича, бир оиласда тарбияланадиган болалар учун ижтимоий вазият турлича бўлади. Оиласда ҳар бир кейинги фарзанднинг туғилиши, олдинги фарзандлар ҳаёт тарзининг ўзгаришига, хусусан ота-онанинг ва оиласдаги болалар ўзаро муносабатлари, оиласдаги мавқе ўзгаришига сабаб бўлади. Бу ўзгаришлар болада янги психологик ҳосилаларни пайдо қиласди. Адлер оиласда ёлғиз фарзандлар шахслаларо муносабатларда турли қийинчиликларга

учрашини ўз изланишларида келтириб ўтади. Ҳар бир сиблинг мақомининг ўзига хос тарафлари бор, шундай экан ҳар бир мақомга хос бўлган вазиятларни ўрганиш зарур деб ҳисоблади Адлер [1].

Хориж психологлари У.Тоумен, Ж.Данн, Р.Зайонц, Р.Фельсон, А.Тессер, С.Шахтер, Р.Ричардсон, Р.Дрисколл, Д.Икстейн, Р.Бразингтон, Г.Хоментаускас, К.Исааксон, Т.Думитрашку ва бошқалар ҳам ота-она ва фарзандлар ўзаро муносабати, оиладаги фарзандлар ўзаро муносабатлари, оиладаги психологик иқлим, шахслараро муносабатлар характери билан бир қаторда сиблинг мақоми ҳам бола шахсининг шаклланиши, ҳар томонлама етук инсон бўлиб етишувида ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлигини тадқиқот ишлари натижалари асосида ёритиб берганлар [2;4;5]. Хусусан, Клиф Исааксон туғилишдаги тартиб назарияларига асосланган ҳолда, инсонинг туғилиш тартиби унинг психологик типига таъсир қилиниши таъкидлади ва сиблинг мақомини ўзига хос усуллар билан ўрганди [2]. Шунингдек, туғилишдаги тартибни ҳисобга олган ҳолда шахсга психологик ёрдам кўрсатиш мумкинлигини таъкидлаб, ҳар бир сиблинг мақомига ўзига хос хос таъриф келтиради. Унинг фикрича, туғилишдаги тартиб билан бир қаторда, туғуриқлар орасидаги ёш, оиладаги фарзандларнинг ўзаро муносабатлари шахснинг психологик типи шаклланишида аҳамиятли таъсир кўрсатади. Умуман, Исааксоннинг фикрича, биринчи яъни, тўнгич фарзанд бўлишиб ўрганганилиги сабабли кўнгилчан бўлади. Ота-оналар унга кўп умид боғлашади. Ундан кўпинча кўп масъулият талаб қилишади, кичикларга намуна бўлиши кераклиги ҳақида уқтирилади. Натижада бола авторитар ва жиддий бўлиб ўсиши мумкин. Иккинчи фарзанднинг мавқеи бошқачароқ, катта акаси ёки опасининг доимо олдинда бўлиши болада рақобатчилик руҳини тарбиялайди, у доимо каттадан олдинга ўтишга интилиб яшайди. Агар оиласда фарзандлар кўп бўлиб, бола ўзини кўрсатиш учун курашиб яшаган бўлса, рақобатлашиш ҳаётининг мазмунига айланиб қолиши мумкин. Кўпинча улар ўзларини эътибордан четда қолган деб ҳисоблашади. Тадқиқотлар натижаларининг кўрсатишича, психик касалликларга чалинган беморларнинг қўпчилик қисми

туғилиш тартиби бўйича охиридан иккинчи ўринда бўлган кишилар экан. Бунинг сабаби, унинг ўзидан кейинги укаси ёки синглисими эркалатишларига қўничиши қийин бўлганлигига деб кўрсатиш мумкин. Аммо ўртанча фарзандлар кўнгилсиз ходисаларни хотиржам қаршилайди, бошига тушган омадсизликларга чидамли бўлади. Улар ҳақсизликларга чидолмайдиган, адолат учун курашувчи бўлишлари билан бирга, ҳаётда ўз ўрнини топишга бироз қийналишлари мумкин. Кенжа фарзанднинг эса хомийлари кўп бўлади, шунинг учун у эркароқ бўлади. Шу билан бирга, уни назорат қилувчи, хўжайинлик қилувчилар ҳам кўп бўлади. Улар тезроқ катта бўлишга интилсада, бир умр “кичкинтой” бўлиб қолаверади [2].

**НАТИЖАЛАР.** Мамлакатимизда ҳам сиблинг мақоми ва сиблинглар ўзаро муносабатларининг шахс шаклланишига таъсирини ўрганиш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Биз тадқиқот ишимизда турли сиблинг мақомидаги ўсмирларнинг оиласидаги ва гуруҳдаги шахслараро муносабатларини ўрганар эканмиз, уларнинг ўзига хос ижтимоий-психологик хусусиятларини ҳам тадқиқ этдик [5].

1-жадвал

### Турли сиблинг мақомидаги ўсмирларнинг оиласидаги шахслараро муносабатлар ҳақидаги фикрлари

Саволлар	Жавоб вариантлари	Тўнгич фарзандлар	Ўртанча фарзандл ар	Кенжа фарзандл ар	Ёлғиз фарзандл ар
<b>Оиласидаги қайси фарзандга кўпроқ масъулият юкланади, деб хисоблайсиз?</b>	<b>Тўнгич фарзандга</b>	<b>90,7</b>	<b>88,3</b>	<b>84</b>	<b>43,3</b>
	Ўртанча фарзандга	<b>1,9</b>	<b>5,2</b>	<b>2,3</b>	—
	<b>Кенжа фарзандга</b>	<b>2,8</b>	<b>2,6</b>	<b>8</b>	<b>3,3</b>
	Ёлғиз фарзандга	<b>4,6</b>	<b>3,9</b>	<b>5,7</b>	<b>53,4</b>
Оиласизда низоли вазиятни	<b>Ўзим</b>	<b>69,5</b>	<b>31,2</b>	<b>34,1</b>	<b>33,3</b>
	<b>Акам</b>	—	22	<b>27,3</b>	—

бартараф этишда биринчи бўлиб ким ён босади?	<b>Укам</b>	<b>6,5</b>	<b>2,6</b>	-	-
	<b>Опам</b>	-	19,6	<b>21,6</b>	-
	<b>Синглим</b>	<b>7,4</b>	<b>2,6</b>	-	-
	<b>Ота-онам, бошқалар</b>	<b>16,6</b>	<b>22</b>	<b>17</b>	66,7
Тенгдошларингиз даврасида мухим ишларни ҳал қилишда кўпинча ташаббусни ўз қўлингизга оласизми?	Ҳа	<b>44,5</b>	37,7	23,9	40
	<b>Йўқ</b>	<b>22,2</b>	<b>29,8</b>	51	<b>13,3</b>
	<b>Баъзан</b>	<b>33,3</b>	<b>32,5</b>	<b>25,1</b>	46,7

Тўнғич фарзанднинг оиласидаги шахслараро муносабатларда низоли вазиятлардаги хулқ услубининг ўзига хослигини саволларга берилган жавоблардан ҳам кўриш мумкин.

**МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР.** Тўнғич фарзанд мақомидаги ўсмирлар “Оилангизда низоли вазиятни бартараф этишда биринчи бўлиб ким ён босади?” деган саволимизга бошқа сиблинг мақомидагиларга нисбатан икки баравар кўпроқ “ўзим” жавобини белгилаганлар. Бу тўнғич фарзандларнинг болалигидан ота-онасининг муносабатларини ёмон томонга ўзгаришидан хавотирланишини, ота-оналарининг қистови ёки фарзандларнинг каттаси эканидан низоли вазиятни бартараф этишни вазифаси деб билгани учун кичикларга ён босиб ўрганганлигини кўрсатади [5;6].

Оилада ҳам ўртанча фарзанд мақомидаги ўсмирлар бошқа сиблинг мақомидаги ўсмирларга нисбатан сиблинглари билан кўпроқ тортишувга боришилари аниқланди. Улар ўзидан кичик сиблингта нисбатан ўзидан олдинги сиблинг билан кўпроқ низога боришар экан. Ушбу хулқ услуби ўртанча, аммо жинс бўйича ёлғиз ўғил болаларга нисбатан ака-укалари бор ўғил болаларда юқори эканлиги аниқланди. Психолог олим Г.Т.Хоментаускаснинг фикрича, ўртанча фарзандлар кўпинча ўзларини ота-онасининг эътиборидан четда қолган

деб ҳисоблашлари атрофдагиларга нисбатан бошқарувчилик, ҳукмрон муносабатларни ўрнатишларига сабаб бўлади, улар ҳақсизликларга чидолмайдиган,adolat учун курашувчи бўлишади [3]. Бизнингча ҳам, ўрганча фарзанд доимо фарзандлар орасида ажралиб туришга, олдинда бўлишга интилади, бу болада рақобатчилик руҳини, кишиларга ҳукмрон муносабатда бўлиш каби сифатларни тарбиялайди. Фикримизнинг далили сифатида тадқиқот ишимизда қўлланилган Т.Лири методикасидан олинган натижаларни келтириш мумкин. Тадқиқот натижаларига кўра, оиласидаги ўрганча фарзандлар бошқа сиблинг мақомидаги ўсмирларга нисбатан атрофдагиларга ҳукмрон, бошқарувчилик муносабатида бўлишлари, рақобат қилишни ёқтиришлари аниқланди [5,6].

Тадқиқотда иштирок этган кенжा фарзандлар оиласда ва тенгдошлари даврасида масъулиятни бўйнига олишни ёқтиримасликларини билдиришган. Тадқиқотда иштирок этган кенжা фарзандларнинг 51% и “Тенгдошларингиз даврасида муҳим ишларни ҳал қилишда кўпинча ташаббусни ўз қўлингизга оласизми?”, деган саволимизга “йўқ” деб жавоб қайтарганликлари ҳам, фикримизнинг далилидир. Зеро, бу саволга бошқа сиблинг мақомидагиларнинг аксарияти “ҳа” деб жавоб қайтарганлар. Шундай бўлсада, социометрия натижаларига кўра, кенжা фарзанд мақомидаги ўсмирлар коммуникатив лидерликни аниқлаш бўйича берилган саволда кўп танлов олганлар. Бу уларнинг кишилар билан муносабатларга интилиши ва мулоқотманд эканликларидан далолат беради. Шунингдек, улар тўнгич ва ўрганча фарзандларга нисбатан оиласидаги сиблинг муносабатларни ижобий баҳолашган. Бизнинг фикримизча, ота-оналарнинг, катталарнинг кенжা фарзандларга сабрли муносабатда бўлишлари уларда кишилар билан муносабатда эҳтиёткорлик, кечиримлилик, дўстоналий билан муомала қилиш малакаларини ривожлантирган бўлиши мумкин. Албатта бунда, оиласинг маънавий, ижтимоий ва иқтисодий аҳволи, ота-оналарнинг маълумотлилик даражаси ва уларнинг фарзандларга муносабатлари каби омиллар ҳам муҳим рол ўйнайди. Шунингдек, кенжা жинси

бўйича ёлғиз ўғил болаларда акалари бор тенгқурларига нисбатан атрофдагиларга хукмрон, бошқарувчилик муносабатда бўлиш юқори экан, кенжа ёлғиз қизларда ишончсизлик, тез хафа бўлиш каби сифатлар юқори экан. Демак, кенжа фарзандлар кишилар билан дўстона муносабатда бўлишга интилишади, мулоқотчан, киришимли, кечиримли бўлиш билан бир қаторда уларга масъулиятсизлик ҳам маълум маънода хос экан [5].

Тадқиқотимиз натижаларига кўра, ёлғиз фарзандларнинг тенгдошлари билан муносабатларида айрим қийинчиликлар борлигини кўриш мумкин. Зеро, улардан 70%га яқини “Ўқиши тамомлагандан сўнг синфдошларингиздан ким билан бирга, бир жойда ишлаш ёки ўқиши ҳохлайсиз?” деган саволимизга “ҳеч ким билан” деб жавоб берганлар. Шунингдек, низоли вазиятларда муроса-келишувга келиш хислати ёлғиз фарзандларда бошқа сиблинг мақомидаги ўсмирларга нисбатан паст эканлиги аниқланди.

**ХУЛОСА.** Демак, оилада ака-ука, опа-сингилларининг бўлиши ва улар билан муносабатларда ён босиш, муросалик хислатларининг таркиб топганлиги маълум маънода тенгдошлар билан низоли вазиятларда муросага келишга сабаб бўлади[5].

Юқорида келтирилган натижалардан шуни хulosа қилиш мумкинки, шахснинг туғилишдаги тартиби, яъни сиблинг мақоми ва унинг сиблинглари билан ўзаро муносабати ҳар бир бола шахсининг шаклланишига ва мулоқотчанлик, ён босувчанлик, келишувчанлик, дўстоналик каби ижтимоий-психологик хусусиятларнинг шаклланишига ўз таъсирини кўрсатади.

**АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Адлер, А. (1997). Понять природу человека, 13-26.
2. Исааксон, К., Редиш, К. (2004). Рожденный первым: Теория очередности рождения – ключ к познанию психологии личности, 100-120.
3. Каримова, В., Файибова, Н. (2022). Оила психологияси. Ўкув қўлланма, 144-148.
4. Реан, А. Психология человека от рождения до смерти. Психологический атлас человека/ под ред.. М.:АСТ;СПб.: прайл-ЕВРОЗНАК, 2010. 651 с.
5. Файибова, Н. (2021). “Сиблиинг мақоми ва унинг ўсмир шахслараро муносабатларига таъсири”. Монография.
6. Gayibova N. A. (2016). *Influence of the sibling statuse's of teenagers on interpersonal relations*. European Journal of Education and Applied Psychology, 2, 68-69.

## МИНЕРАЛ СОРБЕНТЛАРНИ ФАОЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

**Хамроев Жобир Холмуродович**

Самарқанд Давлат Тиббиёт университети

### **АННОТАЦИЯ**

*Мақолада табиий минерал сорбентларни фаоллаштириши технологияси учун тажриба натижалари интерпретация қилинди ва фаоллаштириши режалаштирилди ҳамда бентонит асосида сорбентлар зичлиги, зарралар ийгинди ҳажми, сирт юзаси, механик мустаҳкамлиги анықланди.*

**Калит сўзлар:** Навбахор, Бентонит, Сорбент, Фаоллаштириши, Цеолит, Адсорбция, Концентрация, Эритма.

### **ANNOTATION**

*In the article, the experimental results for the technology of activation of natural mineral sorbents were interpreted and activation was planned, and the density, aggregate size of particles, surface area, and mechanical strength of sorbents based on bentonite were determined.*

**Key words:** Navbakhor, Bentonite, Sorbent, Activation, Zeolite, Adsorption, Concentration, Solution.

### **КИРИШ**

Дунёда табиий минерал сорбентлардан сезиларли даражада адсорбциялаш ва ионалмаштириш хусусиятига эга бўлганлиги учун саноатнинг турли соҳаларида шунингдек, атроф муҳитни, экологияни захарли моддалардан тозалаш ва одамнинг соғлигини ҳимоялашда фойдаланилади. Ҳозирги кунда табиий бентонит асосан қишлоқ хўжалигида қўлланилмоқда. Атроф муҳитга кам миқдорда зарар етказганлигини инобатга олган ҳолда табиий адсорбентларни

олиш осон бўлиши билан бир қаторда арzon материаллар бўлиб, ҳаводаги ҳар хил ифлословчи моддаларни сорбциялаб, уларни нейтраллаштиради, шу билан бирга сорбентларнинг ўзи экологик тоза, атроф мухитни деярли ифлосламайдиган хомашёдир. Бундан ташқари турли хил фаоллаштирувчилардан фойдаланиб, термик ва кимёвий модификациялаш йўли билан уларнинг сифатини яхшилаш ва аниқ технологик вазифаларни бажарувчи ноёб хусусиятли материаллар яратишда муҳим аҳамият касб этади [1].

### **ТАЖРИБА ҚИСМИ**


Бентонитни фаоллаштириши учун муҳим омил сифатида NaOH концентрацияси бирдан 10% ( $X_1$ ) гача, фаоллаштириш вақти 0,5 дан 5 соатгacha ( $X_2$ ) Т:Ж доимий бўлиб у 1:2 га тенг. NaOH концентрацияси 3,2 га, фаоллаштириш вақти – 1,6 га тенг (1-жадвал).

#### **1-жадвал**

#### **Омилларнинг ўзгарувчанлик даражаси**

омиллар	Код белгилари	Пастрок даражаси $X_1=-1$	Юкори даражаси $X_1=+1$	Асосий даражаси $X_1=0$	Ўзгириш оралиқлари
Эритма концентрацияси NaOH %	$X_1$	2,3	8,7	5,5	3,2
Фаоллаштириш вақти, с	$X_2$	1,15	4,35	2,75	1,6

Кислота билан ишлишнинг оптималь шароитини аниқлаш учун экстеримал тажрибаларни режалаштириш усулини қўлладик.



### 1-расм. Бентонит ғоваклигининг баъзи тавсифлари

\*0-кислотани қайта ишлаш бажарилгунча бентонитнинг дастлабки намунаси:


1-8 намуналар 1-расмда келтирилган шартларда қайта ишланган: 9,10 ва 11 намуналар (такрорланувчан текширишлар учун) режа маркази ( $10 N HCl$ ,  $80^{\circ}C$ , 2с) шароитида қайта ишланган. Кислотани кичик концентрациялардагина, концентрациянинг ортиши билан вакт факторининг таъсири камаяди, ўзгартиришлар оралиғидан ташқарида жавоб берувчи сиртнинг экстраполяцияси, унчалик даражада юқори бўлса физик маънога эга бўлмайди, чунки олинган сирт чизиқли эмас ва эксперимумини топиш учун бошқа композицион режа қабул қилишга тўғри келди [2].

Тажрибада кўрсатилдики, цеолит сақловчи кремний бирикмаларида ҳам (бентонит) фаоллашиш жараёни шундай кечади. Фаоллашиш шароитини ўрганиш учун математик усул ва статистик ҳисоблашлар олиб борилиб тажриба натижалари қайта ишланди (солиширма сирт, зарранинг йифинди ҳажми, ҳақиқий зичлик, механик мустаҳкамлик) ва аниқланди. Тажрибаларни ўтказишнинг асосий мақсади математик модел яратишдан иборат эди. Айнан шу моделлар асосида фаоллашиш жараёни хоссалари ўрганилди. Тажриба ўтказиш энг аввал марказни, яъни барча жараёнлар бир хил таъсир қиласиган нуқтани топишдан иборат, чунки шу нуқта кейинги тажриба маркази бўлиб хизмат қиласиди. Марказ одатда табиий хусусиятларини инобатга олиб танланади [3].


## ТАЖРИБА НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ

Навбаҳордан олинган бентонитларнинг (III-бентонит) рентгенофазавий таҳлили шуни кўрсатадики, бентонитнинг минералогик таркиби кўп монтмориллонитларнинг таркибидан фарқ қиласи [4]. Шунинг учун тўлиқ факторли тажрибалардаги факторлилик қийматлар бироз ўзгарган эди. Ўзгариш кислотали қайта ишлаш шартларини енгиллаштириди яъни кислота концентрациясини ва қайта ишлаш ҳароратини камайтириди.

III бентонитлар учун ғовакликнинг асосий тавсифлари 3-расмда келтирилган. Текшириш учун экстремал тажриба ўтказиш нуқтасидаги қуйидаги фактлар билан  $C_{HCl}=10N$ ,  $T=90^{\circ}C$ ,  $t=10\text{c}$  ўтказилди. Қайта ишланган кислоталарнинг кимёвий таҳлилини кўрсатдик, азот кислотаси билан кислотали қайта ишлашда бентонитдан темир ва алюминий ионларининг ювилиб кетиши содир бўлди.




**3-расм. II ва III бентонитларнинг бир қатор ғоваклик тавсифлари.**



**4-расм. IV-бентонитнинг ғоваклик тавсифлари**

\*0-IV бентонитнинг дастлабки намунаси, 1-5 намуналар 4-расмда берилган шартларга кўра қайта ишланган. Бу ҳолатда азот кислотасидан фойдаланилди (3-намуна) ва фойдаланилган ош тузи кислотасидан қайта фойдаланилди (5-намуна), яна ош тузи кислотасида қайта ишланган ва кейин  $\text{Al}^{+3}$  ионлари билан ион алмаштирилган (4-намуна) намунани чуқур бегона аралашмалардан тозалаш ионалмашинувчи реакциялари эритмалар маҳсулотларини киритиш йўли билан амалда олинган говакликнинг шу тузулишлари тавсифлари олинди, худди 1 намунадагидек. Такидлаш керак, солиширма сиртнинг бор даражада пасайиши (2-намуна) кислота концентрациясини 4 дан 7N гача ортишида содир бўлади, 5-расм.



**5-расм. I ва IV бентонитларни кислота билан қайта ишлаш оптимал шартлари**

**Табиий бентонитни кислотали фаоллаштириш.** Курилма технологик йўналишни тақдим қилиб эмал билан қопланган ўта курашувчан мухитлар учун реакторда кузаткичлардан, кислотани сақлаш ва эритмасини тайёрлаш учун сигим, шўр қолдиқларни нейтраллаш ва ювиш қисми, цеолитларни фаоллаштириш 10% ли ош тузи кислотаси эритмасида 2 соат давомида массалар нисбати Т:Ж=1:2 нисбатда қайнаш режимида амалга оширилди. Цеолитни фаоллаштириш жараёни ионалмаштириш механизмида амалга оширилди  $\text{H}^+$  (протонларини) ионларини ўриналмаштирилди ва бир қисми ўриналмаштириш катионлари комплекси ( $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ ) томонидан амалга оширилди. Натижада цеолитли фаоллаштириш қисман водородли (Н-шаклда) ҳам амалга

оширилди. Бунда ош тузи кислотаси ( $HCl$ ) сорбентнинг масса бирлигидаги солиширма фаоллашиш йўқотиши алмашинувчи комплексдаги катионлар таркибининг камайиши билан аниқланади. Тажрибада берилганларга кўра ош тузи кислотасини қолдиқ эритмадаги концентрациясини фаоллаштириш тутатилгач 4,24% ни ташкил қилди, ош тузи кислотасининг солиширма йўқотилиши жараён давомида мос равишда 6,04г/100г цеолитга тенг. Фаоллаштирилгандан кейин сорбентни фаоллаштирувчи эритмани фильтрлаш (алохида) амалга оширилди, бунда фаоллаштиргич эритманинг бир қисми сорбент билан тўйинган бўлиб ювилиш соҳасига ўтди [5].

## ХУЛОСА

Навбаҳордан топилган бентонитли бентонитларнинг рентгенофазавий таҳлили шуни кўрсатадики, бентонитнинг минералогик таркиби қўп монтмориллонитларнинг таркибидан фарқ қиласи. Шунинг учун тўлиқ факторли тажриба натижаларида факторлилик қийматлар бироз ўзгарди.

Бу ўзгаришлар кислотали қайта ишлаш шартларини енгиллаштириди, яъни кислота концентрациясини ва қайта ишлаш ҳароратини камайтириди.

Бу сорбентлар кимёвий модификациялангандан сўнг муҳим амалий аҳамиятга эга бўлди, бентонит аччиқ нейтрал ишқорий муҳитда катион алмашинув қобилияти гидратлашган кремнийер элементи  $Si - OH$  гурӯхлар реакцион хусусиятига боғлиқ. Бундан ташқари, табиий бентонит турли аралашмалардан иборат эканлигини ҳам ҳисобга олмасликнинг иложи йўқ, чунки улар ҳам алмашинув жараёнларига таъсир кўрсатади. Тажрибада кўрсатилдики, цеолит сақловчи кремний бирикмаларида ҳам фаоллашиш жараёни шундай кечади. Фаоллашиш шароитини ўрганиш учун математик усул ва статистик ҳисоблашлар олиб борилиб тажриба натижалари қайта ишланди яъни солиширма сирт, зарранинг йигинди ҳажми, ҳақиқий зичлик, механик мустаҳкамликлари аниқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Khamroyev, J.X., Fayzullaev, N.I., Haydarov, G.Sh., Temirov, F.N., Jalilov, M.X. Texture characteristics of modified and activated bentonite //Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, 25(4), стр. 12160–12174
2. Khamroyev, J.Kh., Fayzullaev, N.I., Khaidarov, G.Sh., Temirov, F.N., Jalilov, M.Kh. Texture and sorption characteristics of bentonite-based sorbents//Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, 25(4), стр. 828–849
3. Temirov, F.N., Fayzullaev, N.I., Khaidarov, G.Sh., Khamroyev, J.Kh., Jalilov, M.Kh. Optimization of the process acid activation of bentonite//Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, 25(4), стр. 809–827
4. Temirov, F.N., Fayzullaev, N.I., Haydarov, G.Sh., Khamroyev, J.X., Djalilov, M.X. Texture and sorption characteristics of modified bentonite made by ash-gel and together equipment//Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, 25(4), стр. 12175–12185
5. F N Temirov, J Kh Khamroyev, N I Fayzullayev, G Sh Haydarov and M Kh Jalilov. Hydrothermal synthesis of zeolite HSZ-30 based on kaolin// IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 839 (2021) 042099 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/839/4/042099.

## MAKTAB DIREKTORLARINING PEDAGOG XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISHDAGI ROLI

**Yaratov Jamil Vasilovich**

O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi  
Respublika kengashi raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi.

Email: [yaratovjamil@gmail.com](mailto:yaratovjamil@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagoglarini maqsadli rag‘batlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, pedagoglarning rag‘batlantirish usullari, maktab direktori tomonidan pedagoglarning o‘z motivlaridan kelib chiqadigan motivatsion harakatlarni ishlab chiqish va samarali amalda qo‘llash orqali sifatli ta’limga erishish ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim sifati, ta’lim standartlari, maqsadga erishilganlik, maktab direktori, pedagoglar, rag‘batlantirish, motivatsiya, ehtiyojlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы повышения качества образования путем целенаправленного поощрения педагогов школ общеобразования. Также было высказано мнение, что педагоги добиваются качественного образования с помощью методов стимулирования, разработки и эффективного осуществления директором школы мотивационных действий, основанных на собственных мотивах педагогов.

**Ключевые слова:** качество образования, образовательные стандарты, достижение цели, директор школы, педагоги, мотивация, побуждение к действию, потребности.

**Abstract:** This article covers issues of improving the quality of education by purposefully encouraging educators of general secondary education schools. It has also been expressed that educators achieve quality education through incentive methods, the development and effective implementation by the school director of motivational actions derived from educators ‘own motives.

**Keywords:** quality of education, educational standards, goal achievement, school director, educators, motivation, motivation, needs.

**Kirish.** Turli mamlakatlarda ta’lim tizimining modellari xilma-xil bo‘lib, bu farqlar tarixiy va madaniy tabiatning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish turi, ma’lum bir davlat fuqarolarining mentaliteti va an’analari bilan bog‘liq. Bundan kelib chiqqan holda, mehnatga motivatsiya shartlari va omillari ham turli davlatlarda ma’lum farqlarga ega.

Turli mamlakatlarda pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalari o‘xshashligiga qaramasdan, ta’lim standartlariga zamonaviy yondashuv turli mamlakatlarda farq qiladi. Bundan tashqari, ma’lum bir mamlakatning xususiyatlariga qarab, ta’lim jarayonining rivojlanish tarixi, pedagogik faoliyatni qurish tizimi va motivatsiya tizimi o‘zgaradi.

O‘qituvchi motivatsiyasini o‘rganish zarurati, bu o‘qituvchining shaxsiyatini boshqarish, uning ehtiyojlari va o‘zini rivojlantirish istaklariga ta’sir qilish usullaridan biri ekanligi bilan ham belgilanadi. So‘nggi paytlarda ta’lim sohasida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bu o‘qituvchilarga o‘z ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘zlarini innovatsion faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida namoyon etish imkonini beradi. Shu bilan birga, maktab direktorining asosiy vazifasi o‘qituvchilarni pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish va shaxsiy maqsadlarga ham, ta’lim muassasasining maqsadlariga ham erishish uchun motivlash va rag‘batlantirish tizimidan foydalanishdir.

Jamoani rag‘batlantirish usullarini tanlash ta’lim muassasasining har bir rahbari uchun dolzarbdir. Zamonaviy maktab direktorining vazifasi moslashuvchan kadrlar siyosatini ishlab chiqish va o‘qituvchilarni rag‘batlantirish uchun etarli miqdordagi mavjud variantlarni tuzishdir. Menejer, shuningdek, turli xil rag‘batlantiruvchi omillar odamlarga ta’sir qilishini hisobga olishi kerak. Muvaffaqiyat kaliti o‘qituvchilarga haqiqatan ham xohlagan va intilayotgan narsalarini berishdir. Ushbu jihatlarning barchasini tahlil qilish va tegishli motivatsiya tizimini ishlab chiqish uchun menejerga odamlarning ijtimoiy-psixologik turlarini bilish yordam beradi, masalan, ijodkorlar, an’analarni saqlovchilar, yosh mutaxassislar. Ushbu tipologiyani hisobga olgan holda,

rahbar o‘z amaliyotida ma’lum bir o‘qituvchini rag‘batlantirishning muayyan usullaridan foydalanishi mumkin.

Maktab o‘qituvchisi hozirda yuqori maoshli va obro‘li kasblarga tegishli emas, lekin u hali ham o‘qituvchidan hissiy sadoqat va doimiy o‘zini o‘zi rivojlantirishni talab qiladigan ijodiy ish bo‘lib qolmoqda. Shu munosabat bilan zamonaviy maktab o‘qituvchilarini rag‘batlantirishning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

mehnat uchun moddiy kompensatsiya: ish haqi, kompensatsiya va rag‘batlantirish to‘lovleri;

pul mukofoti, kasbiy mahorat tanlovlarida g‘olib bo‘lish uchun grantlar, uslubiy materiallar va mualliflik dasturlarini ishlab chiqish uchun bir martalik to‘lovlar va mukofotlar va hokazo.;

muayyan o‘qituvchining jamoatchilik tomonidan tan olinishi, ommaviy axborot vositalaridagi nashrlar, diplomlar, faxriy nishonlar, ta’tilga sayohatlar, minnatdorchilik xatlari, qimmatbaho sovg‘alar;

o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini jamoatchilik tomonidan tan olish,

rahbariyatning shaxsiy tan olinishi: tug‘ilgan kun tabriklari, og‘zaki minnatdorchilik ifodasi.

Ta’lim tashkilotidagi ish haqi tizimi pedagogik ish sifatini hisobga olishning asosiy vositasi bo‘lib, u o‘qituvchining ish haqi miqdorida aks etadi. Bu turli xil o‘qituvchilar guruhlarining ish haqini tartibga solish va tabaqalashtirish, ish sharoitlariga, murakkabligiga qarab va pedagogik ish va uni to‘lashning yagona o‘lchovini belgilash zarurligini ta’minalash uchun amalga oshiriladigan standartlar to‘plamidir.

O‘qituvchi daromadi ikki qismdan, o‘zgaruvchan va doimiy strukturaga ega. Ba’zan bu qismlarga kuchli rag‘batlantiruvchi maqomi beriladi. Biroq, ish haqini oshirishning ijobiy ta’siri uzoq muddatli bo‘lmaydi va motivatsiya zaiflasha boradi hamda o‘qituvchi o‘ziga tanish bo‘lgan bir xil bo‘shashgan rejimda ishlay boshlaydi.

Shunga qaramay, xodimning rasmiy maoshi haqiqatan ham xodimning malakasini aks ettirishi kerak, bu esa o‘z navbatida kasbiy o‘sishga yordam beradi. Ish

haqining asosiy qismini motivatsiya usuliga aylantirish nafaqat potensialga, balki haqiqiy ish natijalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, shuni ta'kidlash kerakki, asosiy ish haqiga qo'shimchalar tizimi kasbiy faoliyat tizimi bilan qamrab olinmagan ishlarning bir qator sifat xususiyatlarini hisobga olish va rag'batlantirish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda maktab direktorlari moddiy va nomoddiy rag'batlantirishni optimal tarzda birlashtirishni o'rganishlari kerak, bu ularning maqsadlariga tez va maqbul erishishga olib kelishi mumkin.

O'qituvchilar tarkibining motivatsiyasini oshirish ta'lim muassasasini boshqarishning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu munosabat bilan o'qituvchilar uchun motivatsiya tizimini joriy etish katta moliyaviy va vaqt xarajatlarini talab qiladigan uzoq va murakkab loyihadir. Ta'lim tashkilotining maqsadlariga erishishni qo'llab-quvvatlovchi motivatsiya tizimining integratsiyasi natijasi sifat ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi, o'qitishning yangi darajasiga ko'tarilishi, shuningdek o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatiga bo'lgan munosabatining sifat jihatidan o'zgarishi hisoblanadi.

Jamoani yaratishda ta'lim tashkilotlari rahbarlari muhim rol o'ynaydi, ular jamoani boshqarishning yangi qoidalarini yaratadilar. Salohiyatlpedagoglar jamoasi yig'ilib, ishslash uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lsa ham, ertami-kechmi o'qituvchilar o'z vazifalariga qiziqishni yo'qotib, mehnat sifatini tushirib yuborish yoki ishdan bo'shaydigan vaqt keladi. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ular kasbiy charchashgan bo'lishadi, yuqori maoshli boshqa ish topadilar, tanlagan kasbidan hafsalasi pir bo'ladi va hokazo. Ustuvor maqsad ta'lim tashkilotida ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan shart-sharoitlar va o'qituvchilarni rag'batlantirish tizimini yaratish bilan belgilanadi.

Direktorning vazifasi o'z jamoasini diqqat bilan kuzatish va rag'batlantirish, u yoki bu o'qituvchini qanday ehtiyojlar boshqarayotganini aniq bilishdir. Jamoani boshqarish va mehnatni rag'batlantirish tizimini birlashtirish nuqtai nazaridan o'qituvchi o'zini namoyon qilish zarurligiga ega bo'lishi uchun fiziologik, ijtimoiy va xavfsizlik ehtiyojlarini qondirishning zarur darajasiga erishish muhimdir. Jamoadagi

munosabatlarning izchilligi vazifalaridan biri o‘qituvchining motivatsiyasi hisoblanadi. Motivatsiya - bu har bir jamoa a’zosining hatti-harakatlarini faollashtiradigan, qo‘llab-quvvatlaydigan va boshqaradigan narsa.

O‘qituvchilarning motivatsiyasi tashkilotdagi muvaffaqiyatli faoliyatning eng muhim elementidir. Menejer o‘z jamoasi uchun samaraliroq motivatsiya tizimini tanlaydi va shu bilan uning samaradorligini oshiradi, ya’ni bu mehnat natijalariga ta’sir qiladi, tashkilot imidjini mustahkamlaydi. Ko‘pgina hollarda menejerlar o‘qituvchini pul bilan rag‘batlantirish kifoya qiladi va u to‘liq fidoyilik bilan ishlaydi, deb hisoblashadi. Menejer shuni tushunishi kerakki, yaxshi ish “ular ko‘p pul to‘laydigan joyda” emas, balki zavq keltiradigan ishdir. Nomoddiy motivatsiya - martaba o‘sishi, kasbiy maqomni tan olish, jamoadagi raqobat, jamoa va rahbariyat tomonidan ma’qullah kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan murakkab mexanizm.

O‘qituvchilarning samarali mehnat motivatsiyasini shakllantirish uchun ishning ma’nosи nafaqat o‘qituvchining shaxsiy moddiy ehtiyojlarini qondirish, balki ushbu ehtiyojlardan tashqariga chiqishdir. Ta’lim muassasasi rahbari o‘qituvchilarning pedagogik faoliyat mazmuniga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga va muammolarni hal qilishda ishtirok etishga bo‘lgan qiziqishini saqlab turishi kerak. Bu, ayniqsa, yosh o‘qituvchilarga nisbatan to‘g‘ri keladi, ular katta yoshli hamkasblaridan bir necha baravar tezroq, agar ular ehtiyojlar to‘g‘ri qondirilmayapti deb hisoblasalar, ta’lim tashkiloti va mutaxassisligini o‘zgartirishga tayyor. Yuqori motivatsiyali xodimlar ko‘proq ishlaydi va qoida tariqasida yuqori natijalarga erishadi.

O‘qituvchilar faoliyati to‘g‘ri baholanishi uchun ular o‘zlarini jamoaning bir qismi, rahbarlar bilan teng deb hisoblashlari kerak. Rahbar tomonidan eng muhimi, har bir o‘qituvchini tashkilot hayotiga faol jalb qilish, istisnosiz barchani maqtash, va rag‘batlantirishdir. Shuning uchun u har bir o‘qituvchisining motivlarini aniq tan olishi va har bir xodimning ehtiyojlarini iloji boricha qondirishga harakat qilishi kerak. Ammo o‘qituvchilarning o‘zi emas, balki jamoadagi munosabatlar boshqarilishi kerak.

O‘qituvchilarni nomoddiy rag‘batlantirishning asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

uslubiy yordam ko'rsatish, agar boshqa o'qituvchi ochiq dars yoki olimpiada uchun materiallar bilan yordam bersa, hatto tajribali o'qituvchiga ham ishlash osonroq va qulayroq bo'ladi;

sertifikat olish, mualliflik dasturi yoki monografiyasini chop etishda yordam berish;

o'qituvchilarga ish jadvalini mustaqil ravishda belgilash, haftada ish kunlari sonini, uslubiy kunni, boshlanish vaqtini (birinchi yoki ikkinchi smena), kuniga ish yukining miqdorini, ish kunida bo'sh soatlarning yo'qligi yoki mavjudligini va boshqalarni aniqlashga imkon berish. Tajribali rahbar (rejalashtiruvchi) hech bo'limganda xodimlarning bu boradagi istaklarini qisman qondirishi mumkin;

ishdan bo'shatilgandan so'ng hamkorlik uchun minnatdorchilik bildirish, shuningdek, keyingi munosabatlarni saqlashga, bayramlarga taklif qilishga, pedagogik tajriba almashishga jalb qilish mumkin;

o'qituvchilarga yuqori sifatlari bajarilgan ishlarning ma'naviy qoniqishi sezilarli darajada ta'sir qiladi, shuning uchun maktab direktori ulami qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchilarga qaror qabul qilishda ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak;

o'qituvchilarni nomoddiy rag'batlantirish va motivatsiya vositasi sifatida turli xil korporativ bayramlar tashkil qilishi mumkin, ularning asosiy maqsadi nafaqat o'yin-kulgi, balki ta'lim muassasasining ma'lum qadriyatlarini uzatish, ya'ni jamoani shakllantirish, ta'lim muassasasining imidjini yaratish, natijalarni sarhisob qilish, yosh o'qituvchilarning o'z ishiga moslashishiga yordam beradi.

Motivatsiyaning psixologik-pedagogik asoslari o'qituvchi shaxsining ongi motivatsion ehtiyojlarning tashqi va ichki rag'batlarga juda bog'liqligini ko'rsatadi. O'qituvchi ongingin motivatsion komponentini maqsadli rag'batlantirish kasbiy faoliyat uchun motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Yaxshi menejer nafaqat o'z tajribasi, sezgisidan foydalanishi, balki boshqa iste'dodli va tajribali insonlarning yutuqlarini ham hisobga olishi kerak. Xodimlarni rag'batlantirish tizimining amaliy qo'llanilishi nafaqat ta'lim muassasasi samaradorligini oshirishga, balki

o‘qituvchilarning o‘z mehnatidan qoniqish darajasini oshirishga, psixologik iqlimni, umumiy kayfiyatni yaxshilashga va ish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Motivatsiya muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, bugungi kunda o‘qituvchilar tarkibini rag‘batlantirishning ko‘plab nazariyalari mavjudligini ta’kidlash mumkin. Shuni esda tutish kerakki, ta’lim muassasalari sharoitida o‘quv jarayoni sub’ektlarining motivatsiyasi insonning individual pozitsiyasi bilan belgilanadi. Ta’lim jarayoni sub’ektlari o‘rtasida motivatsiyaning etishmasligi yoki motivatsion inqiroz uning sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Odamlarni samarali ishlashga va ko‘p mehnat qilishga majbur qiladigan haqiqiy sabablar murakkab va xilma-xildir. Mehnatni rag‘batlantirish va motivatsiya tizimi milliy madaniyat, texnologiyalar, tashkilotning rivojlanish bosqichi va boshqa bir qator omillarga bog‘liq. Shuning uchun biz mehnat faoliyatini rag‘batlantirish va motivatsiyaning turli xil tushunchalari haqida gapirishimiz mumkin.

Motivatsiya tizimini shakllantirishda rag‘batlantirishni quyidagicha hisoblash muhimdir:

- tashkilot maqsadlari va uning strategiyasiga asoslangan bo‘lishi;
- xodimlardan kutilgan hatti-harakatlarni yaratishi;
- tushunarli, ob’ektiv va shaffof bo‘lishi;
- erishish mumkin bo‘lgan, lekin samarali mehnat evaziga erishiladigan bo‘lishi.

Agar barcha mezonlar bir vaqtning o‘zida bajarilsa, o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga undash tizimi ishlaydi va kutilgan natijani beradi.

O‘qituvchilarni moddiy va nomoddiy rag‘batlantirishning turli xil variantlari va usullarining maqbul kombinatsiyasi pedagogik faoliyat samaradorligini maksimal darajada oshirishga yordam beradi.

AQShning bir nechta shtati va shaharlarida, shuningdek, Singapur va Janubiy Koreyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, agar o‘rtacha qobiliyatga ega yetti-sakkiz yoshli ikki o‘quvchiga bir-biridan juda farq qiladigan (yuqori va past saviyali) o‘qituvchilar biriktirilsa, uch yildan keyin ularning bilimi darjasini bir-

birinikidan 50 foizdan ziyodroqqa farq qilarkan. Demak, yuqori malakali o‘qituvchilar dars bergen sinflarda o‘quvchilar uch barobar tezroq rivojlanar ekan<sup>1</sup>.

Bugungi kunda ta’lim muassasasi rahbari juda tez va noaniqlik sharoitida hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Ular orasida ta’lim muassasasining strategik maqsadlariga erishish, iqtidorli o‘qituvchilarni jalb qilish va butun jamoa faoliyatini va umuman pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish kabi masalalar eng dolzarbdir. Ushbu muammolarni hal qilishning asosiy usullaridan biri samarali motivatsiya tizimini ishlab chiqishdir. O‘qituvchini rag‘batlantirish tizimi (boshqaruv nuqtai nazaridan) - o‘qituvchining yo‘naltirilgan harakatlariga motivatsiyasini shakllantirish usuli. O‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimi (shaxsiy ma’noda) - bu o‘qituvchining faolligini keltirib chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilaydigan motivlar to‘plamidir.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мехнат иқтисодиёти ва социологияси. К.Абдураҳмонов, Н.Зокирова. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013 й.
2. Социално-трудовые отношения: международный и национальный аспекты. Н.К.Зокирова. Тошкент. 2008.
3. A Theory of Human Motivation. Maslow A.H. Psychological review. 1943.
4. “Янги Ўзбекистон” газетаси. 187 (709), 2022 йил 13 сентябрь.

<sup>1</sup> "Янги Ўзбекистон" газетаси. 187 (709), 2022 йил 13 сентябрь. Абдулла Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти ректори, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент А. Раджиевнинг "Таълим сифатини ошириш стратегиясида кадрлар сиёсати" номли мақоласи. 5-бет.

## СОЗДАНИЕ БАЗЫ МЕДИЦИНСКОЙ ИНФОРМАЦИИ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

**Ураков Шокир Улашович**

Узбекистан, Самаркандский Государственный медицинский университет

[shokiruraqov74@mail.ru](mailto:shokiruraqov74@mail.ru)

**Резюме.** Электронная система управления в сфере здравоохранения позволит повысить качество медицинской помощи, существенно уменьшить расходы на медицину, облегчит оформление документации в медицинских учреждениях, позволит контролировать процесс лечения больных и многое другое.

**Ключевые слова:** база данных, структура, объектно-ориентированное, реляционная, доступ, конфиденциальность, система управления базой данных.

В настоящее время в Республике Узбекистан происходит интенсивный переход на электронную систему управления, что в свою очередь требует от различных организаций также перехода на электронную систему управления. Одной из важнейших сторон нашей жизни является здоровье. Переход на электронную систему управления в сфере здравоохранения позволит повысить качество медицинской помощи, существенно уменьшить расходы на медицину, облегчит оформление документации в медицинских учреждениях, позволит контролировать процесс лечения больных и многое другое. Какие проблемы необходимо решить для перехода на электронную систему управления в медицине?

Наверное, нужно в первую очередь подготовить соответствующие кадры для создания и работы с медицинскими электронными системами. Во вторых,

необходимо решить проблему управление медицинскими данными, имеющими нечеткую, «размытую» структуру. В третьих, решить проблему интеграции медицинских данных из различных источников.

Одной из основных составляющих медицинской информационной системы (МИС) является медицинская база данных [1]. При проектировании базы данных необходимо выбрать модель (семантическая, концептуальная, объектно-ориентированная, реляционная и т.д.), которая наиболее подходит для данного медицинского учреждения. К ним имеются следующие требования:

1. адекватное отображение предметной области
2. возможность взаимодействия пользователей разных категорий
3. обеспечение быстрого доступа к информации
4. обеспечение секретности и конфиденциальности
5. возможности восстановления данных при их разрушении
6. дружественность интерфейса
7. обеспечение надежности базы данных

В данной работе мы предлагаем структуру медицинской базы данных. Для организации, хранения и обработки медицинских данных требуется решить, как указывалось выше две проблемы:

1. Проблему управление медицинскими данными, имеющими нечеткую, «размытую» структуру;
2. проблему интеграции медицинских данных из различных источников.

При создании медицинской базы данных приходится учитывать их особенности связанные с разнообразием медицинских видов и форм информации [2]:


1. В различных медицинских учреждениях одна и та же информация может моделироваться с помощью разных структур и типов данных. Это связано с профилем медицинского учреждения, для одних важна одна информация и они выводят её на первый план, для других другой тип информации. Попытка объединить разнородную информацию приведет к большим

техническим проблемам. Если не структурировать такую информацию, то интегрированные данные будут иметь неправильную структуру.

2. Значительное количество медицинских данных, хотя и имеет некоторую структуру, но эта структура неявная. Кроме того, медицинские данные иногда имеют неизвестную структуру, примером чего могут служить мультимедийные данные или документы со структурированным текстом.
3. В ряде случаев большая часть медицинских данных, работу с которыми необходимо автоматизировать, имеют четкую структуру. Для хранения этой части данных используют традиционные системы управления базами данных и разрабатывают методы связи структурированных данных с оставшимися данными, которые не удалось структурировать и которые приходится хранить не в базе данных, а в других системах, например, в файловой системе.
4. Структура медицинских данных часто меняется. Примером могут служить медицинские отчеты, в которых каждый год одни показатели добавляются, а другие исчезают.
5. Необходимо использовать гибкую структуру при формировании медицинской базы данных.

Учитывая выше указанные требования нам представляются медицинская база данных в виде объекта для определенных данных, а для формализованных данных в виде реляционной базы. Это сильно упростит переход на электронную систему хранения медицинской информации. Сама структура должна быть представлена в виде иерархической модели в основе которой находится пациент. В классической постановке объектно-ориентированной модели основными элементами являются объект, индикатор объекта; атрибуты и методы; классы; иерархия и наследование классов [3].

Упрощенная блок схема выглядит следующим образом:



Архитектура должна иметь стандартную структуру с центральным сервером и сетью основанной, например одной из новейших технологий цифровой беспроводной связи и передачи данных CDMA [4]. На сегодняшний день CDMA является наиболее перспективной технологией для перехода к третьему поколению связи. Она предоставляет фиксированную связь, со всеми преимуществами мобильной и одновременно с этим исключает возможность несанкционированного подключения к линии.

Одним из важных вопросов в медицинской СУБД является конфиденциальность информации. В зависимости от категории доступа информация подразделяется на общедоступную информацию (общизвестные

сведения и иная информация, доступ к которой ограничен), а также на информацию, доступ к которой ограничен законами (информация ограниченного доступа). Иногда требования конфиденциальности входят в конфликт с врачебной деятельностью. Поэтому в настоящее время ряд медицинских учреждений обратились к совету ВОЗ с требованием изучить этот вопрос и внести необходимые изменения в существующие требования по конфиденциальности информации.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Сафаров Т.С., Ураков Ш.У. Системный подход компьютерной поддержки врачебной деятельности в клинических условиях. // Журнал «Техника и технология», М.: Компания спутник +, 2009, №3, с. 43-45.
2. Сафаров Т.С., Ураков Ш.У. Об одном методе расширения универсальности диагностических систем.// Ташкент, журнал «Проблемы информатики и энергетики», 2014, №5, с.88-94.
3. T.S.Safarov , Sh.U. Urakov, G.T.Safarova, R.A.Sobirov Methods and Models of a Multifunctional System Support for Decision Making for Differential Diagnosis of Diseases// International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering (IJATCSE) ISSN: 2278–3091  
[\[https://t.me/goldenbrain\\\_journal\]\(https://t.me/goldenbrain\_journal\)](http://www.warse.org/IJATCSE/current/currentDetiles/?heading=Volume%209%20No.3%20(2020) C.3350-3353. Июн 2020 й. Индия.</a></li><li>4. ТС Сафаров, ШУ Ураков, РА Собиров <u>Автоматизированная система управления движением информационного потока в условиях единой информационной среды клиники</u>// Международная научно-техническая конференция «Перспективные информационные технологии». Сборник научных трудов, апрель, 2018, Самара.</li><li>5. Ш.У. Ураков Х.Н. Зайнидинов , И. Юсупов Применение вейвлетов Хаара в задачах цифровой обработки двумерных сигналов// Международный научный журнал «Автоматика и программная инженерия» (№2 (28), июнь) 2019 с.79-84</li></ol></div><div data-bbox=)

## **QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI SOHASIDA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARDA DASTURLI-MANTIQIY BOSHQARUV QURILMALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

i.f.n., dotsent. **Kuvnakov Xaydar Kasimovich**,  
katta o‘qituvchi., **Azimov Rustam Batirovich**,

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU

**Annotatsiya:** *Hozirgi kunda qishloq va suv xo‘jaligi soxalarida xususan, issiqxonalarda va nasos stansiyalarida texnologik parametrlar: bosim, harorat, sarf, kuch, elektrik, induksion, aylanish chastotasi, burilish burchak tezligi, sath, namlik hamda xarakat sensorlaridan kelayotgan ma’lumotlar (signallar) asosida dasturli-mantiqiy qurilmalar yordamida avtomatik nazarat va avtomatik himoyash, avtomatik rostlash va boshqarish eng samarali uslublardan biri hisoblanmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *Boshqaruv tizimi, operatsioan tizim, boshqaruv paneli, dasturli mantiqiy boshqaruv qurilmasi, kirish modullari, chiqish modullari, texnologik parametrlar.*

**Аннотация:** В настоящее время в областях сельского и водного хозяйства, в частности, в теплицах и насосных станциях, технологические параметры: давление, температура, расход, мощность, электроэнергия, индукция, частота вращения, угол поворота, скорость, уровень, влажность и поступающая информация от датчиков движения (автоматическое управление и автоматическая защита, автоматическая настройка и управление с помощью программно-логических устройств на основе сигналов) считается одним из наиболее эффективных методов.

**Ключевые слова:** система управления, операционная система, пульт управления, програмно-логическое устройство управления, модули ввода, модули вывода, технологические параметры.

**Abstract:** Currently, in the fields of agriculture and water management, in particular, in greenhouses and pumping stations, technological parameters: pressure, temperature, consumption, power, electricity, induction, rotation frequency, rotation angle speed, level, humidity and information coming from motion sensors (automatic control and automatic protection, automatic adjustment and control with the help of software-logic devices based on signals) is considered one of the most effective methods.

**Key words:** Control system, operating system, control panel, software logic control device, input modules, output modules, technological parameters.

Dasturli-mantiqiy boshqaruv va kompyuterga qo'shimcha ravishda boshqaruv panellari, dvigatellar, sensorlar, vklyuchatellar, klapan va boshqalar qo'llanilmoqda va bular boshqaruv tizimi jarayonidagi aniqlik darajasini yaratishda va oshirishda xizmat qilmoqda. Boshqaruv tizimi jarayonidagi har bir komponent o'lchamidan qat'iy nazar muhim rol o'ynaydi. Boshqaruv tizimi jarayoni ishlab chiqarish jarayonida samaradorlikni, aniqlikni oshiruvchi va xavfli jarayonlarni oldini oluvchi qurilmalar hamda elektr jihozlar to'plamidan iboratdir. Operatsion tizim turli xilda va shaklda bo'lishi mumkin. Texnologiyani tez rivojlanishining natijasi sifatida shuni ko'rish mumkinki, ko'plab kompleks operativ masalalar dasturli-mantiqiy boshqaruv tizimini markaziy uning qo'shimcha qurilmalari bilan birga kompyuterga ulash bilan amalga oshirilyapti.

**Masalan,** dasturli-mantiqiy boshqaruv sensorisiz jarayonni qanday ketayotganligini bilish imkoniyati mavjud emas. Avtomatlashtirilgan tizimlardagi boshqaruv tizimi jarayonida dasturli-mantiqiy boshqaruv muhim qism hisoblanadi. Ijrochi dastur xotirada joylashishi bilan dasturli-mantiqiy boshqaruv kirish qurilmalaridan kelayotgan signallar orqali tizim holatini tasvirlab turadi. Mantiqiy ijrolarga asoslangan holda, dasturli-mantiqiy boshqaruv chiqish qurilmalari bilan qanday harakat bajarilish kerakligini aniqlaydi. Yana ham ko'proq kompleks jarayonlarni ishga tushirishda bir qancha dasturli-mantiqiy boshqaruv kontrollerlarini

markaziy kompyuterga ulash ham mumkin. Tarixdan ma'lumki, ayniqsa 60 va 70-yillarda avtomat mashinalar boshqaruvida relelardan foydalanilgan. Ba'zi holatlarda boshqaruv paneli devorlar bilan qoplangan bo'lgan.

Tizimda xatoni aniqlash uchun, ayniqsa kompleks boshqaruv tizimi jarayonlarida, ko'p vaqt talab qilingan. Rele kontaktlarining ham ishslash muddati chegaralangan va shu sababli ba'zi relelarni almashtirish kerak bo'lgan. Agar rele almashtirilsa, mashina ham, ishlab chiqarish ham to'xtashiga to'g'ri kelgan. Bundan tashqari ba'zi o'zgarishlar uchun joy ham bo'lмаган. Boshqaruv paneli faqat bir xil turdag'i jarayon uchun foydalanilgan va yangi tizim talablariga moslanishi qiyin bo'lgan. Vaqt o'tgan sari elektronika mutaxassislari ham xatolarni topishlari uchun juda tajribali bo'lishlari kerak edi. Qisqacha qilib aytganda, shartli boshqaruv panellari juda noaniq va samarasiz deb hisoblangan.

***Klassik boshqaruv panellarining aytib o'tilgan ba'zi kamchiliklari quyidagilardir:***

- *Simlarni ulashda ko'p vaqt talab qilinishi;*
- *O'zgarishlar va almashtirishlar qilishdagi qiyinchiliklar;*
- *Xatolarni topishdagi qiyinchiliklar, tajribali ish kuchiga bo'lgan talab;*
- *Muammo paydo bo'lganda sozlashga vaqtning ko'p ketishi.*

Ushbu kamchiliklar dasturli-maniqiy boshqaruv qurilmalarning kashf qilinishiga hamda u orqali ishlab chiqarish sanoati, qishloq va suv xo'jligi avtomatika tizimlaridagi o'sish va sifatni yaxshilash kerakligiga sabab bo'ldi. Dasturli boshqaruv tizimlari kashf etilganidan so'ng, boshqaruv tizimi jarayoni ko'rinishlarida ko'p o'zgarishlar bo'ldi. Ko'plab yutuqlarga erishildi.

***Dasturlimantiqiy boshqaruv kontrollerlarining bir qancha yutuqlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:***

1. *Shartli boshqaruv tizimi jarayoniga nisbatan ulash uchun simlar soni 80 % ga kamaydi;*
2. *Sarf sezilarli darajada kamaydi, chunki dasturlimantiqiy boshqaruv relelarga nisbatan ancha kam sarf talab etadi;*

3. *Dasturli-mantiqiy boshqaruv kontrollerlarining diagnostik funksiyalari xatoni tez va oson topish imkonini beradi;*

4. *Dasturli-mantiqiy boshqaruv kontrollerlari dasturini yoki ketma-ketlik boshqaruvini boshqa jarayon boshqaruviga o'tkazish, kompyuter dasturidan foydalanish yoki dasturni konsol orqali joylashtirish bilan amalga oshiradi.*

5. *Zahira qismlarning ham ishlatilishi;*

6. *Shartli tizimga nisbatan ancha arzonligi, ayniqsa, kirish-chiqish qurilmalar ning ko'p ishlatilishida va operativ vazifalar ko'p bo'lganda;*

7. *Elektro-mexanik relelar hamda taymerlarga nisbatan dasturli-mantiqiy boshqaruv ishonchhliligi va sifatni yuqori darajada bo'lishi;*

Dasturli mantiqiy boshqaruv qurilmasi (PLC-Programmable Logic Controller) avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarida zarur bo'lgan ketma-ket keluvchi elektr zanjirlarining o'rmini almashtirish uchun kashf etilgan qurilmadir.

PLC kirish va chiqish signallariga va ularning holatiga, ya'ni ularning o'chgan/yonganligiga mos ravishda ishlaydi. Foydalanuvchi istagan natijalariga erishishi uchun, maxsus dastur yordamida dasturtuzadi va uni kompyuterga kiritadi. Dasturli mantiqiy boshqaruv qurilma (PLC) lar hozirgi kunda ko'plab ishlab chiqarish jarayonlarida va qishloq va suv xo'jaligi avtomatlashtirish tizimlarida foydalanilmoqda. Deyarli barcha jarayon ma'lum bir darajada elektr boshqaruviga ehtiyoj sezadi.

Misol uchun bizga vkyuchatelni yoqqanimizda, klapan (solenoid) ochilishi va vklyuchatelni qancha vaqt yoniq turishidan qat'iy nazar 5 sekunddan so'ng yopilishi kerak. Albatta biz bu muammoni oddiygina tashqi taymer bilan hal etishimiz mumkin. Ammo jarayonda o'nlab vklyuchatel va klapanlar ishtirok etsachi? Biz o'nlab tashqi taymerlarga ehtiyoj sezamiz. Agarda jarayonning davomiyligi uchun vklyuchatellarning necha marta yonib o'chganligi zarur bo'lsachi? Bizga juda ko'p hisoblagichlar (eng.-“counters”) kerak bo'ladi. Ko'rib turganingizdek agardajarayon kattaroq bo'lsa, uni elektron boshqarish imkoniyati chegaralanib oladi. Bu holda biz dasturli mantiqiy boshqaruvdan foydalanamiz. Biz oddiygina kerakli vaqtida

klapanlarning ochilishini va ularning sonini hamda kirish signallarini hisoblab turuvchi va nazorat qiluvchi dasturlimantiqiy boshqaruv dasturini tuzamiz. Bu holat shuni anglatadiki, biz PLC yordamida hajm jihtdan katta, murakkab va mukammal tarzda dastur tuzishimiz hamda uni amaliyotga tadbiq etish imkoniga egamiz.

Deyarli barcha dasturli-mantiqiy qurilmalar (PLC) dasturlari tizimning kirish va chiqish liniyalari uchun tuziladi. Dasturchi kirish va chiqish qurilmalari uchun dasturga ixtiyoriy nom berishi, tizimdagi xatolarni topishda foydali bo‘la oladigan izohlarni yozib qo‘yishi mumkin. Izoh va belgilarni qo‘yishi har qanday texnikni zinapoya diagrammasi (ladder diagram)ni shundayniga o‘qiy olishga yordam beradi. Eski tizimda dasturni kim tuzgan bo‘lsa uning maxsus himoyasi bo‘lgan, ushbu dasturidan boshqa hech kim bu dasturni qanday tuzilganini tushunmagan. To‘g‘ri blok diagramma har qanday texnikni tizim qanday ishlayotganini tushunishga yordam beradi. Kirish modullari raqamli yokianalogli qurilmalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Raqamali qurilmalar (bularga vklyuchatellar, sensorlar, tugmalar misol bo‘la oladi) signal “bor” yoki “yo‘q” ma’nodagi habarni MHQ ga yetkazadi.

**Xulosa qilib aytganda,** Analog turdagи qurilmalar esa, kuchlanish ishlab chiqaradi va MHQ o‘qiy oladigan, raqamli ekvivalentga teng bo‘lgan signalni ishlab chiqaradi. Analog turdagи qurilmalarga, harorat termojuftliklari, bosim datchiklari, sarf datchiklari misol bo‘la oladi. Chiqish modullari ham kirish modullari singari raqamli va analog turdagи qurilmalarni o‘z ichiga oladi. Chiqish modullari chiqish qurilmalarini (lampalar, kichik motorlar, rele va hokazolar) o‘chirib yoqadi. Analog turdagи chiqish modullari MHQ dan yuborilgan raqamli signallarni o‘zining haqiqiy kuchlanishiga aylantirib beradi. Odatda, analogli signallar 0-10 V yoki 4-20 mA oralig‘ida bo‘ladi va bosim nazoratchilari, holat kontrollerlari, konveyer motorlarini ishga tushirish va boshqarishda foydalilanildi.

**ADABIYOTLAR:**

1. H.Rahimov, Y. Raynberg, B. Toshboyev, “Avtomatlashtirilgan tizimlarda dasturli-mantiqiy boshqaruv” o‘quv qo‘llanma Toshkent 2009-yil.
2. “Avtomatlashtirilgan tizimlarda dasturli mantiqiy boshqaruv fanidan amali mashg‘ulotlar” H.Rahimov, Z.To‘xtaboyev, B.Toshboyev, Toshkent 2006-yil.
3. “Programmable Logic Controllers” William Bolton, New York 1998.
4. “Gathering of electric energy with welding panels” Mirzayev S.Z Habibullayev M.A. Igamberdiyev B.T. Innavatons in tehnology and science education.
5. “Effective ways to achieve energy efficiency in solar panels” Mirzayev S.Z Habibullayev M.A. Igamberdiyev B.T. Innavatons in tehnology and science education.
6. “O‘zbekistonning muqobil energiya manbalariga bo‘lgan extiyoji” Mirzayev S.Z Habibullayev M.A. Igamberdiyev B.T. Innavatons in tehnology and science education.

Internet tarmog‘idagi ma’lumot manbalari manzillari:

- [www.plcs.net](http://www.plcs.net)
- [www.plcmultipoint.com](http://www.plcmultipoint.com)
- [www.elektrolink.co.nz](http://www.elektrolink.co.nz)

## ЧОРВАЧИЛИКДА БИОФИЗИК УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

**Ахроров Маъруфжон Насимжонович**

Самарқанд Давлат тиббиёт университети

[akhrorov81@gmail.com](mailto:akhrorov81@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*Қишлоқ ҳўжалиги ҳайвонлари организмининг функционал ҳолатини эрта баҳолаши, уларнинг келгуси наслчилик ва маҳсулдорлигини башорат қилишининг тегишили, ишончли, ўта сезгир усулларини ишлаб чиқиши соҳамизнинг энг муҳим вазифалари бўлиб қолмоқда.*

*Самарали ва экологик тоза қўйчиликни йўлга қўйиш учун қўйлар ратсионида яйлов озуқасининг улушини сезиларли дараҷада ошириши, турли шароитларда ем-хашак экинларини етишишишининг кўплаб янги технологик жараёнларини ишлаб чиқиши зарур.*

*Кўпинча истеъмолчилар учун хавфли бўлиб қоладиган маҳсулдорликни ошириши (янги зотларни яратиши) ёки маҳсулот сифатига салбий таъсир кўрсатиши (озик моддалар, биологик қўшимчалар, гормонлар, антибиотиклар киритиши) учун технологик усулларни яратиши учун кўп йиллар талаб этилади. Табиий фанларнинг ривожланиши, техника ва инструментал ютуқларнинг ривожланиши билан физик омилларнинг, айниқса электромагнит нурланишининг тирик тўқима, тана, система, алоҳида аъзолар, тўқима, ҳужайра ва молекуляр миқёсдаги таъсир механизmlарини ўрганиши имконияти пайдо бўлди.*

**Калит сўзлар:** қоракўл зоти, яйлов, экстремал шароит, гўшт, биофизика, атроф-муҳит, омиллар, паст интенсивлик, лазер нурланиши, иммун ҳолати, табиий қаршилик, T- ва B-лимфоцитлар.

## ANNOTATION

*Early assessment of the functional status of the organism of farm animals, the development of appropriate, reliable, highly sensitive methods to predict their future breeding and productivity remains the most important challenges of our industry.*

*In order to achieve efficient and environmentally friendly sheep breeding, it is necessary to significantly increase the share of pasture fodder in the diet of sheep, to develop many new technological processes of growing fodder crops in different conditions.*

*It often takes many years to create technological methods to increase productivity (create new breeds) or negatively affect product quality (introduction of nutrients, biological additives, hormones, antibiotics), which remains dangerous for consumers. With the development of the natural sciences, technical and instrumental advances, it became possible to study the mechanisms of action of physical factors, especially electromagnetic radiation, on living tissue, body, system, individual organs, tissue, cell and molecular scale.*

**Key words:** qarakul breed, pasture, extreme conditions, meat, biophysics, environmental, factors, low intensity, laser radiation, immune status, natural resistance, T- and V-lymphocytes.

**Кириш.** Қишлоқ хўжалиги ҳайвонлари организмининг функционал ҳолатини эрта ёшда баҳолаш, уларнинг келажакдаги наслчилик ва маҳсулдорлигини олдиндан билиш учун мос келувчи, ишончли, ўта сезигир усувларни ишлаб чиқиш бизнинг соҳамизнинг энг муҳим муаммолари бўлиб қолмоқда.

Самарали ва экологик тоза қўй гўшти етиштиришга эришиши учун, қўйларнинг озиқланиш рационидаги яйлов ем-хашак улуши сезиларли даражада ортишига, турли шароитларда озукабоб ўсимликларни етиштиришнинг қўплаб янги технологик жараёнларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Маҳсулдорликни оширишнинг технологик усувларини яратиш учун кўпинча узоқ йиллар талаб этилади (янги зотларни яратиш) ёки маҳсулот сифатига салбий таъсир кўрсатади (озуқага, биологик қўшимчалар, гормонлар, антибиотикларни киритиш), бу эса истеъмолчилар учун хавфли бўлиб қолади. Табиий фанларнинг ривожланиши, техника ва асбобсозлик ютуқлари билан, тирик тўқималарга физикавий омилларнинг, хусусан электромагнит нурланишнинг тури танланиши, тана, тизим, айрим аъзолар, тўқима, хужайра ва молекуляр миқёсдаги таъсир механизmlарини ўрганиш имконияти пайдо бўлди.

Ветеринария тиббиётида лазер нурланишинг ҳайвонлар организмига таъсири тўлиқ ўрганилмаган. Сўнгги йилларда чорвачиликда ҳам илмий изланувчилар лазер нурланишининг баъзи хусусиятларида фойдаланиб келмоқдалар.

Лазер нурланишининг энг муҳим жиҳатлари: когерентлигидир-бунда нурланиш бир вақтда атомлар томонидан бир хил фазада юзага келади; монохроматикилиги-нурланиш бир хил тебраниш частотасига эга бўлади; юқори энергияга зичлигига эга эканлиги, аниқ йўналишга эгалиги, ингичка нурлар дастасини ҳосил қилиш мумкинлиги нурланишни бошқариш имконияти мавжудлиги-барча соҳаларда жумладан, фан ва тиббиётда ҳам жуда кенг миқёсда кўлланилмоқда.

Паст интенсивликдаги лазерлар тиббиётда ва ветеринариядаги терапевтик мақсадларда энг кўп кўлланилади. Уларнинг қуввати шундай танланадики, ҳатто иссиқлик таъсири ҳам сезилмайди, организмнинг тери тўқималарига зарар етказмайди, лекин ҳайратланарли даражада таъсир кўрсатиб, тўқималарга 5-7 см чуқурликкача кириб боради. Бундай хусусиятга фақат паст интенсивликлар эгадир. Мақбул (оптималь) лазер мосламаси танага хос (оптималь) частота диапазонини "танлаш" имконини организмнинг ўзига беради, яъни электромагнит тебранишлар "сузувчи" тартибда татарқатилганда, организм ўзи учун талаб қилинадиган диапазонни "танлайди".

Кўпгина тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, паст интенсивликдаги лазер нурланиши, сезгириликни оширувчи таъсирга, қоннинг ҳаракатини барқарорлаштириш ва сўрилишини, шунингдек кенг кўламли фотофизик ва фотокимёвий ўзгаришларини келтириб чиқаради.

“Лазер” атамаси инглиз тилида “Light Amplification by Stimulated Emission of radition” сўзларининг бош ҳарфларидан олинган бўлиб таржима қилинганда “Мажбурий нурланиш орақали ёруғликни кучайтириш” деган маънони англатади. Лазер- маълум бир модданинг атомларини ташқи ёруғлик манбаи орқали уйғонган ҳолатига ўтишига эришилгандан ҳосил бўлган ёруғлик манбаи ҳисобланади. Ушбу атомлар ташқи электромагнит нурланиш таъсирида дастлабки ҳолатга ўтганда, ёруғликнинг мажбурий нурланиши содир бўлади.

Олинадиган натижалар таъсир интенсивлигига боғлиқ бўлади. Ветеренария тиббиётида лазер нурланишидан фойдаланишда асосан 3 хил усулдан фойдаланилад. Усуллардан фойдаланишда объектнинг хажми ёки патологик турига қараб танланади.

1. Ўзаро алоқа (контакт) усули-нурлатгични объектга теккизиб ёки терига бир оз куч билан босилади (нурнинг чуқурроқ кириб бориши ва камроқ қайтиши ва сочилиши учун). Ушбу усул билан кичик юзалар орқали максимал интенсивликдаги энергия оқиб ўтишига эришиш мумкин.

2. Барқарор усул-ушбу усул учун нурлатгич таъсир соҳасига ҳаракатланмайдиган ҳолатда мустаҳкам ўрнатилади ва бир минутдан кам бўлмаган вақт мобайнида объект нурлантирилади.

3. Барқарор бўлмаган(нотурғун) усулида–нурлатгич таъсир соҳаси бўйлаб юргизилади.

Бундан фарқли равишда сканерлаш усули мавжуд бўлиб, нурлатгичнинг ҳаракати маълум вақт оралиғида узлуксиз равишда бажарилади ва квазисканерлаш (сканерлашдан кўра самаралироқ) усулида “сакраб-сакраб” ҳаракат бажарилиб, ҳар бир ишлов бериш нуқтасида 15-30 сониягача ушлаб турилади. Юқорида айтиб ўтилган муаллифларнинг фикрига кўра, нотурғун усул

катта миқдордаги зарар етган соҳаларга ёки минимал интенсивликни таъминлаш учун ишлатилади.

Лазер нурининг танага таъсирини турли катталиклар: нурланишнинг тўлқин узунлиги, интенсивлиги, дозаси, монохроматиклиги орқали кузатиш мумкин. Лазер нурланишининг тўқималарга узвий таъсири нурланишнинг тўлқин узунлиги, интенсивлиги ва дозасига боғлиқ бўлади. Нурланишнинг фотобиологик жараёнини нейрогуморал боғланишдаги ўзига хос ўзгаришлар юзага келтириб, гомеостазнинг нормаллашишини организмни тез мослашиш механизмини таъминлайди.

Лазер нурланишининг озиқаларни хазм бўлиш жараёнида ва терапевтик мақсадлардаги таъсирини ветеринария тиббиётида ҳамда фермер хўжалиги чорвачилигига кенг миқиёсда қўллаш мумкин. Шу жумладан иқтисодиётни ривожлатиришда табиий тоза, хавфсиз ва маҳсулдорлиги юқори бўлган чорвачиликда, паррандачиликда, чўчқачиликда ҳамда қишлоқ хўжалиги саноатида қўлланиладиган биофизик усул энг оптималь усул ҳисобланади.

Паст интенсивликдаги лазер нурланишлари турли хил ҳайвонлар организмига турличп таъсир кўрсатади. Бу нурланишларнинг авфзалликлари ҳам шунда мужассамланган, лазер нурларининг тўлқин узунлиги ва интенсивлик диапазонини ветеренария ва зоотехнияда амалда қўллаш учун кенг имкониятлар яратади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Абдраманов, Б.М. Влияние низкоинтенсивного лазерного излучения на суточную динамику натрия (Na) в рубце овец, при разной технике и кратности их кормления / Б.М. Абдраманов, А.А. Айдаралиев, Н.С. Абдулдаева // Universum: химия и биология: электрон.научн. журн. – 2017. – № 4 (34). – Режим доступа: <http://7universum.com>
2. Абилов, Б.Т. Эффективность выращивания молодняка мясо-шерстных овец на откорме с применением БМВД с повышенным содержанием растительного белка / Б.Т. Абилов // Научно-практический электронный журнал Аллея Науки. – 2018. – № 8 (24). – Режим доступа: Alley-science.ru[http://docviewer.yandex.ru\(27.12.2018\)](http://docviewer.yandex.ru(27.12.2018)).
3. Абонеев, В.В. Возрастные особенности морфологического состава крови молодняка овец разных генотипов в онтогенезе / В.В. Абонеев, Л.Н. Скорых, С.Н. Шумаенко // Овцы, козы, шерстяное дело. – 2015. – № 2. – С. 41-42.
4. Алексеев, Ю.В. Воздействие фотодинамического и светокислородного эффектов на ультраструктуру различных популяций лейкоцитов / Ю.В. Алексеев, Т.Г. Бархина, А.В. Иванов, Е.В. Давыдов, М.И. Ковалев, А.М. Ковалева // Лазерная медицина. – 2018. – Т. 22. – № 2. – С. 29-35.
5. Арипов У.Х., Омонов М. Биологические и продуктивные особенности каракульских овец сур Сурхандарьинского породного типа. Вестник аграрный науки Узбекистан. №1. 2020 г.

## ЯНГИ НАИСТОН МАЙДОНИНИНГ ГИДРОГЕОЛОГИК ТУЗИЛИШИ

**Панжиев Ҳикмат Аҳадиллаевич**

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

E-mail: [hikmat.panjiyev02@mail.ru](mailto:hikmat.panjiyev02@mail.ru)

**Аннотация:** Мақолада Бухоро-Хива нефтгазли ҳавзасинидаги Янги Наистон майдонининг гидрогеологик тузилиши ва чўкинди қатламидағи сувларнинг минералогик таркиби ёритилган. Майдондаги сувларни гидрогеологик характеристикаси келтирилган.

**Калим сўзлар:** Янги Наистон, Амударё артезини, Бешкент, Бухоро-Хива, юра, неоком–апт, альб–сенон, турон усти ва неоген–антропоген.

**Abstract:** The article describes the hydrogeological structure of the New Naiston field in the Bukhara-Khiva oil and gas basin and the mineralogical composition of the waters in the sedimentary layer. The hydrogeological characteristics of the waters in the area are presented.

**Key words:** New Naistan, Amudarya artesine, Beshkent, Bukhara-Khiva, Jurassic, Neocomian-Aptian, Albian-Senonian, Upper Turonian and Neogene-Anthropogenic.

Янги Наистон майдони гидрогеологик жиҳатдан биринчи даражали Амударё артезин ҳавзасининг таркибий қисми ҳисобланган, иккинчи даражали Қашқадарё артезиан ҳавзасидаги Бешкент гидрогеологик райони чегарасида жойлашган.

Бухоро-Хива нефтгазли вилоятининг мезо-кайнозой чўкинди қобиғи кесимида бешта регионал сув босими комплекси ажратилади: юра, неоком–апт, альб–сенон, турон усти ва неоген–антропоген. Улар кимеридж–титоннинг туз–

ангидритли жинслари ва неоком остида жойлашган гиллар пачкаси, қуиі–ўрта гил қатлами, қуиі туроннинг гил пачкаси ва эоцен–олигоценнинг гилли пачкаси сув ўтказмас жинслари комплекси билан ажралиб туради.

Ажратилған сув босимли комплекслар таркибида қуидагилар сув сақловчи ҳисобланади: юрада – терриген формация XIX, XVIII, XVII горизонтларнинг қумтошлари ва алевролитлари, ўрта келловей–қуиі кимеридж карбонат ётқизиқларининг XVI, XV–ро, XV–р, XV–а, XV–ру горизонтлари ўтказувчан охактошлари, альб – сеноманда қумтошлар ва алевролитлардан ташкил топған XI, X, IX горизонтлар, турон устида – турондаги VIII ўтказувчан горизонтнинг қумтошлари ва алевролитлари, сеноннинг қумтошлари ва палеоценнинг бухоро охактошлар қатламлари, неоген–антропогенда – қумтошлар ва алевролити жинслар сув сақловчи горизонтларни ташкил қиласы.

Амударё артезиан ҳавзасининг таъминоти вилояти Хисор ва Зарафшон тоғлари ҳисобланади. Регионал бўшаниш вилояти қўпчилик тадқиқотчиларнинг фикрига кўра Питняк кўтарилилари ва Сариқамиш ботиқлиги ҳисобланади.

Ўрта юра ва юқори юранинг қуиі келловей терриген қатламларида сув сақловчи тоғ жинслари қумтошлар ва алевролитлар бўлиб, Гирсан, Шуртан, Джамбулоқ майдонларида жуда яхши ўрганилган.

Терриген юранинг сувлари хлор–кальций таркибли намокоблар ҳисобланади. Джамбулоқда терриген юранинг сувлари 175786–201391 мг/л минералланишга эга,  $20^{\circ}\text{C}$  ҳароратда сотирма оғирлиги  $1,126\text{--}1,130 \text{ г}/\text{см}^3$  га teng. Микрокомпонентларнинг миқдори юқори, сувлар метаморфлашган. Улар III синф турларига киради Пальмер бўйича – қаттиқ, Сулин бўйича – хлоридли гуруҳнинг хлоркальцийли турига мансуб.

Восточно–Янгикентский майдонидаги №1 қудуқда 3670–3675 м оралиқда сувнинг кучли фаввораси аниқланган. Сувнинг ҳарорати  $110^{\circ}\text{C}$ , солиштирма оғирлиги  $1,16 \text{ г}/\text{см}^3$ . Сувнинг кимёвий таҳлили шуни кўрсатадики, асосий ионлар натрий, хлор, кальций ионлари ҳисобланади. Сулиннинг таснифи бўйича сувлар хлоркальцийли турга, хлоридли гуруҳга, натрийли сувлар гуруҳ остига киради.

Неоком–апт сув босими комплексининг қатlam сувлари атрофдаги майданларда синалмаган. Жануброқда жойлашган Шуртан конида улар махсулдор қатlam сувларидан биринчи навбатда жуда юқори минераллашганлиги (248 г/л) билан фарқ қиласи. Юра ва неоком–апт горизонтларида тузларнинг бундай нисбати юқори юранинг эвапоритли қатлами ривожланган чегараларда жойлашган кўпчилик майдонлар учун характерли.

Альб – сенман комплексининг сувлари Северний Камаши тузилмасида ўрганилган. Улар учун сеноманда минераллашганлик даражасининг 40 г/л гача камайиши, қарисидан нисбатан ёш горизонтларга ўтишда Ер юзасидан неоком–аптда 120–170 м дан сеноманда 20 м гача статик сатҳни кўтарилиши характерли. Сувлар асосан хлоркальцийли турга, хлоридли гуруҳга мансуб. Турон усти комплекси сувли горизонтлари палеоценнинг бухоро оҳактошлари ва сеноннинг қумтошлари билан намоён бўлган, аммо ушбу худудда ўрганилмаган. Шуртан кони билан ўхшашлиги бўйича сувлар натрийли сувларнинг сульфат–натрийли турига киради. Уларнинг минераллашганлиги нисбатан паст ва 6,0 дан 7,5 г/л гача ўзгаради.

Неоген ва антропоген ётқизиқларида жойлашган ер ости сувлари Бешкент ботиқлиги чегарасида ҳамма жойда тарқалган. Сув сақловчилар қумтошлар ва қумтошли алевролитлар қатламлари ҳисобланади. Бу сувлар излов–қидиув қудуқларни техник сув билан таъминоти учун бурғиланган сув қудуқларида очилган ва синалган. Очилиш чуқурлиги 30–40 м дан 150 м гача., кимёвий таркиби бўйича бўр ётқизиқлари сувларидан сульфатлар миқдорининг кўплиги билан фарқ қиласи ва Сулин бўйича сульфат гуруҳининг сульфат–натрийли турига масублиги аниқланган.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Й.Эргашев, Ф.С. Абдуллаев ва бошқалар. Нефт ва газ конлари геологияси. Тошкент. “Шарқ” 2008.
2. В.Г.Каналин, М.Г.Ованесов, В.П.Шугрин. Нефтегазопромысловая геология и гедрогоеология. Москва. Недра 1985.
3. И.Х.Абрикосов, С.Н. Гутман. Общая, нефтяная и нефтепромысловая геология. Москва. Недра 1982,
4. М.А.Жданов. Нефтегазопромысловая геология и подсчет запасов нефти и газа. Москва. Недра 1986.
5. Мавлонов А. В. Нефт газ кони геологияси. Дарслик, Тошкент, Фан, 1992
6. Абидов А.А. Нефт ва газ геологиясидан русча-ўзбекча изоҳли луғат. Тошкент. 2000 йил.
7. Х.И.Халисматов, И.П.Бурлутская, Р.Т.Закиров, Геология нефти и газа, Тошкент, ТДТУ, 2006 г.
8. Й.Эргашев, Ф.С.Абдуллаев, М.Х.Қодиров, И.Х.Халисматов. Нефт ва газ конлари геологияси. Дарслик, Тошкент, 2008

## BAĞISHLAW ISMLERINEN JASALĞAN QARAQALPAQ FAMILIYALARı

**Jarimbetova Maryam**

(*erkin izleniwshi*)

Baǵıshlaw, arnaw (memorativ) ismlerinen jasalǵan familiyalar, házirgi waqtqa shekem xaliqtıń oy-órisinde, sana-seziminde saqlanıp kelgen ótkendegi túsiniklerge baylanıslı atamalar hám tariyxta óz izin, óz atın qaldırǵan belgili adamlardıń, qaharmanlardıń atların tuwilǵan nárestege estelik retinde arnap, baǵıshlap qoyılǵan ismlerden jasaladı.

Baǵıshlaw ismlerinen jasalıwshı familiyalardı tómendegi toparlarǵa ajıratıp qaraǵanamız maqul:

1. Totem atlarının jasalǵan familiyalar: Totem atlarınıń adam atları sıpatında qáliplesiwi hám qollanılıwı júdá quramalı máselelerdiń biri. Túrkiy xalıqlarında totemizmniń kelip shıǵıwı urıwlıq dúzimniń payda bolıwı menen tıǵız baylanıslı. Áyyemgi xalıqlar hárqıylı haywanlar, quslar, ósimlikler, tańbalardı hám t.b. qubılıslardı káramatlı kúsh sıpatında tanıǵan hám olarǵa húrmet-izzet penen qarap, hátte sıyınatuǵın da bolǵan.

A.M.Zolotarev Sibir xalıqlarınıń ishinde 20 qáwimniń usınday janlı-jániwarlar, belgi-qubılıslardı, atap aytqanda ayıw, bürkit, jolbarıs, barıs, aq quw, ǵaz, jilan, ógız hám basqalardı totem etip alǵanın kórsetedi [1]. E. Begmatov: «Túrkiy tillerinde qasqırǵa baylanıslı (*Bóri*, *Bóriboy*), terekke baylanıslı (*O'rmon*, *O'rmonali*, *Chinorboy*), sonday-aq ósimlikke baylanıslı (*Evshanboy*, *Yontoqboy*) hám t.b. bolǵan totem atlar júdá xarakterli» – dep kórsetedi [2]. T. X. Kusimova eski bashqurt antropónimlerinde totemlik atlarǵa baylanıslı tiykarǵı kózge túsetuǵın nárse ayıw hám qasqırǵa (*Aywqa*, *Aywyan*, *Aywqas*, *Aqbure*, *Burexan*, *Qashqar* h.t.b.) baylanıslı adam atları ekenligin atap ótedi [3].

Mine usınday totem ismlerden qaraqalpaq familiyalarınıń jasalıw jaǵdayı gezlesedi. Mısalı, haywanlarǵa baylanıslı ismlerden: *Bóribaev, Jılqıbaev, Kiyikbaev, Qoblanov* hám t.b. Qaraqalpaqsha Qoblan atı áyyemgi túrkiy tillerinde «qaplan», «jolbarıs» degen mánini ańlatqan [4]. Sonday-aq, terek hám tereklikke baylanıslı ismlerden de jasaladı: *Toǵaev, Toǵaybaev, Ormanbaev, Jiydebaev, Jingılbaev, Qaramanov* hám t.b., quşlarga baylanıslı: *Ğargabaev, Qorazbekov* familiyaları da jiyi ushırasadı.

2. Allaǵa, qudayǵa, táńirge, payǵambar hám sahabalardıń atlارına baylanıslı, diniy uǵımdı úgitlewshi, sonday-aq aspan denelerine sıyınlıwdan payda bolǵan adam atlarınan jasalǵan familiyalar: *Qudaybergenov, Táńirbergenov, Ibrayimov, Ismaylov, Dawitov, Muxammedov, Áliev*.

3. Qaraqalpaq dástanlarınıń bas qaharmanlarınıń atlarına arnap qoyılǵan ismlerden jasalǵan familiyalar: *Alpamisov, Qarajanov, Jádigerov* («Alpamıs» dástanı), *Edigeев, Nuraddinov* («Edige» dástanı), *Otbasqanov, Arıslanov* («Qırq qız» dástanı), *Qoblanov* («Qoblan» dástanı), *Sháriyarov* («Sháriyar» dástanı), *Yusupov, Axmetov* («Yusup-Axmet» dástanı) hám t.b.

4. Tariyxta ayriqsha iz qaldırǵan xalıq batırları hám biyleri, jırawları, baqsıları hám shayırlarınıń atlarına baylanıslı ismlerden jasalǵan familiyalar: *Mamanov* (XVII ásır), *Aydosov, Ernazarov, Ómirbekov, Ájiniyazov, Berdakov, Berdimuratov* (XIX ásır).

Qaraqalpaq xalqınıń jaqın tariyxında ayriqsha orıńǵa iye, eldiń elewli perzentlerine arnap qoyılǵan baǵışlaw ismlerinen jasalǵan familiyalar ásirese kóp ushırasadı: *Allayarov* (Allayar Dosnazarov), *Xalmuratov* (Qara doktor), *Qurbanbaev* (Qurbanbay jıraw), *Ámetov* (Ámet baqsı Tariyxov), *Ibrayimov* (Ibrayım Yusupov), *Muwsaev* (Muwsa Erniyazov), *Allaniyazov* (Allaniyaz Óteniyazov) hám t.b.

**Paydalanylǵan ádebiyatlar:**

1. Золотарев А. М. Пережитки тотемизма у народов Сибири. Л., 1934, 49-51-бетлер.
2. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. Автореферат кандидатской диссертации. Ташкент, 1965, 8-бет.
3. Кусимова Т. Х. Древнебашкирские антропонимы. Автореферат кандидатской диссертации. Уфа, 1975, 9-бет.
4. Древнетюрский словарь. Л., 1969, 421-бет.

## BODRINGNI VEGITATIV YO'L BILAN PAYVANDLASH

### TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

**Nurillayev Ilhom Xolbek o'g'li**

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

[mr.ilhomnurillayev@gmail.com](mailto:mr.ilhomnurillayev@gmail.com)

#### ANNOTATSIYA

*Hozirgi kunga kelib yer yuzida 8 mld atrofida insonlar istiqomat qilmoqda. Yer yuzida insonlar sonining ortib borishi insonlarning yashash uchun joyga, ijtimoiy, maishiy talablari bilan bir qatorda ularning oziq ovqatga va toza ichimlik suviga bo'lgan talabni orttiradi. Shuni inobatga olib butun dunyo olimlari insonlarning oziq ovqatga bo'lgan extiyojini qondirish uchun yangicha qishloq xo'jalik maxsulotlarini yaratish, yangilarini intoduksiya qilish bilan bir qatorda, mavjud o'simliklarni yangicha o'stirish texnologiyasi orqali yetishtirish ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishdagi ishlarning bir yo'nalishi hisobida bodringni kuchli payvantaglarga payvantlash texnologiyasi hisoblanadi. Bodringni qovoq yoki qovoqchaga payvandlashdan asosiy maqsad uning yashovchanligini oshirish bilan bir qatorda ildiz sistemasini kuchaytirish. Bundan tashqari qovoqda bir qancha kasalliklarga chidamlilik xam yaxshi rivojlangan. Ushbu maqolada bodringni payvantash texnologiyasi bo'yicha qilingan bir qancha ishlar yoritilgan.*

**KALIT SO'ZLAR.** Payvantash, payvandag, payvandust, muddat, muhit, moslashish.

#### KIRISH.

Bodringni qovoqqa payvandlash o'ziga xos usul bo'lib, bodringni xayotchan bir qismini boshqa qovoqning to'qimasiga joylashtirish va natijada ular to'qimalarning regeneratsiya yo'li bilan birikishi va bir o'simlik kabi o'sish va rivojlanishda davom

ettirishidir. Sabzavot ekinlarini payvandlash ko‘chatlik bosqichida o‘sib turgan o‘simlikning qalamchasini (payvandust) boshqa ildizli o‘simlik (payvandtag)ga ulash natijasidir. Payvandtag sifatida qovoqni tanlashning maqsadi, qovoq kuchli ildiz tizimini shakllantiradi va tuproqdan ko‘p namlik va oziq moddalarni o‘zlashtirishdan iborat, bundan tashqari qovoq ildizi xaroratga kam talabchan, sho‘rlanish va tuproqdagagi kasalliklar (fuzarioz, nematoda, ildiz chirish va boshqa) ga chidamli hisoblanadi. Bu xususiyatlarni hisobga olib yani issiqqa, sovuqqa va boshqa stresslarga chidamligi bilan bir qatorda kasalliklarga ham bardoshli hisoblanganligi sababli bodringga payvandtag sifatida qovoq o‘simligini tanladik. Payvandtag sifatida olgan qovoq o‘simligimiz o‘zining ildiz tizimi orqali payvandustni yani bodringni ozuqa elementlar bilan ta’minlaydi, payvandust bodring esa o‘z navbatida fotosintez jarayonida bargda sintez qilgan organik moddalar bilan yangi xosil bo‘lgan o‘simlikni to‘yintiradi, shunday qilib payvandtag va payvandust o‘zaro bir-biriga ta’sirini o‘tkazadi. Natijada vujutga kelgan yangi komponentli o‘simligimiz normal xolatda o‘sib rivojlanadi. Pirovardida esa biz kutgan yuqori xosil beruvchi, kasallik va zararkunandalarga chidamli o‘simlik vujutga keladi.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI.**

Bodring uchun payvandust sifatida geterozis duragaylar (partenokarpik va asalari yordamida changlanuvchi)ni olingani maqlul. Bodring uchun payvandtag sifatida fuzarioz so‘lishga chidamli qovoq (*Sucurbita ficifolia*) ni ishlatish mumkin[2]. Payvandtag sifatida lagenariya qovog‘i yoki idish qovoq (*Lagenaria siceraria*) dan foydalaniladi, ularga payvandlangan tarvuz, qovun yoki bodringni xosildorligi, tezpisharligi va sovuqqa chidamlilagini oshiradi. Payvandlangan tarvuz, o‘z ildizida o‘sib rivojlangan tarvuzga taqqoslanganda, mevasi katta va shirinligi yuqori bo‘lganligi aniqlangan[2,3]. Payvandlash texnologiyasi xar bir o‘simlik (ko‘chat) ni poyasini alovida kesishni taqazo etadi, ish jarayonini tashkil etishda urug‘larni issiqxonaga ekish sharoiti, ko‘chat olish uchun kasseta yoki tuvakchalar bo‘lishi kerak. Bu jarayon ko‘chatlarni payvandlash uchun gurux-gurux qilib olib o‘tishda qo‘l keladi va payvandtag ildiz tizimiga zarar yetkazmaslik xamda ko‘chatlarni payvandlangandan

keyin oldindan tayyorlab qo‘yilgan maxsus himoyalangan joylarga o‘simliklarni shu sharoitga o‘rgatish uchun joylashtiriladi[3,4]. Issiqxonada ko‘chatlarni payvandlash uchun tayyorlash jarayonida va payvandlangandan keyin xaroratni +25+28°C da ushlab turish zarur. Ko‘chatlarni o‘sirish davrida yorug‘lik, xarorat va namlikni sozlash, payvandlaguncha xar bir payvandtag nixolning yerdan to bиринчи bo‘g‘imigacha (urug‘ bargigacha) oralig‘i uzun bo‘lishi kerak. Shunda payvandlangan joy tuproqdan yuqorida joylashadi, bunda tuproq bilan bog‘liqligi bo‘lmaydi va o‘simlikni tuproq kasalliklariga va o‘simlikni tuproq kasalliklariga chidamli bo‘lishini ta’minlaydi[3,5]

## NATIJALAR.

Qovoq va bodringni payvandlash jarayonini o‘tkaziladigan tajriba joyi oldindan tayyorlangan bo‘lishi zarur. Payvandlash bevosita maxsus peshtaxta yoki stolda olib boriladi. Ishning qulayligini ta’minalash uchun stul yoki o‘rindiqdan foydalanishga ahamiyat berish zarur. Payvantlash jarayoni uchunzarur uskunalar-rezina qo‘lqop, payvandlash uchun maxsus tig‘li keskich, maxkamlovchi material rezina trubka yoki klipsi-qisqich kerak, shtangensirkul, chizg‘ich, variantlarni yozish uchun (yorliq) etiketika yoki kichik-koziqchalar, qalam, ruchka, yozuv uchun maxsus daftар yoki jurnal kerak bo‘ladi. Bundan tashqari xonaning va ishni bajaruvchi shaxsni dizinfeksiya qilinganligiga e’tibor berish lozim. Xonaning xarorati ham katta ahamiyat beradi bunda, harorat haddan ziyod sovuq yoki issiq bolmasligi lozim. Bunda xona xaroratini 18-23°C bo‘lishi maqbul. Avvaldan tayyorlab qo‘yilgan qovoq va bodringlar payvandlash xonasiga olib kiriladi. Bunda o‘simliklarni yetishtirish muddatlariga qarab urug‘lar yani payvantag qovoq va payvandust bodring ekish muddatidan 7-8 kun avval ekiladi. Bunga asosiy sabab payvandlashdan so‘ng bu muddat o‘simlik organizimini shu muxitga moslashishi uchun ketadi. Bundan tashqari o‘simlikni ekin turiga qarab payvandlashdan oldin 2-4 soat to‘yintiib sug‘orish muxim jarayon hisoblanadi, chunki payvantashdan keyin ularni payvandlangan joyi bitguncha sug‘orilmay turiladi. Payvantash uchun diametri bir xil bo‘lgan qovoq va bodring ko‘chati tanlab olinadi. Nixollarni kesish jarayonida barglarga etibor berish muxim.

O'simliklarni kesilgan xolda uzoq vaqt qoldira olmaymiz sababi uzoq vaqt qolib ketgan o'simlik suv yoqotishi hisobiga payvantlash jarayonining sifatsiz chiqishiga olib keladi. Payvantlash jarayonida har bir kesishdan so'ng ish asboblari spitr yoki distillangan suv bilan tozalanadi. Sabzavot ekinlarini payvatlashning bir qancha usullari mavjut bo'lib biz payvandlash uchun ananaviy yorma yani iskana payvantlash usulidan foydalandik. Payvantlash jarayonida etiborni payvandtag bilan payvanduskni po'stloq qismini bir biriga mosligiga etibor berish kerak.

### **MUHOKAMA.**

Demak payvandlash jarayonining mukammal chiqishi barcha jarayonlarni nazorat ostida olib borilish juda muhim. Ammo bodringni qovoqqa payvand qilish jarayonining murakkabligi mavjud bo'lib bu qovoq urug'g'dan chiqishi bilan poya diametri yog'onlashadi. Payvandlash uchun esa payvandtag va payvandustning diametri bir xil bo'lishi kerak. Shu sababli bodring urug'dan chiqib dastlabgi chin barg chiqarganidan so'ng qovoqni tuproqqa qadaymiz. Bu bilan biz payvandlash jarayonidagi diametrni tenglashtirib olish. Payvandlash jarayoni nixoyasiga yetgach darxol yorliqqa qachon payvantlash jarayoni amalga oshirilgani, qaysi o'simliklar payvadlanganligini ifodalovchi yorliq joylashtiriladi va maxsus xonalarga olib kiriladi. Bu xona akklimatazatsiya xonasi bo'lib bu xonada xarorat kechasi 20-22°C Kunduz kuni esa 25-28°C bo'lishi, namligi esa 96-98% bo'lishi lozim.

### **XULOSA.**

Demak biz bir qancha tajribalar va yangi texnologiyalar asosida qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirishni yangicha texnologiyalari asosida mahsulot yetishtirib kelgusida yuzaga keladigan oziq ovqat muammosini bir qancha hal etishimiz kerak. Shu boisdan biz boshqa sabzavot ekinlari qatorida bodringni xam kuchli payvandtagga o'tqazib yetishtirish texnologiyasini ko'rib chiqdik. Bu jarayon bir qancha afzalliklarga ega bo'lishi bilan birga bazi kamchiliklari ham mavjud. Bular-payvandlangan bodring ko'chatlarini tayyor bo'lish muddatini oddiy ko'chatlarga nisbatan 7-8 kunga kechikishi, payvandlashdagi sarf xarajanlarning nisbatan yuqoriyoq bo'lishi. Ammo bularga qaramasdan agarda yaxshi agrotexnik tadbirlarni amalga oshiranimizda biz eng yuqori rentabilitlikga erishishimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Boysunov., N., Nurillayev., I. (2023). “orolbo‘yi hududining murakkab stress omillariga (sho‘rga, qurg‘oqchilikka, kasallikga) bardoshli, bahorgi bug‘doyning serhosil, donning sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan navlarni tanlash va resurstejamkor agrotexnologiyasini ishlab chiqish”. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 860–863. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2478>
2. Mavlyanova R.F., Yunusov S.A, Karimov B.A Sabzavot ekinlarini vagitativ payvandlash. Toshkent-2018
3. Plant Sci., 07 January 2021 Sec. Crop and Product Physiology Volume 11 - 2020 | <https://doi.org/10.3389/fpls.2020.621999>
4. Прививка овощей. Способы прививки овощей. Вэб-сайт: Урожайная грядка. [http://urozhaynagryadka.narod.ru/privivka\\_ovoshey.htm](http://urozhaynagryadka.narod.ru/privivka_ovoshey.htm)
5. [https://www.vigyanvarta.com/adminpanel/upload\\_doc/VV\\_1220\\_17a.pdf](https://www.vigyanvarta.com/adminpanel/upload_doc/VV_1220_17a.pdf)

f

## RIVOJLANISHNING NAVBATDAGI BOSQICHIGA O‘TISH VAQTI KELDI

**Umarov O.Q., i.f.n., dotsent, FDU**

**Baltabayeva Maloxat,**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada rivojlanayotgan davlatning asosiy muammolari, mamlakat fuqarolarining bandligini ta’minlash, ularning ma’lumoti, mahalliy byudjetlarni boshqarishning samarali mexanizmlari va shakllariga o’tish bo‘yicha echimlar taklif etiladi. Zamonaviy ta’limda kadrlar bilan ta’minlash uchun zarur rivojlanish yo’llari, ijtimoiy rivojlanish samaradorligi bo‘yicha davlat mexanizmlarining harakatlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** bandlik, mahalliy byudjet, ta’lim, kadrlar bilan ta’minlash, mahalliy soliqlar, aholi.

Markazlashgan rejali boshqarishdan xo‘jalik mustaqilligiga bozor talablari asosida o‘ta boshlaganimizga ham 30 yildan ko‘p vaqt bo‘ldi. O‘tgan vaqt xo‘jalik yuritish mustaqilligining afzalliklarini ko‘rsatib berdi. Lekin ayrim sohalarda haligacha markazdan boshqarishga urinish amaliyoti saqlanib qolgan. Bunday urinishlar o‘sha soha rivojiga to‘sinq bo‘lib kelayapti. Buning tasdig‘ini xarid narhlari belgilab qo‘yilgan sohalar misolida ko‘rish mumkin. Mavhumlikdan qochib, aniq misol keltirib o‘taqolaylik: tut pillachiligida 1-chi sort pilla 5000 so‘m subsidiya bilan birga 30 ming so‘nni tashkil etadi. Undan ham 8000 so‘m urug‘lik haqi ushlab qolinib 28000 so‘mga xarid qilinadi. Aslida 1 kg. tirik pilla barcha boshqa ishlab chiqarish xarajatlaridan tashqari 26,7 kishi/soat qo‘l mehnati bilan yetishtiriladi. Bu eng kamida 380 ming so‘m ish haqi demakdir. Boshqa xarajatlar qo‘shilgach 1 kg. pillaning tannarhi 420 ming so‘m atrofida bo‘lishini bildiradi. Bu raqamlar 50 ga yaqin pilla yetishtiruvchi mamlakatlarda deyarli bir hil.

Pillani harid narhida 12 baravar arzon sotib olinishi ishlab chiqarish xajmiga katta to'siq bo'lib davlatga ham katta zarar yetkazayapti. Zararlarning turlarini sanab o'taylik:

1)ish o'rnilarini keskin kamayib ketdi (asosan sanoatda);

2)yerlarning hosildorligi keskin pasayib ketdi. Chunki dala uvvotlarida tut o'rniga terak o'sa boshladi.Terak tut o'rnini bosa olmaydi. Yer zahini bug'latmaydi. Sho'rashishni manbai. O'tgan asrning 50 yillarda 30 ga yaqin 100 sentnerchi paxtakorlar davlatning oliy mukofotlariga sazovor bo'lishgan. Xozir o'rtacha hosildorlik 28 sentner atrofida;

3)ipak hom ashyosini gilam to'qish uchun Turkiyadan import qilayapmiz;

4)budgetga soliq tushumlari imkoniyatdagidan 12-15 baravar kam.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni davom etayapti. Asosiy sabab, kadrlar yetishmovchiligidir. Eskilar ta'kidlagandek 4 tomondan o'ylaydigan kadrlar kerak. Masalaning ijobjiy tomonini, salbiy jihatlarini, imkoniyatlarni va taxdidlarni.

Menejment yoki marketing so'zlariga bee'tibor kadrlarga, ichki imkoniyatlarni ko'rmaydigan kadrlarga qoldik. Bular bizning oliy ta'lim o'qituvchilarining hatolarimiz. Buni tan olishimiz hatolarimizni tuzatishga kirishishimiz zarur.

Keyingi yillarda hammamiz matematik bo'lib ketdik. Uzun formulalarni tushuntirishga urinamiz. Bu ilmiylik, albatta. Lekin bu ilmiylikkacha hali ancha bor. Hayotni o'qitishimiz kerak. Ishlab chiqarishdan maqsad sotish. Eng qiyini ham sotish. Raqobat ishlab chiqarishda emas realizatsiyada.

Nega ayrim davlatlar sifatli mahsulotlarni arzon sotib reklama qilayotganliklarini o'quvchilarimizga misollar asosida tushuntirishimiz kerak. Formulalar ishlataladigan joylar ham bor. Farqlay olishimiz kerak. Ibrat olishni, tinglashni, hulosa chiqarishni o'rganishimiz, o'rgatishimiz kerak. To'g'ri eng katta chetdan aralashuv ta'lim sohalarida.

Jamiyat uchun 1-2 nafar noodatiy fikrlaydigan fuqarolar ham kerak. Juda to'g'ri bo'lmasa ham hech bo'lmasa fikr tug'diruvchi gaplarni ta'kidlab o'tamiz. Oliy ta'lim

ishlab chiqarish bilan yaqinlashishi kerak. Dars jadvallari ham vaziyatdan kelib chiqib, Universitet – 3.0 konsepsiyalari vaziyatlariga muvofiq tuzilishi muhim va hokazo.

Biz bozor iqtisodiyotiga o‘tishning navbatdagi bosqichi to‘g‘risida fikr yuritmoqchimiz. Birinchi bosqich ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalaridir. Ikkinci bosqich bu budjetdan mablag‘ oladigan tashkilot va muassasalarni markaziy ta’minot hamda markaziy boshqaruvdan chiqarish masalasidir. Oddiy qilib aytganda bog‘cha, maktab, texnikum va oliy o‘quv yurtlarini mahalliy budjetdan mablag‘lar olishga o‘tkazish. Ularni qancha qurish, qayerga qurish, qachon ta’mirlash, qaysi yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash masalalari mahalliy hokimiyatga ma’lum. Mablag‘ yetishmay qolganda, ichki imkoniyatlarni ishga solishadi. Zahiralarni izlab topishadi. Eng muximi bilan oldin shug‘ulanishadi. Keraksizini yangi yo‘nalish bilan almashtiradi va hokazo. Yurtingni obod, rivojlangan boy qilmoqchimisan, unda izlan, imkoniyatlar top, mehnating serdaromad bo‘lsin. Davlat tinchlikni, mudofaani, axborot aylanishini, umumiyl boshqaruv va nazoratni ta’minlab berayapti. Mahalliy budjetni ta’minlaydigan soliqlarni ihtiyingda qoldirdi. Endi ishslash qoldi xolos.

Maktab 50 yildan buyon ta’mirlanmadni, ko‘chalar notekis deb yurmasdan, e’tiborni birinchi darajali ishlarga qaratish kerak bo‘ladi yangi bosqichga o‘tilgach. Soliqlarni bilvositalari Respublika byujetiga to‘lanadi. Qolgan soliqlarni viloyatlar har budjet yili oldidan, tuman va shaharlari o‘rtasida qayta taqsimlaydi. Soliq stavkalarini ham tuman, shahar va viloyatlar halqi bilan kelishib maqsadli ravishda o‘zgartira olishlari muhim. Fuqarolar o‘z mahalla, tumanlariga moliyaviy yordam ko‘rsatish amaliyoti ham keng tus oladi.

Viloyat hokimi institut, universitetlardan Universitet – 3.0 konsepsiysi kabi masalalarda hisobot talab qiladigan bo‘lsin. Hokim aholi murojaatlari asosida talab qilish, imtiyozlar berish vakolatiga ega bo‘lsin. Mas’uliyat, vakolat, rag‘bat, qonunlar doirasida, doimo kun tartibida tursin. Har bir fuqaro davlatga, oilasiga, mahallasiga qanday naf keltirayapti? Kim haqiqatda nochor axvolda? Qanday foydalanimay turgan imkoniyatlar bor? Mavjud imkoniyatlarni qanday qilib kengaytirish mumkin? Xususiy

mulkchilik imkoniyatlaridan foydalana olayapmizmi? Hisobot uchun emas, natija uchun, yaratib berilgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan holda, farovonlik uchun mehnat qilish davri keldi. Manfaatlarni uyg‘unlashtirish kimlar o‘rtasida kechadi? Xususiy mulk(biznes) bilan davlat va uning quyi bo‘g‘inlari (mahalla, tuman, shahar) o‘rtasidagi munosabatlarni qaysi iqtisodiy kategoriya yordamida tartibga solamiz?,- kabi savollarni barcha mas’ullar tez – tez o‘ylab turishlari muhim. Juda muhim.

**Xulosa o‘rnida:** Yurting obodligi o‘sha yurtda yashovchilarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ortiqcha idoralar kamayadi. Keraksiz xarajatlarga zarurat qolmaydi. Budget tashkilotlarining faoliyati yuzasidan nazorat ham mahalliy hokimiyatlarga o‘tishi muhim. Toki tuman, shahar hokimiyati xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan kelishgan holda o‘zidan ketib qolgan bizneslar faoliyatiga chek qo‘ya oladigan bo‘lsinlar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baltabaeva, M. O. (2023). SHAHAR VA QISHLOQLARDA AYOLLAR BANDLIGINI TA’MINLASH YECHIMLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(8).
2. Балтабаева, М. О. (2023). ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН, ПРЕДЛАГАЕМЫЕ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ. *Экономика и социум*, (4-1 (107)), 471-476.
3. Мирзаев, Р. Б. (2023). АВТОМОБИЛ ОЙНАЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ КОРХОНАЛАРДА МАТЕРИАЛЛАР САРФ МЕЪЁРЛАРИНИ ХИСОБИННИ ТАКОМИЛАШТИРИШ. *Research Focus*, 2(1), 503-509.
4. Umarov, O. Q., & Baltabaeva, M. O. (2023). IQTISODIYOT-UY XO ‘JALIGI YURITISH SAN’ATI.” *Science Shine” International scientific journal*, 3(3).

5. Baltabayeva, M. O. (2023). Using the Mechanism of Social Partnership to Ensure the Employment of Women. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 65-69.
6. Baltabayeva Malokhat Ortiqaliyevna. (2022). DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF ENTERPRISES AND ITS IMPACT ON GROSS DOMESTIC PRODUCT. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429*, 11(09), 100–104. Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/976>
7. Yuldasheva, G. A., & Boltaboyeva, M. (2023). INVESTMENT MANAGEMENT IS AN IMPORTANT FACTOR OF ECONOMIC DEVELOPMENT. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 299-302.
8. Юлдашева, Г. А. (2022). Значение инновационного опыта в формировании повышения уровня доходности населения. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 172-185.

## A NEW PERSPECTIVE ON THE GENRE TRANSFORMATION THEORY

**Zokirjonova Madina**

Namangan State University

A student of Master's degree

[madinahonzakirhanova@gmail.com](mailto:madinahonzakirhanova@gmail.com)

**Abstract:** This article analyzes the pre-existing, but not yet fully developed, theory of genre transformation. In this, the work of English literature professor and writer Ralph Cohen on genre transformation is taken as a basis and the book is analyzed. Through this work, Cohen clearly and thoroughly reveals a new perspective and understanding of genre transformation. In order to further analyze the transformation of the genre, Cohen discovers new meanings by comparing the Barnwell ballad with what he believes to be a contemporary, Delonoy's "The Rich Merchant man".

**Keywords:** genre transformation, generic mixture, Barnwell ballad, narratives, new generic method.

## НОВЫЙ ВЗГЛЯД НА ТЕОРИЮ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖАНРА

**Аннотация:** В данной статье анализируется уже существовавшая, но еще не до конца разработанная теория жанровой трансформации. При этом за основу берется работа профессора английской литературы и писателя Ральфа Коэна по трансформации жанра и анализируется книга. Благодаря этой работе Коэн ясно и подробно раскрывает новую перспективу и понимание трансформации жанра. Чтобы дополнительно проанализировать трансформацию жанра, Коэн обнаруживает новые значения, сравнивая балладу Барнуэлла с тем, что он считает современником, «Богатым торговцем» Делоноя.

**Ключевые слова:** жанровая трансформация, жанровая смесь, баллада Барнуэлла, нарративы, новый жанровый метод.

## JANR TRANSFORMATSIYASI NAZARYASIGA YANGI NUQTAI NAZAR BILAN QARASH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oldindan mavjud bo‘lgan ammo, unchalik ham yuzaga chiqmagan janr transformatsiya nazaryasi tahlil qilinadi. Bunda ingliz adabiyoti professori va yozuvchi Ralf Koenning janr transormatsiyasiga doir asari asos qilib olinadi va kitobi tahlil qilinadi. Koen bu asari orqali janr transformatsiyasiga yangicha qarash va tushunchalarni yaqqol va batafsil ochib beradi. Janr transformatsiyasini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun Barnwell balladasini va uning fikricha zamondosh bo‘lgan Deloniyning "Badavlat savdogar" asari bilan solishtirib yangi ma’nolarni kashf qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qishloq xo'jaligi bu mamlakat taraqqiyotida salmoqli o'rinni tutgan va milliy iqtisodiyotga katta hissa qo'shib kelayotgan sohadir. Biroq, davlat iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar qishloq xo'jaligi sohasida yangi muammolarni keltirib chiqardi. Shu sababli, hukumat qishloq aholisi o'rtasida agroturizmni yangi turizm konsepsiysi sifatida rag'batlantirmoqda. Natijada, mamlakatda agroturizm keskin ommalashib bormoqda va mahalliy aholi o'rtasida qishloq xo'jaligini diversifikasiya qilish shakli sifatida rivojlanmoqda, chunki bu yerda yetarlicha qishloq xo'jaligi resurslari mavjud. Agroturizmni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan asosiy organ Qishloq xo'jaligi vazirligi bo'lib, Turizm va madaniy meros vazirligi esa uni targ'ib qilishda yordam bermoqda. Shuningdek respublikada agroturizmni rivojlantirish borasida AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning agrobiznesni rivojlantirish loyihasi Agrobiznesni rivojlantirish jamg'armasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Agroturizmning afzalliklari. Agroturizmning xuddi shaharliklar kabi qishloq aholisi uchun ham ahamiyati katta. U bir qator afzallikkarga ega: daromad, ish bilan bandlik, turar joy bilan ta'minlanganlik, tabiiy resurslarni saqlash, dam olish, ta'lim va boshqalar. Aksariyat mamlakatlarning eng asosiy muammosi fermer xo'jaliklari daromadining pastligidadir. Agroturizm esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga turistlarni jalb qilish hisobiga aholi daromadlarini oshirish, qishloqlarda turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan faoliyat ekanligi uning bugungi kundagi ahamiyatini oshiradi. [5]

Agroturizmni rivojlantirishning afzalliklari yanada keng ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan:

- fermer xo‘jaliklari faoliyatini yanada kengaytirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan innovatsion usulda taqdim etish;
- fermer xo‘jaligi daromadlarini oshirish;
- fermer xo‘jaligidagi qo‘srimcha daromadlarni bevosita oila a’zolariga yo‘naltirish;
- dam olish maskanlari; fermer xo‘jaliklarining yashash va ish joylarini yangilash;
- boshqaruv mahorati va tadbirkorlik ruhiga erishish imkoniyatlarini ta’minlash;
- fermer xo‘jaliklarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash [10].

Agroturizmning mahalliy aholiga ijtimoiy-madaniy ta’siri. Turizmning ushbu turi nafaqat iqtisodiy manfaat, balki ijtimoy afzalliklarga ham ega. Agroturizm mahalliy aholining oilaviy munosabatlari, turmush madaniyati, yashash tarzi va urfatlariga ta’sir qiladi. U turli millatlarni, turli madaniyatlarni birlashtiradi. Qishloqlarda o’tkaziladigan bayram kechalari, festivallar, namoyishlar ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham rivojlantirishi mumkin. Qishloq aholisi hamda shaharlik sayyoohlar o’rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi, bu orqali mahalliy hamjamiyat yaqinlashish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda ham bugungi kunda agroturizmning - Turizm ovuli, - Turizm qishlog‘i tasnifiga kiritilgan obyektlari mavjud bo‘lib, u yerlarda qishloq aholisi hayoti bilan tanishish, qishloq oilasi bilan birgalikda yashash va milliy taomlardan iste’mol qilish, tabiiy toza mahsulotlarni iste’mol qilish, turli bayram kechalari o’tkazish kabi madaniy tadbirlarda ishtirok etishlari uchun salohiyat yuqori. Qishloq turizmidan farqli o‘laroq, agroturizm xizmatlari qishloq xo‘jaligi korxonalaridagi mehnat jarayonlari va mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Agroturizmda kamchiliklar. O‘zbekiston turizm sanoatida yangicha yo‘nalish bo‘lgani uchun ayrim kamchiliklar mavjud: - infrastrukturada mavjud nuqsonlar (yo‘l ta’mirlash ishlaridagi nosozliklar); - davlat kafolati va huquqiy normalarning yetishmovchiligi (soliq stavkalari, bank kreditlari tizimidagi imtiyozlar, reglamentatsiya va qonunlar kamchiligi); - turistik brendlarning mavjud emasligi kabi kamchiliklar kiradi.

**Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki**, turizm sohasining muhim yo‘nalishlaridan bir bo‘lgan agroturizm ekologik toza tovarlar taqdim etish va xizmatlar ko‘rsatishga asoslangan turizm turi bo‘lib, bu xalqimizning turush sharoiining yaxshilanishiga hamda davlat byudjetining ham oshishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda yurtimizda ushbu sohada amaloga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar hamda yutuqlarimiz ham talaygina. Bunga misol sifatida olis qishloq hududlarida tashkil etilayotgan agroturizm ob’ektlari, mehmon uylari va boshqalarni misol keltirish mumkin. Shu bilan birga agroparklarning, agroklasterlarning qurilishi natijasida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish choralari ko‘riladi, qishloq aholisini ish bilan ta’minlaydi, qishloq aholisining xorijga migratsiyasini kamaytiradi, turistik mavsum davomiyligini uzaytiradi, qiymati bo‘yicha raqobatbardosh dam olish turi hisoblanadi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, turli qishloq xo‘jalik mahsulotlari hamda o‘ziga xos qishloq an‘analari, diqqatga sazovor joylar, turistik xizmatlarni ko‘rsatish salohiyatiga ega qishloqlarning mavjudligi agroturizmni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Chase, Lisa C.; Stewart, Mary; Schilling, Brian; Smith, Becky; Walk, Michelle (2018-04-02). "Agritourism: Toward a Conceptual Framework for Industry Analysis" (en). Journal of Agriculture, Food Systems, and Community Development 8 (1): 13–19. doi:10.5304/jafscd.2018.081.016. ISSN 2152-0801.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/agroturizm-o-zbekistondagi-fermerlar-vamahalliy-aholi-uchun-potensial-imkoniyatlar/viewer>
3. <https://kun.uz/uz/97748816?q=%2Fuz%2F97748816#!>
4. [https://toshvil.uz/oz/toshkent\\_viloyatida\\_agroturizm](https://toshvil.uz/oz/toshkent_viloyatida_agroturizm)
5. <https://yuz.uz/uz/news/>

## TERMITLARNING BIOEKOLOGIYASI

**Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

tuychiyevafdu1993@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada termitlarning bioekologiyasi, tarqalishi, oziqlanishi va zararli xususiyatlari haqida malumotlar berilgan. Termittlar mayda yoki o‘rta o‘lchamli, odatda yorug‘likdan o‘zini olib qochadigan va yerda , yog‘och taxta va kartonsimon materiallarda uya qurib oila hosil qilib yashovchi hasharotlardir. Odatda termittlar zararlilik xususiyati bilan ajralib turadi.*

**Kalit so‘zlar:** *termit, oziqa rejimi, ksilofag, parmalovchilar, zararkunanda, sariq bo‘yin termit, polimorfizm, areal, turkiston termiti, gigroskopik.*

Hasharotlarning oziqa rejimining almashuvi ular xulq atvorining, ozuqa qabul qilish usuli va og‘iz apparatining modifikatsiyalanishi hamda oziqa xazm qilish jarayonlarining o‘zgarishi bilan yuzaga keladi. Shubxasiz bunday o‘zgarishlar uzoq evolyutsion jarayonlar bilan bog‘liq.

Hasharotlarning xulqi xarakatlarining abiotik muxitlarga barqarorligi sharoitga qarab ular materiallarga duch kelganda ozmi ko‘pmi sezilarli ma’lum darajada o‘zgartiriladi. Tabiatda yog‘ochtaxta bilan aloqador bo‘lgan 20 turkumlarga xos hasharot vakillari mavjud.

Ular orasida faqat qattiqqanotlilar va ikkiqanotlilarning har biridan 60 tadan oila turla ri zararkunanda sifatida taqsimlangan. Ammo ularning barchasi ksilobiontlar ham bo‘lmasdani, ksilofaglar hisoblanadi. Oxirgisi o‘z navbatida ma’lum bir stadiyalarda taxta bilan oziqlanadigan yemiruvchi komplekslarga ajratiladilar.

Taxta konstruksiyalari va buyumlarida ko‘pchilik ksilofaglar uchun noqulay sharoit tug‘iladi, jumladan qo‘ng‘izlar, faqat ularning bir qismigina nihoyatda kamsu vli oziqlarni iste’mol qiladi. Tuproq bilan bog‘lanmagan, doimiy gigroskopik namlik darajasidan past bo‘lgan taxta konstruksiyasi va buyumlarida faqat bir qancha guruh qo‘ng‘izlarigina: ayrim mo‘ylovdor qo‘ng‘izlar, parmalovchilar, yog‘och-taxta kemiruvchilar mo‘ynali turlarigina rivojlana oladi.

Termitlar(Isoptera) mayda yoki o‘rta o‘lchamli, odat yorug‘likdan o‘zini olib qochadigan va yerda, yog‘och yoki kartonsimon materiallardan uya qurib, oila hosil qilib yashovchi hasharotlardir.Boshqa jamoa hosil qilib yashovchi hasharotlar singari, uyadagi jamoa to‘dasi bir xil emas. Ammo jamoa hosil qilib yashovchi pardasimon qanoltilardan polimorfizmidan, termitlar chala o‘zgarish hisobiga rivojlanadilar va nafaqat to‘liq rivojlangan imagolik shaklida, balki jinsiy voyaga yetmagan individlari ham faollik ko‘rsatadilar. Quyida termitlarning turlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Katta kaspiy orti termiti (*Anacanthatermes ahngerianus Jacobs*), turkiston termiti tarqalgan xududilarda ham uchrab shimoliyg‘arbdan kirib borib undan ham narida uchraydi. Arealning sharqiy qismida uchrab o‘z o‘rnini turkiston termitiga bo‘shatib beradi. Uning katta tig‘iz uyalari qurigan o‘simliklarga boy bo‘lgan tuproqli tekisliklarda uchraydi. Katta kaspiy orti termiti turli xil sho‘radoshlar (*Salsoleta Sp.Sp.*) bilan siyrak qoplangan taqirsimon tuproqli tekistliklardan hamda shuvoqlar (*Artimesia turanicae*) yantoqzor (*Alhogieta rersarium,*) yulg‘unzor(*Tamariceta Sp.Sp*), saksavulzor (*Haloxyleta persici*), (*Haloxyleta aphylli*), cherkez (*Salsoleta richterii*), astragal (*Astragaleta Sp.Sp*) va ferula (*Feryleta Sp.Sp*) singari o‘simliklar o‘sadigan past-balandliklardan iborat qumliklarda ham uchraydi.

Oliy termitlarning *Amitermes rhizophagus Bel.* va *Microcerotermes turkmenicus Lupp.* turlari Turkmaniston Respublikasi xududlarida kamdankam (siyrak) uchrab, katta miqdoriy songa erishmaydilar, shu munosabat bilan garchand bu turlar qurilishlarni yog‘och elementlari bilan oziqlansalarda, ammo sezilarli zarar yetkazmaydilar.

Sariq bo‘yin termit (Kalotermes flavigollis Fabr) Kavkaz Qora dengiz sohilida uchrab qurigan daraxt yog‘ochini chiritishda va o‘rmonda sanitar vazifasini bajaruvchi kamsonli tur hisoblanadi. Ammo keyingi yillarda kurort xududlarida bog‘-park daraxtlarining zararkunandasi sifatida qayd etilgan. Yorug‘likdan qo‘rquvchi termit (Reticulitermes lucifugus Rossi) Ukrainianing janubi, Ozerbayjon va Armeniyada eski daraxt to‘nkalari, quriyotgan daraxtlar, yarim butalar, butachalar va ko‘p yillik o‘simpliklarning asoslariga uya quradi. Tuproqdagagi yashash kameralarining chuqurligi 50 sm oshmaydi. Ko‘pchilik termitlar-ksilofaglardirlar. Ular yog‘och bilan oziqlanishida va oziqaning hazm bo‘lishida zamburug‘lar, bakteriyalar va ixtisoslashgan soda hayvonlar ishtirok etadilar.

Zamburug‘lar ko‘pchilik termitlar uchun muhim oziqa komponenti hisoblanadi. Bundan tashqari yog‘ochda qo‘ng‘ir chirishni keltirib chiqaradigan ko‘pchilik bazidio-mitsetlar, yog‘ochning kimyoviy tarkibini o‘zgartirib, termitlar klechatka va ligninni o‘zlashtirishlarini bir mucha yengillashtiradilar. Bunday yog‘ochlar bilan termitlar b ir mucha yoqtirib oziqlanadilar va bunda ular yaxshi rivojlanadilar.

Xulosa qilib aytganda termitlar hasharotlar olamida oziqlanishi, zararlilik darajasi bilan ajralib turadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Biozararlanish asoslari: Oliy o‘quv yurtlar biologiya mutaxassisligi uchun o‘quv qo‘llanma. А.Ш.Хамраев, Б.А.Хасанов, З.И.Иzzатулаев ва б.к.: А.Ш.Хамраев таҳрири остида.-Тошкент:-2008 й.
2. Normatov A., qizi Tuychiyeva X. Z. SHIRALARING YASHASH TARZINING XILMA-XILLIGI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 278-281.
3. qizi Tuychiyeva X. Z. FARG ‘ONA VODIysi SHAROITIDA IQLIMLASHTIRILGAN DARAXTLAR BIOEKOLOGIYASI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 147-150.

4. Normatov, A., & qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). SHIRALARING YASHASH TARZINING XILMA-XILLIGI. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 278-281.
5. Tuychiyeva, X. (2023). YAPON SAFORASI (SOPHORA JAPONICA L) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(8).
6. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). O ‘SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 33-39.
7. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023, January). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. In *international conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 378-380).
8. Abdurahim, N. (2023). The Technology of Growing Sophora Japonica L. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(5), 128-133.
9. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). FARG ‘ONA VODIysi SHAROITIDA IQLIMLASHTIRILGAN DARAXTLAR BIOEKOLOGIYASI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 147-150.
10. qizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2023). ANTROPOGEN MUHIT OMILLARI VA ULARNING HASHAROTLARGA TA’SIRI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 296-273.

## VERBALIZATION OF THE "COLOR" CONCEPT AS AN EXAMPLE OF POETRY PIECES

**Tursunova Navrozakhan**

Student of KSPI

### **ANNOTATION**

*In this article, comments on the linguistic and cultural concept studied in the framework of linguo-cultural studies are presented. Various color concepts are discussed. The meanings of the colors involved are explained through examples.*

**Key words:** concept, understanding, linguistic culture, lexeme, association, frequency.

Currently, along with all fields, the science of linguistics is developing more and more. In world linguistics, before the text was approached from a syntactic structural point of view, since the 21st century, the analysis by means of linguocultural, linguocognitological, sociolinguistic and psycholinguistic principles has increased.

It is known that the term "concept" was used in linguistics for the first time in S.N. Askoldov's article "Concept and word" written in 1928. [1;62] Concept is a copy of the Latin word *conceptus* - "notion". The concept has two aspects. On the one hand, culture enters the mental world of a person in the form of a concept, on the other hand, a person enters the culture with the help of a concept and sometimes influences it. While this term was used in linguistics as a synonym for the word concept until the 80s of the last century, today it can be seen that its interpretation has expanded compared to the term concept. [2;44] Among the many definitions given to the concept in Russian linguistics, the definition put forward by V.A. Maslova was evaluated by Professor N. Mahmudov as a more accurate reflection of reality. According to him, the concept "is a semantic structure in which linguistic and cultural identity is recorded

and which describes the owners of a certain ethno-culture in one way or another." Professor N. Mahmudov writes about the study of concepts in linguistic and cultural studies: "In linguistic and cultural studies, a lot of attention is paid to the problems of expression of the concept, when you get acquainted with the Internet materials, for example, you can see that this direction is extremely widespread in linguistic studies in Russia it is possible, it is difficult to enumerate the works in this regard". [3;9] So, the concept is considered the most actively used unit in linguistic and cultural studies. The concept as a linguistic and cultural unit expresses the unique aspects of the culture of this or that nation. [2; 45] Let us dwell on the concept of "color" that represents such aspects.

The lexeme of color (f. - hue, color, paint) is a substance used for painting; represents the meaning of paint. There are different colors from nature, and each of them served to perform a certain task in the works of representatives of classical literature. Various forms of the concept of colors are reflected in the works of Zahiriddin Muhammad Babur. For example:

*Tell me, if you see a weak branch in the flower,*

*If you miss the yellow grape, you will see the leaves of the garden. [5;116]*

The yellow lexeme involved in the given stanza means the meaning of the color of things like straw, silk, and gold. [4;482] In classical literature, this color has been used since ancient times to express the state of being in love. It is known that the state of a person suffering from a disease can be felt through his appearance and face. Yellowing of the face means that a person is not well and is a sign of illness. Also, referring to Khazan by means of yellow color has increased the power of meaning. The concept of yellow is associated in this way in the works of representatives of classical literature. There are many ghazals using this lexeme in Babur's works.

*My face is as yellow as blood.*

*Bahar range, bihamdillah, ulusdin I saved myself. [5;118]*

In the following stanza, he used the yellow lexeme to mean that he is in a bad state of being in love and that he is suffering from an illness. Through this, the artist was able

to more clearly reflect the sufferings of a lover. In this example, the meaning of "a face as yellow as a fox" is embedded in the content of the stanza. This association of the color yellow can be felt in the consciousness of the Uzbek people through the proverb "If your motherland is safe, your color will not be straw." Because folk proverbs are the means of summarizing the cultural life and lifestyle of this nation.

*He has a black eye and a dimple*

*It's a mistake to blame someone else.[5;13]*

The lexeme "black" in the old Uzbek language is distinguished by its polysemy and frequency of use compared to other adjectives denoting color. Historically, the meaning of this word has expanded. In Turkish, the word black means "big", "big", "magnificent", "great", "powerful", "strong", "pure", "pure", "land", "earth", "darkness". "ki", "north" expressed such meanings. In Navoi's works, the concept of black includes the concepts of black balo (disaster), black soul (suffering soul), black pain (black disease), black money, black grief, axtar black (unhappiness), and bird. there is [6;91] In Babur's ghazal, the lexeme of black was connected to the lexeme of eye, forming the combination of black eye, and thereby reflecting the meaning of lover. Black color is associated with the meaning of lover.

*My head was full of smoke, jealousy, and black hair.*

*Let's get on your feet, you sarvinoz. [5;18]*

The concept of black in this stanza embodies various meanings. Combined with the lexeme of hair, it means black hair, i.e. yor, and combined with the lexeme of smoke, it means the blackness of the smoke coming out of jealousy, as well as the meaning of black hair. He associated three different meanings in one place.

*Make me spit with anger and anger!*

*May the sea be deprived of your grace!*

*O Lord, look at my face and make it white.*

*Whatever you like, do it! [5;59]*

Black and white colors are used in a contrasting sense in the rubai written by Babur. The contradiction in the concepts of these two colors is embedded in the content

of a person with good qualities and a person with bad vices. The concept of black color is associated with the meaning of a sinful servant, and the concept of white color is associated with the meanings of a righteous servant, free from guilt and mistakes.

*Your white face fell far away,*

*My two eyes turned white.*

*Your mouth is so sad that I am scolded,*

*I will walk without dying, I will not die.[5;90]*

The white spot taken from the given example was used in two places and created a homonym. The artist has associated the meaning of beauty on earth under the concept of white color used in the first stanza, while in the second stanza he has reflected the meaning of disease that is visible through the concept of white color. Whiteness in the eye, leukoma - clouding of the cornea; usually, it is observed when the membrane is damaged or when inflammation, wounding process appears in it. This disease limits the ability to see.

In short, the notion of a concept is a unit that can summarize a number of meanings. The concept of various colors in nature associates new meanings depending on the situation of use and the artist's skill. In addition to being an active unit of linguistic culture, the concept reflects the culture and mentality of peoples.

### **References:**

1. Bakhronova D. Concept and conceptosphere in the description of the linguistic landscape of the world "Foreign Philology" 2019.
2. Sh. Usmanova Lingvokulturologiya T.: 2019
3. N. Mahmudov Searching for ways of perfect study of the language... Uzbek language and literature "Fan" T.: 2012
4. Explanatory dictionary of Uzbek language T.: "Uzbek national encyclopedia" 2006

5. Zahiriddin Muhammad Babur library [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
6. N. Umarova Linguistic-conceptual study of Alisher Navoi's works (DSc) Fergana 2021
7. G.U. Jumanazarova Fazil Yoldosh's linguopoetics of the language of epics (lexical-semantic, linguostylistic analysis). Philol. Science. Doc. (DSc) dis – T.: 2017
4. D. Khudoyberganova. Brief explanatory dictionary of linguistic and cultural terms. T.: "Turan zamin ziya" 2015 p. 21
8. M. Yoldoshev. Secrets of the word "Cholpon". T.: "Spirituality" 2002
9. Alimovna, Usmonova Sofiya, and Juraeva Ramziya Abdurahimovna. "THE PLACE OF ETHNOTOPONYMS IN TOPOONYMY." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 300-303.
10. Abdurakhimovna, Joraeva Ramziya. "Lexical-Semantic Features Of Muqimi's Works." Journal of Positive School Psychology (2022): 138-144.
11. Madalievna, Iskandarova Sharifa, and Juraeva Ramziya Abdurahimovna. "The Analogies Used in Mukimi's Works." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 9 (2021): 95-99.

**PEDAGOG XODIMLAR MEHNATINI SAMARALI  
RAG‘BATLANTIRISHNING TA’LIM SIFATI OSHISHIGA IJOBIY TA’SIRI**

**Yaratov Jamil Vasilovich**

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning zaruriy sharti o‘qituvchilarning ta’lim darajasini oshirish va ta’lim tizimining talablariga javob beradigan pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirishdir. Ushbu muammoga e‘tibor kuchayishi munosabati bilan o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun barqaror motivatsiya masalasi paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham mакtabda eng iqtidorli o‘qituvchilarni saqlab qolish, maktablarni zamonaviy sharoitlarda ishlashga qodir yangi kadrlar bilan to‘ldirish uchun moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimini belgilash zarur. Hozirgi vaqtda o‘qituvchilarni samarali faoliyatga rag‘batlantirish, ularning ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mehnatni rag‘batlantirish – mehnat faoliyatida belgilab qo‘yilgan ish natijalari va sifatidan yuqoriq ko‘rsatkichlarga erishganlik uchun xodimning muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarini yaratishdir<sup>1</sup>.

2021-yilda TALIS xalqaro tajriba mezonlari asosida A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma’lumot to‘plash maqsadida respublikamizdagi 4000 ta umumiyl o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 12 500 nafarga yaqin respondent (pedagog)lar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, qo‘srimcha moliyalashtirish imkoniyati bo‘lganda, 72 foiz o‘qituvchilar o‘z maoshlarini oshirilishini muhim deb hisoblaganlar<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> К.Абдураҳмонов, Н.Зокирова. Мехнат иқтисодиёти ва социологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013. 308-бет

<sup>2</sup> TALIS Xalqaro tajriba mezonlari asosida A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan umumiyl o‘rta ta’lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma’lumot to‘plash maqsadida o‘tkazilgan tadqiqot hisoboti. O‘zbekiston Respublikasi

Maktab ta’lim sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillarning ahamiyatini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoramizda 4 754 nafar pedagoglar qatnashgan.

So‘rovnomada ishtirok etganlarning 1452 nafari (30,5 foiz) erkaklar, 3302 nafari (69,5 foiz) ayollar, **yoshi bo‘yicha** 205 nafari (4,3 foiz) 20-25 yoshda, 443 nafari (9,3 foiz) 26-30 yoshda, 1752 nafari (36,8 foiz), 1414 nafari (29,7 foiz) 40-50 yoshda, 831 nafari (17,5 foiz) 50-60 yoshda, 109 nafari (2,3 foiz) 60 yoshdan oshgan, **pedagogik ish staji bo‘yicha** 686 nafari (14,5 foiz) 5 yilgacha, 672 nafari (14,1 foiz) 5-10 yil, 1411 nafari (29,7 foiz) 10-20 yil, 1292 nafari (27,2 foiz) 20-30 yil, 692 nafari (14,6 foiz) 30 yildan ortiq, **malaka toifasi (lavozimi) bo‘yicha** 1070 nafari (22,5 foiz) mutaxassis (oliy ma’lumotli o‘qituvchi), 1163 nafari (24,5 foiz) ikkinchi toifali (katta o‘qituvchi), 1346 nafari (28,3 foiz) birinchi toifali (etakchi o‘qituvchi), 1012 nafari (21,3 foiz) oliy toifali (bosh) o‘qituvchilar, 163 nafari (3 foiz) boshqalar (direktor, psixolog)dan iborat.

Ishtirokchilarga “**Sizningcha, umumiyo‘rtta ta’lim sifatiga qaysi omil ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatadi?**”, deya berilgan savolga 1606 nafari (33,8 foiz) ota-onalarning o‘z farzandi tarbiyasiga befarqligi, 1348 nafari (28,4 foiz) pedagoglar oylik maoshining pastligi, 1024 nafari (21,5 foiz) sinflardagi o‘quvchilar sonining normadan ko‘pligi, 357 nafari (7,5 foiz) maktabning sifatsiz moddiy-texnik bazasi, 103 nafari (2,2 foiz) maktabda yuqori (oliy va birinchi) toifali pedagoglar ulushining kamligi yoki yo‘qligi, 98 nafari (2,1 foiz) pedagoglarning ta’limdan tashqari boshqa ishlarga jalb etilishi, 218 nafari (4 foiz) boshqa turli javoblarni berishgan.

**Sizningcha, yuqori malaka (birinchi va oliy) toifaga ega bo‘lishingiz uchun qanday muammo bor?** savoliga ishtirokchilarning 2429 nafari (51 foizi) toifalar uchun to‘lanadigan haqning farqi kam, o‘z ustimda ishlashga arzimaydi, 898 nafari (18,9 foiz) o‘z ustimda ishlashga vaqtim yo‘q, boshqa daromadli ish bilan ham shug‘ullanaman, 432 nafari (9,1 foiz) salohiyatim, bilimim etmaydi,

---

Xalq ta’limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti. 1-qism. 64-bet. Toshkent.

995 nafari (20 foizi) hech qanday muammo yo‘qligi, bilimi, salohiyati yuqoriligi, oliv toifadaligini ma’lum qilgan.

**Sizningcha, quyidagi (rag‘batlar)dan qaysi biri pedagoglarning salohiyati va ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi?** savoliga 2223 nafar (46,8 foiz) ishtirokchilar oliv va birinchi toifali pedagoglarga ko‘proq maosh to‘lash (har bir malaka toifasiga to‘lanadigan maosh miqdori o‘rtasidagi farqni oshirish) javobini ma’qullaganlar, shundan 1484 nafari (66 foizi) oliv va birinchi toifali pedagoglar yoki 1663 nafari (74 foizi) 10 yildan ortiq pedagogik tajribaga ega o‘qituvchilar.

Pedagogik ish staji 10 yilgacha bo‘lgan 1359 nafar ishtirokchilarga berilgan **yuqori malaka (birinchi va oliv) toifaga ega bo‘lishingiz uchun qanday muammo bor?** savoliga 640 nafari (47 foiz) toifalar uchun to‘lanadigan haqning farqi kam, o‘z ustimda ishslashga arzimaydi, 290 nafari (21 foiz) o‘z ustimda ishslashga vaqtim yo‘q, boshqa daromadli ish bilan ham shug‘ullanaman deb javob bergan.

**Shuningdek, ularga berilgan quyidagi (rag‘batlar)dan qaysi biri pedagoglarning salohiyati va ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi?** savoliga 561 nafar (41 foiz) ishtirokchilar oliv va birinchi toifali pedagoglarga ko‘proq maosh to‘lash (har bir malaka toifasiga to‘lanadigan maosh miqdori o‘rtasidagi farqni oshirish) javobini ma’qullaganlar.

Pedagogik rag‘batlantirish - bu motivlar, ichki munosabatlar bilan o‘zaro ta’sir qiladigan, shaxsning real va potentsial imkoniyatlarini amalga oshirish, qulay axloqiy-psixologik muhitda sub’ektivlikni rivojlantirish uchun zo‘ravonliksiz rag‘batlantiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladigan tashqi omillarni (rag‘batlantirishni) maqsadli qo‘llash jarayoni<sup>1</sup>.

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliv va birinchi toifali pedagoglarga ko‘proq maosh to‘lash, ya’ni har bir malaka toifasiga to‘lanadigan maosh miqdori o‘rtasidagi farqni oshirish pedagoglarning salohiyati va ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi, shuningdek, o‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti va barcha pedagoglarda yuqori darajadagi moddiy rag‘batga erishish uchun teng imkoniyat yaratiladi.

<sup>1</sup> Педагогическое стимулирование и его функции. Федорова С.Ю. Хромченкова И.Л.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдураҳмонов Қ., Зокирова Н. Мехнат иқтисодиёти ва социологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013. 308-бет
2. TALIS Xalqaro tajriba mezonlari asosida A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma’lumot to‘plash maqsadida o‘tkazilgan tadqiqot hisoboti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti. 1-qism. 64-bet. Toshkent.
3. Педагогическое стимулирование и его функции. Федорова С.Ю. Хромченкова И.Л. 2020 й.

## ФЕЪЛЛАРНИ СЕМАНТИК ТАМОЙИЛЛАР АСОСИДА ТУРКУМЛАШ

Гулрухсора Абдуллаева Азаматжон қизи

КДПИ магистранти

**Аннотация:** Уибү мақолада феъл сўз туркумига мансуб бўлган сўзлар ўрганилган, феъл, у билдириган маъно йуналиши ва улар алоқага киришган субъект, объект хақида маълумот берилган. Шунингдек уибү мақолада турли олимларнинг феъл классификацияси, тор маъноли бир йуналишили, икки йуналишии каби феъллар хақида хам изоҳ берилган.

**Калим сўзлар:** семантика, тор маъно, атоб, субъект, объект, классификация.

Феъл семантикаси ёки бошқача қилиб айтганда феъл сўз туркумига мансуб сўзларнинг мазмун планини ўрганиш, уни тасвирилаш ва унинг тил системасидаги ўрни ва қийматига баҳо бериш атайн қийин вазифа бўлиб келган. Бунинг боиси феъл мазмуни унинг дистрибуциясига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Шуни эътиборга олган ҳолда биз бу ўринда феълларнинг улар билдириган маъно йуналиши ҳамда улар алоқага киришган субъект ва объектлар бор йўқлиги ва агар бор бўлса, уларнинг микдорига қараб классификация қилишга уриниб кўрамиз.

### 1) Тор маъноли бир йўналишли иш ҳаракатни билдирувчи феъллар.

A) бир субъектли.

To bray, (ҳанграмоқ), (эшак ҳакида)

To neigh (кишнамоқ) (от ҳакида)

B) бир неча субъектли.

To live, to die, to tremble - (одам, ҳайвон, ўсимлик, нарсалар ҳакида)

*В) бир объектли - to flatter "күндиңмок", «унатмок», «эритмок» (аёл кишини), to marry (уйланмок), to rape (номусига тегмоқ, аёл кишига тегишли)*

*Г) бир неча объектли - to wait (кутмоқ), to ignore (эътиroz билдиңмок)*

**2) Икки йұналишлы кам, кенг фарқланадига семантикалы феъллар.**

*A) субъект-обект номли - to fall, to splutter, to crimp, to fly, to drive, to sail ва ҳоказо.*

*Б) объект-субъект номли - to break, to shake, to halt ва ҳоказо*

*В) икки йұналишлы, юқори семантик үтимлилікка әга бўлган феъллар – to take, to put, to set, to make ва ҳоказо.*

**3) Атov вазифасидан ташқари кўрсатиш, (дейктик) вазифасини ҳам бажарувчи феъллар.** Бу ерда кўрсатиш нисбий характерга әга.

Масалан to arrive - етиб келмоқ to depart - жўнаб қетмоқ

Куйида биз йўналтирилган иш- ҳаракатни билдирувчи феъллар лексико семантик гурухини кўриб чиқамиз.

*A) узоқлашашини англатувчи феъллар (verbs of going): to go, to leave  
Б) яқинлашашини билдирувчи феъллар (verbs of coming): to come*

*В) кўтарилишини билдирувчи феъллар(verbs of rising): to rise, to ascend*

*Г) пасайшини билдирувчи феъллар (verbs of descending): to descend*

Маълумки бу классификация феълнинг маъносига кўра қилинган биринчи ёки охирги классификация эмас. Инглиз тили феълларининг маъносига кўра классификациясини О.Есперсен куйидаги тарзда амалга оширди.

Actional verbs (to eat, to breathe, to kill, to speak etc)

Process verbs (to become, to grow, to lose, to die)

Statal verbs (to sleep, to stay, to wait, to live, to undergo)

Mixed or ungrouped verbs (to resist, to hate, to favour)

Кўриб турғанимиздек, Otto Есперсен феълларни тўрт гурухга бўлди.

1.иш-ҳаракатни билдирувчи

2.жараённи билдирувчи

3.холатни билдирувчи

4.гурухсиз ёки аралаш маъноли феъллар.

Бу кенг тарқалган классификацияларидан бири эди. Бундан ташқари феъл семантикасига қараб уни ўтимли-ўтимсиз, чекланган ва чекланмаган, тўсиқли ёки тўсиқсиз, объектив-субъектив, ёрдамчи-боғловчи феъллар каби гурухларда ажратдиларки, уларга бу ўринда асос бўлиб граматик хусусиятлар хизмат килди. R. Lakoff феълларни икки гурухга булди. Статив ва ностатив. (stative-nonstative). Ли феълларни иш ҳаракат феъллари, воеалар ва ҳолатлар гурухларига бўлди. (Actional, Event, Statal verbs) Р. Куирк феълларни икки гурухга бўлди: а)динамик феъллар ва б) ҳолатни билдирувчи феъллар. Бундан ташқари Л.Теньер , У.Чейф ва Н.Д.Арутюнова классификациялари ўзларининг оригиналлиги, чукурлиги, қўламининг кенглиги билан машхурдир.

1) Статик феъллар	5) Фактитив феъллар
2) Динамик феъллар	6) Фазис феъллар
3) Актив феъллар	7) Модал феъллар
4) Ноактив феъллар	8) Модус феъллар
Каузатив феъллар	Перспектив феъллар

Инглиз тили феълларини ҳар томонлама, чукур, уларнинг синтактик ҳамда лексик параметрларини инобатга олган ҳолда яратилган классификация Г.Г. Сильницкийга мансуб. У семантической классификации назариясини ишлаб чиқди. Унинг фикрича, ўша ички дистрибуцияси феъллар мантиций-моддий мазмунини тузади ва улар перифрастик йўл билан ифода қилинади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Jesperson O. The Philosophy of Grammar. London 1935.;Jesperson O. A Modern English Grammar p 1, 1909-1954, 5, 560. London-Copenhagen.; Jesperson O. Essentials of English Grammar. N.U. 1939, p 66-69.
2. Lakoff R. Passive resistance. -In:Papers from Regional meetings of the Chicago Linguistic Society. Chicago University, 1971, N, pp. 149-162
3. Quirk R., Greenbaum S. a.o. A Grammar of Contemporary English. Lnd.. Longman, 1972. -1120 p.: Quirk R., Greenbaum S. A University Grammar of the English Language. -Lnd., Longman.1975,-358
4. Гак В.Г Сопоставительная лексикология М.1977.193 б.: Гак В.Г.Семантическое структура слова как компонент семантической структуры высказания -В. кн:Семантическая структура слова -М.Наука 1971,с 230-239.
5. Силницкий Г. Г. Семантические и валентностные классы английских каузативных глаголов. - АКД, - Л., 1974. -44 с.

**YOSH SPORTCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONIDA PSIXOLOGIK  
MASHQLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI VA UNING NATIJAGA  
TA'SIRI**

**Ikramov Amirbek Aminovich**

Buxoro Davlat Universiteti Pedagogika Instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va  
uslubiyoti kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD),

**Luqmonov Subhonjon Shavqiddin og'li**

[subhonjonluqmonov@gmail.com](mailto:subhonjonluqmonov@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada sport o'yinlari, ayniqsa, futbolda sportchilar uchun psixologik tayyorgarlikning ahamiyati va uni natijaga ta'siri yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** jismoniy tayyorgarlik, psixologik holat, psixologik tayyorgarlik, musobaqa oldi tayyorgarlik, yosh sportchilar.

**ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ  
УПРАЖНЕНИЙ В ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ ЮНИХ  
СПОРТСМЕНОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЕЗУЛЬТАТ.**

**АННОТАЦИЯ**

*В этой статье подчеркивается важность психологической подготовки спортсменов к спортивным играм, включая футбол, и ее влияние на результаты.*

**Ключевые слова:** физическая подготовка, психологическое состояние, психологическая подготовка, предсоревновательная подготовка, юные спортсмены.

## THE IMPORTANCE OF THE USE OF PSYCHOLOGICAL EXERCISES IN THE TRAINING PROCESS OF YOUNG ATHLETES AND ITS IMPACT ON THE RESULT

### ANNOTATION

*This article highlights the importance of psychological training for athletes in sports games, in particular football, and its impact on result.*

**Keywords:** physical training, psychological condition, psychological training, pre-competition training, young athletes.

Prizidentimiz Shavkat Miromonovich tomonidan jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratilmoqda Shu o'rinda, Respublikamizda sportning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilayotganligi hamda buning har tomonlama mukammal qonuniy va tashkiliy asoslari yaratilganligi tufayli sport talaba yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi, ularni jismoniy hamda ma'nан barkamol etib tayyorlash borasida asosiy omilga aylanib borayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, O'zbekiston sport turlari bo'yicha terma jamoalari tarkibini shakllantirishda shaffoflikni ta'minlash, ularning tarkibiga iqtidorli sportchilarni saralash (seleksiya) metodologiyasini yaratish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son va O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmonlari qabul qilindi. Bu qonun va qarorlar yurtimizdagi sportni rivojlanishida asosiy manbalar bo'lib xizmat qilmoqda.

Yurtimizda istiqlol sharofati bilan O'zbekiston sportchilarida ma'naviy yuksalish ham yaqqol ko'zga tashlandi. Jahon miqyosida o'tkazilgan musobaqlarda xususan,

so‘ngi Rio hamda Tokioda o‘tkazilgan Olimpiada o‘yinlarida vakillarimizdan Shahobiddin Zoirov, Murodjon Ahmadaliyev, Bahodir Jalolov, Ulug‘bek Rashitov, Ruslan Nuriddinovlar ishtirok etishi va olimpiada chempioni bo‘lishi muhim voqeа bo‘ldi. Keyingi yillarda O‘zbekiston juda ko‘p mahoratli sportchilar yetishib chiqdi. Bu albatta, o‘z-o‘zidan bo‘lgan emas. Buning zaminida o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, yuqori darajadagi madaniyati, pahlavonlari, qahramonlari va go‘zal an’analarining ta’siri bor.

Barcha sport turlarida psixologik omillar (ruhiy holat) ijobiy natijaga erishishda muhim ahamiyatga ega. Mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki ko‘plab psixologik omillar (ijobiy shaxsiyat, motivatsiya, ishonch, e’tibor, idrok va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash) malakali sportchilarni stress omillarining mumkin bo‘lgan salbiy ta’siridan himoya qiladi va shunday qilib, optimal sport ko‘rsatkichlariga erishish uchun yordam beradi.

Garchi oxirgi yillarda, sport psixologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar doirasi kengayganligiga qaramay, bolalar sportidagi psixologik tayyorgarlik hali yetarli darajada keng yoritilmaganligi hammaga ayon.

Murabbiylar ko‘pincha mashg‘ulot muhitida bolalarning jismoniy muammolarni tuzatish, ularni musobaqaga jismoniy, texnik va taktik tayyoylesh masalalarini birinchi o‘ringa qoyadilar. Yosh sportchilarning psixologik holatlari va ularni rivojlantiruvchi mashlar umumiy mashg‘ulot jarayonida deyarli foydalanilmaydi.

Lekin ularning psixik xolati va ularning optimal ruhiy holatga erishish jarayoni psixoogik tayyorgarlik jarayonining asosiy elementlari hisoblanadi.

Ba’zi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki katta yoshdagi malakali sportchilarning sportga xos psixologik tayyorgarligi bilan yosh sportchilar psixologik tayyorgarligi bir biridan katta farq qiladi.

Lekin yosh sportchilarning ruhiy, emotsiyal va psixologik tayyorgarligi xuddi katta yoshli sportchilar singari natijaga katta tasir ko‘rsatishi aniqlangan. Ko‘pgina musobaqalar bilan bog‘liq ko‘plab chalg‘itadigan narsalar va o‘ziga xos holatlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati yosh sportchilarga tanish emas. Murabbiylar va ota-

onalar maksimal samaradorlikni oshirish uchun ruhiy, emotsiyal va psixologik tayyorgarlikka yordam berishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Bu ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bolalar sportida psixologik tayyorgarlikning o‘rni katta sportdagidek muhim va samaradorlikni oshirishdagi yetakchi omil.

Musobaqa oldidan sportchilarni o‘z ish faoliyatini boshqarishni o‘rganishlari va aqliy tayyorgarlikning maqbul darajasini yaratishlari uchun aqliy vositalar bilan ta’minlash muhimdir. Maqsadni belgilash, tasvirlash, fikrni boshqarish va hissiyotlarni nazorat qilish kabi strategiyalarni ushbu elementlarni sportchining mashg‘ulotlari va kundalik ishlariga kiritadigan amaliy mashqlar orqali o‘rganish mumkin. Keyin sportchilar ushbu vositalardan o‘zlarining shaxsiy tartiblari va musobaqalarga ruhiy tayyorgarligiga erishish uchun rejalarini ishlab chiqish uchun foydalanishlari mumkin. Ushbu rejalar musobaqadan oldingi bosqichda, sportchilar katta musobaqalargacha bo‘lgan mashg‘ulotlar va boshqa kichik turnirlar va musobaqalar bilan shug‘ullanayotganda qo‘llashlari va tuzatilishi mumkin.

Sportchilar va murabbiylar, shuningdek, o‘zlarining chiqishlari davomida yuzaga keladigan qiyin va kutilmagan hodisalar uchun bolalarning psixologiyasiga ijobiy tasir etadigan mashqlar va testlar strategiyalarini ishlab chiqishni o‘rganishlari kerak. Bu esa yosh sportchilarning faqat emotsiyal holatiga tasir etibgina qolmay uning musobaqalardagi natijariga va kelajak karyerasiga ham tasiri mavjud.

Shulardan kelib chiqib, murabbiylar qilishi kerak bo‘lgan ishlar ya’ni o‘quv mashg‘ulotlarida psixologik mashqlarni kiritish borasida bir nechta takliflarni berish mumkin.

- Sport mashg‘ulotlari davomida bolaning ruhiy holatini kuzatish
- Mashg‘ulot davomida turli xil aqliy hujum mashlarini o‘tkazish va bu jarayonda yosh sportchilarning qarshi reaksiyasini o‘rganish
- Psixologik mashlarda salbiy natija ko‘rsatgan sportchilarni nazoratga olib ularda psixologik mashlar o‘tkazish

- Musobaqa oldi jarayonlarida yosh sportchilarning ruhiy holatini aniqlayigan testlar o‘kazish

Yakuniy taklif qilib shuni aytish mumkinki, musobaqa davomida jismoniy va ruhiy tiklanish va tiklanish uchun keng imkoniyatlarni yaratish zarur. Dam olish uchun aniq strategiyalarni ishlatalish kerak. Kitob o‘qish, musiqa tinglash, meditatsiya - bu aqliy tanaffuslar qilish va ong va tanani qayta tiklash uchun ishlataladigan strategiyalarning bir nechta misolidir. Ba’zi musobaqalar bir necha kun davom etishi mumkin. Bunday hollarda, uzoq vaqt davomida barqaror energiya darajasini saqlab turish uchun butun davr davomida his-tuyg‘u va hayajonni boshqarish juda muhimdir. To‘g‘ri tiklanish ham tegishli tanlovlardan bilan bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, optimal tarzda aqliy tayyorgarlik ko‘rish uchun asosiy narsa musobaqa uchun aniq maqsadga ega bo‘lish, shaxsiy rejalar va tayyorgarlik strategiyalariga rioya qilish, ayni damda dam olish va chalg‘itadigan narsalarning ta’sirini minimallashtirishdir. Qiyinchiliklarga qaramay, ijobjiy va optimistik bo‘lib qolish va har kuni his-tuyg‘ularni boshqarish raqobat kelganda katta o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qo‘srimcha strategiyalardir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagagi “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shahrida o‘tkaziladigan **XXXII** Olimpiya o‘yinlari va **XVI** Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash haqida”gi PF-2821-sон farmoni.
2. Rasulov.Z.O“Sportda musobaqadan oldingi holatning umumiy psixologik tavsifi”. Dissertatsiya. 2013-yil.
3. V.R.Valkin L.Rogaleva “Emotional intelligent rating in physical education institute coach and student”. Dissertatsiya. 2018.
4. sportmedbc.com

## BOBUR DEVONINING TUZILISHIGA DOIR MULOHAZALAR

**Juraboev Otabek**

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktor o‘rinbosari,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

[atabekrj@gmail.com](mailto:atabekrj@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) qalamiga mansub she’rlar to ‘plami – devonning tuzilishi bilan bog’liq ayrim masalalar qalamga olingan. Jumladan, Boburning devoni sharq mumtoz devonchiligi an’analari asosida tuzilmagani va shunga doir muallifning o‘z qarashlari ta’kidlangan hamda shoir asarlaridan misollar keltirilgan holda mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Bobur, she’r, ruboiy, devon, qo’lyozma, matn.

## CONSIDERATIONS ON THE STRUCTURE OF BABUR’S DIVAN

**Juraboev Otabek**

Deputy Director of the State Literature Museum named after Alisher Navoi of the Republic of Uzbekistan, candidate of philological sciences, associate professor.

[atabekrj@gmail.com](mailto:atabekrj@gmail.com)

**Abstract.** In the article, a collection of poems written by Zahiriddin Muhammad Babur (1483-1530) - some issues related to the structure of the divan - were written. In particular, the fact that Babur’s divan is not based on the traditions of Eastern classical divan, and the author’s own views on this are emphasized, and comments are made with examples from the poet’s works.

**Keywords.** Babur, poem, rubai, divan, manuscript, text.

Mumtoz adabiyotda sohibi devon bo‘lish shoirdan katta mas’uliyat va iste’dod talab etadi. Devon tuzish ko‘p asrlik an’analarga egaki, ana shularni o‘zlashtirgan shoirgina bu ishga qo‘l ura olardi. O‘z davrida Zahiriddin Muhammad Boburning bu masalaga qarashi juda ham qiziq bo‘lgan. Aytish mumkinki, u bu boradga original yondashuvga ega ijodkor. Biroq, Boburning she’r tuzilishi, jumladan aruz haqida maxsus ilmiy asari va unda aruz ilmiga oid nazariy qarashlari bo‘lgani holda devon tuzilishi borasidagi ilmiy qarashlari aks etgan to‘la yozmalari bizga ma’lum emas. Lekin, uning bitiklari orasida bu masalaga bag‘ishlangan ayrim o‘rinlar borki, ular orqali muallifning bu borada ham mukammal bilimga ega ekanligiga shohid bo‘lamiz. Bir ruboysiда u shunday yozadi:

*Devonima ne rabtu ne tartibedur,  
Ne jadvalu ne lavhu ne tazhibedur.  
Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim,  
Devoningni tilarga taqribedur.*

“Boburnoma”ning bir o‘rnida esa Samarqand hokimi “Fo‘lod Sultonga devonimni yibordim” deb yozadi. Bu voqeа milodiy 1518 yilga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra, Bobur o‘z devonini dastlabki qoralamalariga shu vaqtda tartib bergen, deyish mumkin.

Aslida, yuqorida keltirilgan ruboiy qachon yozilgan? 1518 yildan oldinmi, keyinmi? Bobur o‘z devoni badaliga kimdan yana devon “tilamoqda”? Nega devonining kamchiliklarini sanayapti va ular qanday “ayb”?

Haqiqatan, bir to‘rtlik shuncha savol tug‘diradimi?! To‘g‘ri, ularning hammasiga ham javob topish hozirda juda mushkul. Ayniqsa, kimga yo‘llangani borasidagi so‘roq, toki biror manba aniqlik kiritmas ekan, ochiq qolaveradi.

Biroq, diqqat qilinsa, avvalo, Bobur o‘z she’riy to‘plamini an’anaviy mumtoz devonchilik qolipiga batamom solishga ulgurmaganini ta’kidlamoqda. Va bu ruboiy 1518 yil, ya’ni dastlabki she’r to‘plami Fo‘lod Sultonga yuborilgandan so‘ng bitilgan.

Bu fikrga kelishimizga esa sabab bor.

Avvalo, ushbu ruboiy matni shoir devoni qo‘lyozmalarining uch nusxasidagina

keladi. Ular İstanbulda saqlanayotgan qo‘lyozmalardir (İstanbul Üniversitesi kütüphanesi No: 3743, Topkapı Sarayı Revan kütüphanesi no: 2314, İstanbul 100. Yıl Atatürk Kitaplığı (Belediye Ktb.) Muallim Cevdet yazmaları K. 332). Ikkinchidan, bu manbalarning birinchisi – İstanbul Universitetidagi nusxa Bobur devonlarining eng ko‘p she’r yig‘ilgani hisoblanadi (yuqoridagi ruboiy esa qo‘lyozmaning 67<sup>b</sup>-68<sup>a</sup> varaqlaridan o‘rin olgan). Qolaversa, aynan shu nusxa keyingi ikki manba uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Masala shundaki, Bobur devonlarining eng mo‘tabarlari hisoblanmish Rampur (India, Rampur Library of Risa, №19) va Parij (Paris, Bibliotheque Nationale, Suppl. Turc. 1230) nusxalarida bu ruboiyning yo‘qligi, uning keyinchalik – shoir umrining oxirgi yillariga (1520 yildan keyin) doir ekanligiga dalolat qiladi. Chunki, ta’kidlangan universitet nusxasi tuzilish jihatidan devon tartib berish uchun yig‘ilgan Bobur she’rlari jamlanmasini eslatadi va uning kitob qilinishi ham XVI asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

Yana bir muhim tarafi shuki, Bobur ushbu ruboiysida aynan devon tuzilishining muhim unsurlari haqida eslatadi. Ya’ni, bu o‘rinda muallif tarafidan devonchilikning shakliy va nazariy asoslariga xizmat qiluvchi unsurlar qisqacha bo‘lsa-da ta’kidlab ketilmoqda.

Demak, Bobur nazdida, devonning shakliy jihatdan to‘la-to‘kis bo‘lmog‘i uchun quyidagilar ijob etishi zarur:

1. **Rabt.** Bu istiloh “aloqa” va “tizim” ma’nosida keladi. Bunga ko‘ra devonning ichki strukturasida intizom, ya’ni o‘zaro bog‘lanish bo‘lmog‘i kerak. Ya’ni, dastlab *debocha* bo‘lishi so‘ngra *hamd*, *munojot* va *na’t* tipidagi she’rlar o‘rin olishi;

2. **Tartib.** Bu istiloh ma’nosи ma’lum. Faqat, bu borada shoir devondagi alifbo va janrlar tartibi – ketma-ketlikni ko‘zda tutmoqda;

3. **Jadval.** Bu istiloh Sharq kitobatchilik san’atida ko‘p qo‘llaniladi va muhim hisoblanadi (“jazval” shaklida ham keladi). Jadval – Sharq kitobat san’atida eng ko‘p ishlataladigan badiiy bezaklardan biri. U oddiy, nafis va zarhal bo‘lishi

mumkin. Qo‘lyozmaning bir sahifasidagi matn atrofiga alohida jadval yoki har ikki sahifadagi matn atrofiga yaxlit bir jadval tortiladi. Bir sahifada matn bir necha ustundan (asosan she’riy asarlar) iborat bo‘lsa, har bir ustun bir-biridan jadval chiziqlari bilan ajratib qo‘yiladi. Devonlarda, bayozlarda har bir she’r ham jadvalga olinadi. Qo‘lyozmadagi sarlavhalar va rasm (miniatyura)lar ham jadval bilan ajratiladi. Oddiy jadval matn atrofiga tortilgan ko‘pincha bir yo‘lli qizil rangdan; nafis jadval juda ingichka va bir necha ranglardan tashkil topgan ikki, uch, hatto to‘rt yo‘ldan; zarhal jadval oltin suvi berilgan bir yoki bir necha yo‘ldan iborat bo‘ladi;

4. **Lavh** (*lavha*). Bu istiloh ham keng qo‘llaniladi. Bu so‘z o‘zi ifoda etayotgan predmetlarga nisbatan bir-necha mazmunni ifoda etadi. Lekin bu o‘rinda, Sharq kitobat san’atidagi asosiy badiiy bezaklardan biri sifatida kelmoqda. Lavha qo‘lyozmaning boshida, agar qo‘lyozma kitobning tarkibiga bir necha asar kirgan bo‘lsa, har bir asarning avvalida, ba’zan esa bob va fasllarning boshlanishida ham ishlanishi mumkin. Lavha matn boshlangan sahifaning yarmi yoki uchdan bir qismida eni bo‘ylab chizilgan naqshdan iborat bo‘ladi. XIV-XVI asrlar Sharq kitobat san’atida lavha asosan tillo suvidan ishlangan. XVII-XIX asrlar qo‘lyozma lavhalari ko‘proq oddiy bo‘yoqlardan iboratligi bilan ajralib turadi.

5. **Tazhib**. Bu istiloh ham qo‘llanilishiga ko‘ra qadim kitobatchilikda faol bo‘lgan. Tazhib – qo‘lyozmalarni zarhallaş, oltin suvi bilan bezatishdir. Qo‘lyozma bezaklaridan ko‘pincha zarvaraq, qo‘shzarvaraq, unvon, lavha, naqsh, jadval oltin suvi bilan yaltiratilgan. Ba’zi qo‘lyozmalar sahifasining hoshiya qismiga oltin suvi sepib (purkab) ziynatlangan. Bunday hoshiya tazhibi hoshiya, deb atalgan.

Diqqat etilsa, Bobur mazkur besh istilohni devonning tugal bo‘lishi va o‘quvchi qo‘liga yetib borishi uchun muhim yoki yetarli hisoblamoqda. Ruboioyning keyingi ikki misrasiga qaralsa, “*Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim*” deya agar beshta devon unsuri – “*rabit*”, “*tartib*”, “*jadval*”, “*lavh*” va “*tazhib*” bo‘lmasligini ayb etmaslikni so‘ramoqda.

O‘z navbatida buning sababi sifatida esa “*Devoningni tilarga taqrurbedur*” deya asos keltirilmoqda. Ya’ni, u mazkur ruboiyni boshqa bir qalamkash-shoir – devon tuzuvchiga yo‘llamoqda va o‘zining hali tugallanmagan devonini jo‘natib, buning badaliga uning to‘plamini so‘rab olish istagidadir.

Anglashiladiki, Bobur devoni daragi va dovrug‘i hali to‘la tartib bermasdan ham mashhur bo‘lgan. Uni muallifning o‘zidan so‘rab olib o‘qiguvchi muxlislar, oxirigacha-mukammal tarzda bo‘lmasa-da, tezroq bahramand bo‘lish niyatida o‘zidan iltimos qilib olib turishgan.

Boburning ruboisiidan devon tuzilishi bilan bog‘liq holda quyidagicha nazariy xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Dastlabki ikki istiloh – “*rabit*” va “*tartib*” devonning matn tuzilish strukturasi bilan bog‘liq bo‘lsa, “*jadval*”, “*lavh*” va “*tazhib*” devonning ko‘rinish, ya’ni badiiy kitobat bezagi bilan bog‘liq ravishdagi atamalardir.

Demak, devon (she’rlar to‘plami) matn nuqtai nazaridan qat’iy ichki tartibga (alifbo harflarining ketma-ketligi, qofiya-radiflarning navbati, janrlar oldinma-kestinligi; *debocha*, *hamd*, *munojot* va *na’t*larning kelishi) ega bo‘lmog‘i, keyin esa uning qo‘lyozmasi ta’kidlangan ichki bezaklarning o‘rinli qo‘llanib tuzilishiga bog‘liq bo‘lar ekan. Shuni ham eslatish kerakki, badiiy bezaksiz ham, oddiy ko‘chirilgan devon nuxxalari ko‘p uchraydi. Lekin, bu o‘rinda Boburning podshohligi va yuksak didli san’atkor ekanligini ko‘zda tutish o‘rinli bo‘ladi.

Xulosa qilganda, Bobur mirzo o‘z devonini yuqorida keltirilgan mumtoz devonchilik talablari asosida mukammal sur’atda tartib berishga va bu borada ham o‘z xassos ijodkorlik qirralarini ko‘rsatishga intilgan shoir o‘laroq ko‘z oldimizda gavdalanadi. Uning devon tuzish va devonchilik borasidagi qarashlari mumtoz devonchilik an’analarini mukammal tarzda biluvchi, tajriba va mahorat sohibi, salohiyatli ijodkor ekanligini yana bir karra tasdiq etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi (qayta ishlangan ikkinchi nashr). – Toshkent: “SHARQ” NMAK, 2017.
2. Diwan-i Babur. India, Rampur Raza Library 2014.
3. Dr. Bilal Yücel. Babür divanı. Gramer, Metin, Sözlük, Tıpkıbasım. –Ankara, 1995.
4. Juraboev O. *Бобур девонининг сахиҳ матни борми?* // ЎзАС. 2017, 10 февраль. №7;
5. Juraboev O. *Бобур девон тузганми?* // ЎзАС. 2018, 16 февраль. №8;
6. Juraboev O. *Бобурнинг нечта девони бор?* // Til va adabiyot ta’limi. 2018. №2. 41-43-бетлар.
7. Juraboev O. Teorrical views of Bobur about the divan strukture // ACADEMICIA. An International Multidisiplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 5, May 2020. P.1493-1498.
8. Juraboev O. Zahiriddin Muhammad Babur and the divan strukture // International University Science Forum. SCIENCE EDUCATION PRACTICE. Part 2. Toronto, 2020. P. 42-49.

## POYCHAQIRKAR (CHAQIRTIKAN - HULTHEMIA PERSICA) - QANDLI DIABETNING KUSHANDASI

O'sarov Azamat Asatullayevich, Asatullayev Izzatillo Azamat o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

[amattou@rambler.ru](mailto:amattou@rambler.ru)

### ANNOTATSIYA

*Qandli diabet surunkali endokrin kasalliklar guruhining umumiy nomi ekanligi barchaga ma'lum. Ushbu guruhdagi barcha kasalliklar umumiy simptomga ega - poliuriya (siydk ishlab chiqarishning ko'payishi). Ammo faqat qandli diabet qondagi glyukoza kontsentratsiyasining oshishi bilan bog'liq. Ko'proq tez-tez uchraydigan diabetes mellitus - organizmdagi metabolik kasalliklar tufayli yuzaga keladigan endokrin kasallik. Uning asosiy belgisi insulin tanqisligidan kelib chiqqan giperglykemiya (yuqori qon shakar).*

**Kalit so'zlar:** *Qandli diabet, endokrin, glyukoza, symptom, insulin, arterial gipertensiya, bolalik davrida emizishdan mahrum bolalar, oddiy uglevodlar, yog'lar, chekuvchilar.*

### ABSTRACT

*Everyone knows that diabetes is the common name of a group of chronic endocrine diseases. All diseases in this group have a common symptom - polyuria (increased urine production). But only diabetes is associated with an increase in the concentration of glucose in the blood. More common diabetes mellitus is an endocrine disease caused by metabolic disorders in the body. Its main symptom is hyperglycemia (high blood sugar) caused by insulin deficiency.*

**Key words:** *Diabetes, endocrine, glucose, symptom, insulin, arterial hypertension, children deprived of breastfeeding during childhood, simple carbohydrates, fats, smokers.*

Bu maqolani yozishimga sabab otamning oyoqlarida paydo bo‘lgan kuchli og‘riq va kuyushish boldi. Bir oyoqlarini tizzadan yuqori qismidan olitashlangandan keyin, bu dardni sinchiklab o‘rganishga kirishdim va ma’lum darajadanatijaga erishdim.

Qandli diabet surunkali endokrin kasalliklar guruhining umumiyligi ekanligi barchaga ma’lum. Ushbu guruhdagi barcha kasalliklar umumiyligi simptomga ega - poliuriya (siydiq ishlab chiqarishning ko‘payishi). Ammo faqat qandli diabet qondagi glyukoza kontsentratsiyasining oshishi bilan bog‘liq. Ko‘proq tez-tez uchraydigan diabetes mellitus - organizmdagi metabolik kasalliklar tufayli yuzaga keladigan endokrin kasallik. Uning asosiy belgisi insulin tanqisligidan kelib chiqqan giperglykemiya (yuqori qon shakari). Ammo boshqa turlar mavjud:

- Markaziy shakarsiz. Tananing vazopressinga, organizmdagi suyuqlikni saqlash uchun mas’ul bo‘lgan gipotalamusning peptid gormoniga etishmasligi yoki qarshiligi tufayli yuzaga keladi.
- Nefrogen insipidus. Siydiqni konsentratsiyalash qobiliyatini yo‘qotish bilan tavsiflanadi. Irsiy irsiy mutatsiyalar, orttirilgan - buyrak kasalliklari yoki miyadagi patologiyalar tufayli yuzaga keladi.

Bu kasalliklarning barchasi suyuqlikning katta yo‘qotilishi va natijada mineral almashinuvining buzilishi bilan birga keladi. Bemor o‘z vaqtida va etarli miqdorda chanqoqni qondirsa, shakar bo‘lmagan turlar hayotga xavf tug‘dirmaydi.

Glyukoza tashilishining buzilishi sabablariga qarab, qandli diabetning quyidagi turlari ajratiladi:

- 1-toifa diabet. Bu insulin yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladi. Oshqozon osti bezi bardosh bera olmaydi, shuning uchun bemor ushbu gormonni o‘z ichiga olgan dori-darmonlarni qabul qilishi kerak.
- 2-toifa diabet. Uning sababi insulin qarshiligidir. Gormonning o‘zi tanada etarli, ammo hujayralar unga befarq, shuning uchun glyukoza tashish sodir bo‘lmaydi.
- Gestatsion diabet. Qandli diabet bo‘lmaganda homiladorlik davrida rivojlanadi va ona va bolaning sog‘lig‘iga tahdid soladi.

Alovida-alohida, glyukoza bardoshliligining pasayishi bilan tavsiflangan prediabetik holat ko'rib chiqiladi. Och qoringa shakar normal chegarada qoladi, ammo glyukoza yukidan keyin og'ish aniqlanadi.

Bu insulinning mutlaq yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi, ya'ni uning funktsiyasini bajarish uchun etarli insulin yo'q. Bu kasallik bolalar va o'smirlarda tashxis qilinadi, lekin tug'ilishdan boshlab shart emas. Bunday oshqozon osti bezi disfunktsiyasining asosiy sabablari immunitet tizimi tomonidan beta hujayralarini yo'q qilishdir. Bu asta-sekin sodir bo'ladi - kasallikning birinchi belgilari paydo bo'lgunga qadar bir necha oydan bir necha yilgacha o'tishi mumkin. Kamdan kam hollarda 1-toifa diabet 30 yoshga kelib rivojlanadi. Shu sababli, uni ikkinchi tur bilan aralashtirish mumkin.

Beta hujayralarining yo'q qilinishining sababi genetik moyillik va tanadagi otoantigenlarning mayjudligidadir. Kamdan kam hollarda yo'q qilish jarayoni viruslar (Coxsackie enterovirus, qizilcha yoki OIV) tomonidan qo'zg'atiladi.

Kasallikning 2-toifasi asosan katta yoshda, insulin qarshiligidan kelib chiqadi. Oshqozon osti bezi kerakli gormonni ishlab chiqarishni davom ettiradi, lekin u ishlamaydi. Bunday holda, ular uning nisbiy etishmasligi haqida gapiriladi.

Tana buni (aslida bunday bo'lmasa ham) insulin yetishmovchiligi sifatida qabul qilishi mumkin va uni me'yordan ortiq ishlab chiqarishi mumkin.

Insulin qarshiligi ham fiziologik bo'lishi mumkin. Bu o'smirlar, homilador ayollar va qariyalar orasida keng tarqagan. Uning qisqa muddatli namoyon bo'lishi hayz davrining ikkinchi bosqichida va uslash vaqtida sodir bo'ladi.

Olimlar diabet va ortiqcha vazn o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladilar. Bir tomonidan, insulin yog'ning parchalanishiga to'sqinlik qiladi, bu esa diabetga chalinganlar uchun vazn yo'qotish deyarli mumkin emas. Boshqa tomonidan, semizlik kasallikning borishini murakkablashtiradi:

Ortiqcha vaznli yoki polistik tuxumdon sindromi bo'lgan bemorlarda diabet rivojlanish ehtimoli yuqori. Shuningdek, xavf guruhiba quyidagilar kiradi:

- 45 yoshdan oshgan;

- diabetga chalingan ota-onalarning mavjudligi;
- arterial gipertenziya bilan og‘rigan;
- harakatsiz turmush tarzini olib borish;
- bolalik davrida emizishdan mahrum;
- oddiy uglevodlar va yog‘larni ko‘p iste’mol qiladiganlar;
- chekuvchilar

Aksar diabetiklar insulin nima uchun kerak degan savolga qiziqish bildirmoqda. Bu gormon organizmda energiya ishlab chiqarish jarayonida bevosita rol o‘ynaydi. Insulin va glyukoza bir-biri bilan shunday o‘zaro ta’sir qiladiki, qon shakar darajasi doimo ma’lum bir fiziologik jihatdan aniqlangan darajada bo‘ladi. Shu bilan birga, inson oziq-ovqatda yetarli miqdorda uglevodlarni iste’mol qilishi mumkin. Uglevodlarga boy ovqat iste’mol qilganimizdan so‘ng, oshqozon osti bezi zudlik bilan insulin va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash uchun barcha fermentlarga muhtojligi haqida signal oladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, glyukoza energiya hosil bo‘lishiga olib keladi. Ammo tanadagi insulin ishlab chiqarish buzilgan bo‘lsa, bu qondagi shakar miqdorining oshishiga olib kelishi mumkin. Oshqozon osti bezi turli funktsiyalarini bajaradigan ko‘p sonli hujayralarga ega. Ulardan ba’zilari insulin gormonini ishlab chiqaradi. Qon shakar darajasi ko‘tarilganda, gormon qonga chiqariladi va shu bilan glyukoza hujayralarga kirishiga olib keladi. Ushbu ish natijasida tanada energiya hosil bo‘ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, energiya faqat insulinning to‘g‘ri ta’siridan keyin hosil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun oshqozon osti bezining faoliyatini kuzatib borish va uning faoliyatini buzadigan asoratlarni rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik juda ekanligini bilib olgach, o‘simliklarni kuzata boshladim.

Geografiyasi hammaga ma’lum bo‘lgan atirguldoshlar oilasining tipik vakili poychaqirkar (chaqirtikan - hulthemia persica) qandli diabedning normallashtirish jarayonida juda samarali ekanligigga guvoh bo‘ldim.

Hozirda usbu tadqiqotni davom ettirayapmiz. Laborator tekshiruvlar natijalariga qarab ushbu o'simlikning boshqa jihatlari ham ochilishi kutilmoqda.

Biz ushbu o'simlikni qo'llagan 8 nafar qandli diabet bilan og'rigan bemorlarning barchasi o'zlarini juda yaxshi his qilishdi. Qand miqdorining doimiy normada saqlanib turganligi e'tiborga molikdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.Г. Ашотян РОЛЬ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В ЛЕЧЕНИИ САХАРНОГО ДИАБЕТА // Фундаментальные исследования. – 2009. – № 10. – С. 31-32;  
URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=2075> (дата обращения: 03.10.2023).

2. Усаров А.А, Асатуллаев И.А. Использование учения Ибн Сины в современной фармации, Natural Product-Based Radiopharmaceuticals, Presentation • March 2022<https://www.researchgate.net/publication/359415209>

## BIZON BOSHLI SARATON (*STICTOCEPHALA BISONIA* KOPP ET YONKE, 1977) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAUNASI UCHUN YANGI TUR

Jononova Rano Normuradovna,

Xaytmuratov Arslonbek Fayzullayevich,

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti.

Toshkent, O'zbekiston,

email: [juju10111969@gmail.com](mailto:juju10111969@gmail.com)

**Annotatsiya:** *O'zbekiston respublikasi faunasida yangi tur sifatida qayd etilayotgan jahoning eng g'aroyib hasharotlari o'ntaligi ro'yxatiga kiritilgan bizon boshli saraton (*Stictocephala bisonia*) 2020 yilda bedazorda bahorning oxirida O'zbekistonning Qozog'iston bilan chegara hududlarida birinchi marta qayd etildi. Keyingi 3 yillik tadqiqotlar natijasida uning biologiyasi, ekologiyasi, zararlashi va O'zbekiston respublikasi hududida tarqalish koordinatlari aniqlanib o'r ganildi.*

**Kalit so'zlar:** *saraton, beda, zararkunanda, bizon boshli saraton, yangi tur, avlod, o'simliklar himoyasi, biologiya, tarqalish areali.*

**Аннотация:** в статье предоставлены данные о распространении чужеродного и инвазивного вида, относящегося к числу десятки самых необычных интересных насекомых - Горбатка - Бодушка бизонья – (*Stictocephala bisonia*) в Узбекистане. Впервые обнаружили на территории Республики Узбекистан 2020 году близко на границе с Казахстаном люцерновом агровиоценозе. В ходе исследований изучалось биология, экология, распространение и вредоносность данного вида на территории республике Узбекистан. Определен координаты и численность распространение.

**Ключевые слова:** Цикада, люцерна, вредитель, Горбатка, Бодушка бизонья, новый вид, генерация, защита растений, биология, ареал распространения.

**Annotation:** The article gives information about the distribution of a new invasive species, listed one of the “ten most unusual interesting insects” - the buffalo treehopper (*Stictocephala bisonia*) in Uzbekistan. Found for the first time, on the territory of the Republic of Uzbekistan in 2020, close to the border with Kazakhstan, at the alfalfa agrobiocenosis. During the research, it has been studying biology, ecology, distribution and harmfulness of this species on the territory of the Republic of Uzbekistan. Determined coordinates and abundance of distribution.

**Key words:** Cicada, alfalfa, pest, the buffalo treehopper, new species, generation, plant protection, biology, distribution area.

*Stictocephala bisonia* Kopp et Yonke, 1977 tabiatda uchraydigan invaziv tur *Membracidae* (*Hemiptera*) oilasiga mansub. Bu oila vakillarining o‘ziga xos xususiyati yuqoridagiga o‘xhash har xil shakldagi o‘smalarning bo‘lishidir. Adabiyotlar ma’lumotlariga ko‘ra oila 3200 turni o‘z ichiga oladi, eng g‘alati mavjudotlar o‘ntaligiga kiritilgan bu g‘aroyib hasharotlar O‘zbekiston respublikasi hududida ilgari qayd etilmagan. Ular asosan tropik kengliklarda yashashi ma’lum.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra bu noarktik tur *Stictocephala bisonia* Shimoliy Amerikada o‘tgan asrning boshlarida aniqlangan va keyinchalik u qitaning boshqa qismlarida ham kuzatilgan. Evropa mamlakatlaridan birinchi marta 1912 yilda Vengriyaga turli yo‘llar bilan kelib qolganligi kuzatilgan va shu yili Kovin (Serbiya) tomonidan ro‘yxatga olingan. Ular Janubiy Evropa mamlakatlarida va Shimoliy Afrika mamlakatlarida yaxshi moslashib, jadal rivojlandi. So‘nggi yillarda *S. bisonia* dunyoning ko‘pgina mintaqalarida yashash arealini kengaytirdi va yangi hududlarga ko‘chib o‘tdi (Anufriev, 1988).

Pronotal morfologiyasi bilan ajoyib guruh bo‘lgan *Membracidae* oilasining vakillaridan, bo‘lgan *S. bisonia* muhim qishloq yoki o‘rmon xo‘jaligi zararkunandalari hisoblanmaydi va o‘simlik to‘qimalariga tuxum qo‘yish uchun teshib, zarar keltirishi mumkin. *Stictocephala bisonia* – bukrilar oilasiga, yarimqattiqsanotlilar turkumiga mansub bu juda g‘aroyib hasharotning ilmiy nomini ilgari respublikamiz hududida

qayd etilmaganini xisobga olib rus va ilmiy tilda (*Bodushka bizoniya* Buffalo), (*Stictocephala bisonia* Bubalus) qayd qilingan nomiga mutanosib mutaxasislar bilan kelishib **Bizon boshli saraton** deb nomladik.

**Tadqiqot uslubi va ma'lumotlar:** 2020 – 2022 yillar mobaynida Toshkent viloyati Qibray va Chirchiq tumanlari beda dalalarida faunistik tadqiqotlar o'tkazildi. Hasharot namunalari vegetatsiya davrida, may oyidan oktyabrgacha entomologik tutqich yordamida va qo'lda terildi. Yig'ilgan 120 nusxa xisob kitobi va kuzatishlar tugatilgandan keyin morilkada o'ldirilib ularning turlarini aniqlash va saqlash uchun kollektsiyalar qilindi (1-rasm).



**1-rasm.** Bizon boshli saratonning ust tomonidan ko'rinishi

Hasharotlarni yig'ish davrida lichinkalar ham juda ko'p uchradi. Lichinkalarini 70% spirtda va formalinda saqlandi. Bizon boshli saratonning biologik rivojlanish bosqichlarini va morfologik tuzulishini o'rganish maqsadida, imagolari hamda lichinkalari laboratoriya sharoitida guruhlarga bo'lingan qutilarda (10x10 sm) joylashtirilib,  $22\pm1^{\circ}\text{C}$  havo xaroratida kuzatilib, ma'lumotlar qayd etib borildi.

Voyaga etgan hasharotning tana uzunligi 10 mm gacha bolib, boshi uchburchak, old qismidan qaralganda ham ustki qismidan qaraganda ham uch burchakni ko'rish mumkin. Ko'zları katta katta bo'rtib chiqqan. Og'iz a'zolari sanchuvchi-so'rvuchi tipda, boshining old pastgi qismida joylashgan. Boshi tanasiga opistognatik tipda birikkan. Mo'ylovleri ingichka, ipsimon, qisqa. Old ko'kragi kattalashgan. Qalqon

elkasi bo‘ylab cho‘zilib o‘tkir qilichsimon o‘sma bilan tugaydi. Qalqonning lateral elka qismlarida ikkita shox shaklida o‘sintalar mavjud Urg‘ochi saratonlarning qorin qismining oxiri o‘tkir, qattiq xitinlashgan tuhum qo‘ygichlar bilan tugaydi. Qilichsimon tuxum qo‘ygichlar erta bahorda oq sut rangda, kuzda esa qo‘ng‘ir rangda bo‘ladi. Uning vositasida urg‘ochilar qalin daraxt va poyalarga tuxum qo‘yadilar. Tana rangi och yashil, terisi teshik teshik tuzilgan. Lekin kuzda rangi to‘q yashil tus olib, tanasining qo‘ng‘ir qismlari kengayadi. Yuqoridagi rasmida bu yaxshi ko‘rinib turibdi. O‘sintalarning uchlari qizil-qo‘ng‘ir rangda.



**2-rasm.** Bizon boshli saraton urg‘ochisi (chap tarafda) va erkagi (o‘ng tarafda)



**3-rasm.** Bizon boshli saraton yon tarafdan ko‘rinishi

Bizon boshli saraton shaffof 2 juft qanotlarga ega bo‘lib, ular tanasining ikki yoni bo‘ylab bukilgan. Oyoqlari och yashil, tuklar bilan qoplangan, oyoq uchlari esa qo‘ng‘ir rangda. Old va o‘rtalari oyoqlari yuruvchi tipda, orqa oyoqlari esa sakrovchi.



3-

#### 4-rasm. Bizon boshli saraton yon va yuqori tomondan ko‘rinishi

Bizon boshli saraton daraxtlar va buta va o‘t o‘simgiliklarda yashaydi, ular chaqqon, serharakat, sakrab so‘ng uchib ketadi. Tuxum holida daraxt novdalari tanasi yoki boshqa o‘simgilik poyalarida qishlaydi. Daraxt tanasidan maxsus kovak ochib shu yerga 8-15 tagacha tuxum qo‘yishi kuzatildi. Tuxumlari 3-4 mm kattalikda oq rangda bo‘ladi.

Lichinkalar va imagolar turli xil o‘simgiliklar sharbati, shu jumladan ba’zi mevali daraxtlarning sharbati bilan oziqlanadi. Shu sababli, bu tur ko‘pincha Evropada zararkunanda hisoblanadi, garchi u aslida ekinlar uchun katta xavf tug‘dirmaydi.

Bu hasharot tanasi kuchli tekislanishiga ega va tashqi ko‘rinishidan oddiy bargga o‘xshaydi. Ammo u yorqin rangi bilan ajralib turadi, shuning uchun yirtqichlar odatda eng g‘alati hasharotlardan birini o‘lja emas, balki daraxtning oddiy bargi deb bilishadi. U chaqqon va yaxshi sakraydi. Bundan tashqari, bu hasharot juda uzoq bo‘lmagan masofalarga yaxshi ucha oladi. Uning bu maqsadlar uchun shaffof keng qanotlari kuchli rivojlangan. U faqat ajoyib ko‘rinishga ega, shuning uchun u eng g‘alati hasharotlar ro‘yxatida.

Ushbu hasharotning lichinkasi pushti rangga va butun tana bo‘ylab joylashgan g‘ayrioddiy "tikanlar" ga ega. Oyoqlari, boshi uzun yorug‘lik sezuvshi "tikanlar" tuklar bilan qoplangan

Hasharotning yon tomonlarida va orqa tomonida o'tkir uchli qismlar bizningcha tuxum qo'yadigan daraxtlarining qobig'ida teshik ochish uchun zarur bo'ladi

Tashqi ko'rinishidan bu hasharot kichik amerika buqasiga bizonga o'xshaydi. Shuning uchun uni bizon boshli deb nomlashgan. Yashil rang va tananing uchburchak shakli barglar orasidagi boshni mukammal kamuflyaj qiladi.

Shunday qilib bu g'aroyib ko'rinishga ega ajoyib jonzot biologik xilma xillikni boyitishga o'z ahamiyatiga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ануфриев Г. А., Емельянов А. Ф. "Подотряд Cicadinea (Auchenorrhyncha) — Цикадовые": с. 12-495). В.кн. Определитель насекомых Дальнего востока СССР. Т. 2. Равнокрылые и полужесткокрылые. Л.: «Наука», 1988. — 972 с. — с. 23., Ануфриев, Г.А. Новый восточноевропейский вид цикадок рода *Macropsis* Lew.
2. Arzone, A. Auchenorrhyncha introduced into Europe from the Nearctic region: taxonomic and phytopathological problems / A. Arzone, C. Vidano, A. Alma // Proc. 2nd Int. Workshop on Leafhoppers and Planthoppers of Economic Importance (28.07-1.08.1986, Utah, USA), 1987. — P. 3–17.
3. Cryan, J.R.; Svenson, G.J. 2010: Family-level relationships of the spittlebugs and froghoppers (Hemiptera: Cicadomorpha: Cercopoidea). Systematic Entomology, 35: 393—415. doi: 10.1111/j.1365-3113.2009.00520.x
4. Balduf, W. V. (April 1, 1928). "The Bionomics of *Polynema Striaticorne* Girault (Mymaridae, Hymenoptera) a Parasite in the Egg of the Buffalo Tree Hopper, *Ceresa Bupalus* Fabr. (Membracidae, Homoptera)". *Journal of Economic Entomology*. **21** (2): 352. doi:10.1093/jee/21.2.352.
5. Соренсен Дж.Т.; Кэмпбелл, Британская Колумбия; Гилл Р.Дж.; Штеффен-Кэмпбелл, Дж.Д. (1995). «Немонофилия Auchenorrhyncha

("*Homoptera*"), основанная на филогении 18S рДНК: экоэволюционные и кладистические последствия для пред-*Heteropteroidea Hemiptera* (s.l.) и предложение о новых новых монофилетических подотрядах". *Пантихookeанский энтомолог*. 71 (1): 31–60.

6. Крайан Дж.Р.; Урбан, Дж.М. (2012). «Высокоуровневая филогения отряда насекомых *Hemiptera*: действительно ли *Auchenorrhyncha* парафилетическая?». *Систематическая энтомология*. 37 (1): 7–21. DOI:[10.1111/j.1365-3113.2011.00611.x](https://doi.org/10.1111/j.1365-3113.2011.00611.x).
7. Дитрих К. Х., Реше, В. Х. и Карде, Р. Т. (ред.) 2003 Энциклопедия насекомых. Академическая пресса ISBN 0123741440.
8. Gjonov I., Shishinova M. Alien Auchenorrhyncha (Insecta, Hemiptera: Fulgoromorpha and Cicadomorpha) to Bulgaria. Bulgarian journal of agricultural science, 20 (Supplement 1), 2014, p. 151-156.
9. Swierczewski, D. The first records of the Nearctic treehopper *Stictocephala bisonia* in Poland (Hemiptera: Cicadomorpha: Membracidae) with some comments on this potential pest / D. Swierczewski, A. Stroinski // Polish Journal of Entomology, 2011. – 80. – P. 13–22.
10. Vilbaste, J. Preliminary list of Homoptera-Cicadinea of Latvia and Lithuania / J. Vilbaste Изв. АН ЭстССР. – 1974. – Т. 23, № 2. – С. 131–163.
11. Бородин, О.И. Цикадовые (Homoptera, Auchenorrhyncha) агроэкосистем Беларуси / О.И. Бородин – Минск: Изд-во БГУ, 2012. – 232 с.
12. Tishechkin, D.Yu. Review of species of the genus *Hephatus* Ribaut, 1952 (Homoptera: Cicadellidae: Macropsinae) from the territory of Russia with notes on other Palearctic species of the genus / D.Yu. Tishechkin // Russian Entomol. J., 1999. – 8 (4): 239–252.

УДК: 635.914

## SANSEVERIYA (SANSEVIERIA) O‘SIMLIGINING ISTIQBOLLI TURLARI VA PARVARISHLASH TEKNOLOGIYASI

**Xolmurotov Mansur Zaripbayevich**

TDAU , O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasи mudiri, PhD, dotsent. Toshkent

[m.xolmurotov@tdau.uz](mailto:m.xolmurotov@tdau.uz)

**Xolmurotov Sherxon Abduxalil o‘gli**

TDAU magistranti , O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasи, Toshkent

[sherxon7373@gmail.com](mailto:sherxon7373@gmail.com)

**Egamberdiyev Shaxzod Baxodir o‘g‘li**

TDAU tayanch doktoranti, O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasи, Toshkent

[sh.egamberdiyev@tdau.uz](mailto:sh.egamberdiyev@tdau.uz)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Sansevieria (lat. Sansevieria) o‘simligining bioekologiyasi, tarqalish areallari, tabiiy tarqalgan mintaqalari, sistematikasi, introduksiya ko‘rsatkichlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar keltirib o‘tilgan. Sansevieria (lat. Sansevieria) o‘simligi tabiiy holda asosan tropik mintaqalarda tarqalgan bo‘lib XX asrning so‘ngi yillaridan boshlab manzarali belgilari yuqoriligi sababli keng miqyosda introduksiya qilina boshlagan. O‘zbekistonda xona o‘simligi sifatida ekib o‘stiriladi. Xona sharoitida barglari manzarali, kam hollarda gullaydi. Xalqaro ilmiy manbalarda keltirilishicha introduksiya 610 ga yaqin navi bor.*

**Kalit so‘zlar:** Sansevieria (lat. Sansevieria), bioekologiya, tarqalish areallari, tabiiy tarqalgan mintaqalar, sistematika, introduksiya.

## ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВИДЫ САНСЕВЕРИИ (SANSEVERIA) РАСТЕНИЕ И ТЕХНОЛОГИЯ ВЫРАЩИВАНИЯ

**Холмуротов, Мансур Зарипбаевич**

ТГАУ, заведующий кафедрой лесного хозяйства и ландшафтного дизайна, PhD,  
доцент. Ташкент. [m.xolmurotov@tdau.uz](mailto:m.xolmurotov@tdau.uz)

**Холмуротов Шерхан Абдухалил угли**

Магистрант ТГАУ, кафедра лесного хозяйства и ландшафтного дизайна,  
Ташкент  
[sherxon7373@gmail.com](mailto:sherxon7373@gmail.com)

**Эгамбердиев Шахзод Бахадир угли**

Базовый докторант ТГАУ, кафедра лесного хозяйства и ландшафтного дизайна,  
Ташкент.

[sh.egamberdiyev@tdau.uz](mailto:sh.egamberdiyev@tdau.uz)

**АННОТАЦИЯ**

*В статье приводятся научные исследования по изучению биоэкологии, ареалов, природных районов распространения, систематики, показателей интродукции растения Сансеvierия (лат. Sansevieria). Растение Сансеvierия (лат. Sansevieria) в природе распространено преимущественно в тропических регионах и массово интродуцировано с последних лет 20 века благодаря своим высоким декоративным качествам. В Узбекистане культивируется как комнатное растение. В комнатных условиях листья декоративны, цветут редко. По данным международных научных источников, существует около 610 видов интродукции.*

**Ключевые слова:** Сансеvierия (лат. Sansevieria), биоэкология, ареалы, естественно распространенные регионы, систематика, интродукция.

**PROMISING SPECIES OF SANSEVERIA (SANSEVERIA) PLANT AND GROWING TECHNOLOGY****Kholmurotov Mansur Zaripbaevich**

TSAU, Head of the Department of Forestry and Landscape Design, PhD, Associate Professor. Tashkent. [m.xolmurotov@tdau.uz](mailto:m.xolmurotov@tdau.uz)

**Kholmurotov Sherkhan Abdukhalil ugli**

TSAU master's degree, Department of Forestry and landscape design, Tashkent  
[sherxon7373@gmail.com](mailto:sherxon7373@gmail.com)

**Egamberdiyev Shakhzod Bakhadir ugli**

TSAU base doctoral student, Department of Forestry and landscape design, Tashkent.  
[sh.egamberdiyev@tdau.uz](mailto:sh.egamberdiyev@tdau.uz)

**ABSTRACT**

*The article presents scientific research on the study of bioecology, habitats, natural areas of distribution, taxonomy, and indicators of introduction of the Sansevieria plant (lat. Sansevieria). The Sansevieria plant (lat. Sansevieria) is naturally distributed mainly in tropical regions and has been massively introduced since the last years of the 20th century due to its high decorative qualities. In Uzbekistan it is cultivated as a houseplant. In indoor conditions, the leaves are*

*decorative and rarely bloom. According to international scientific sources, there are about 610 species of introduction.*

**Key words:** *Sansevieria (lat. Sansevieria), bioecology, habitats, naturally distributed regions, taxonomy, introduction.*

**Kirish:** Texnologiyaning rivojlanishi va yangi kasblarning paydo bo‘lishi insonlarning ichki muhitda juda ko‘p vaqtini o‘tkazishiga olib kelmoqda. Kunlik vaqtning 16-18 soati xona ichida o‘tishi odatiy holdek bo‘lib qoldi. Bazida bu ko‘rsatkich 18-20 soatni tashkil etishi, tabiat va inson munosabatlarini qisqartirmoqda. Shu o‘rinda xona havosi tarkibi biz 18-22 soat nafas olishimiz va sog‘lom hayot kechirishimiz uchun mosmi degan savol paydo bo‘ladi.

Xalqaro tabiatni muhofaza qilish uyushmasining (IUCN) axborotida hozirda 320 ming o‘simlik turi mavjudligi, ularning 280 ming turi gulli o‘simliklar, 1 mingtasi ochiq urug‘lilar, 16 mingga yaqini moxsimonlar, 12 minga yaqini esa yuksak sporali o‘simlik ekanligi takidlangan [54].

Mironnova Y.V. [5] maktabning qishki bog‘ida 135 tur, 45 oilaga mansub tropik, subtropik va mo‘tadil kenglikdagi o‘simliklar koleksiyasi o‘rganilib interer fitodezaynda qo‘llashni ilmiy asoslagan bunda kuz qish davrida Zamiokulkars (Zamioculcas) o‘sish bosqichlarini o‘rgangan.

Bo‘riyev H., Abduraxmonov L., [4] Sansevera, sanseveriya yoki “it dum” – liliyadoshlar oilasiga mansub o‘simlik. Afrika va Osiyoning tropik viloyatlaridan keltirilgan. Bir necha turlari ekiladi. O‘simlikning balandligi 1,2 m, barglari ildiz oldida o‘sgan, tik o‘suvchi, ola-bula rangda, ildiz poyasi semiz va chirmashuvchi bo‘ladi. Gullari oq rangda, yashil tuslari mavjud, xushboy xidli, lekin manzarasi kam, yumshoq naysimon gulbarglarga yig‘ilgan. Eski o‘simliklarni bo‘lish yo‘li bilan va barglari orqali ko‘paytiriladi. Buning uchun yaxshi pishgan barglar ishlatiladi, ularni 6-8 sm. uzunlikdagi qisimlarga bo‘linadi, bunda bargning pasti belgilab olinadi.

Berdiyev E., Egamberdiyev Sh. o‘z tajribalarida interyer o‘simliklarini o‘stirish va parvarishlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishgan. Sanseviyeria o‘simligini xonada o‘stirish uchun juda mos bargi manzarali o‘simlik sifatida tariflashgan [1,2,3].

**Tajriba (tadqiqot) obyekti va uslubiyati:** Tadqiqotlarimizni xona sharoitida o'stirish imkoniyati mavjud istiqbolli Sansevieria (lat. Sansevieria) o'simligi ustida ilmiy izlanishlar olib borildi. Tadqiqotda turkum va vakillaring bioekologik ko'rsatkichlari kuzatildi va tahlil qilib borildi. O'simliklarning tabiiy tarqalgan hududlar va introduksion ko'rsatkichlari taqqoslandi. Indroduksiya jadalligi yillar va hududlar kesimida solishtirildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslandi va statistik tahlil natijalari jadval, rasm va diagrammalarda keltirildi.

**Tajriba (tadqiqot) natijalari va muhokamasi:** Sansevieria (lat. Sansevieria) manzarali bargli o'simlik bo'lib, u ko'pchilik uni qaynona tili, dumsimon o'simlik, leopard va ilon terisi nomlari bilan atashadi. Xona o'simligi sifatida o'zining turli ko'rinishdagi o'ziga xos naqshlari va truli rangdagi barglari bilan ajralib turadi. Interyer dizaynida sanseveriyani guruh holda ekish yangicha ko'rinishni paydo qiladi.

Sansevieria Qushqo'nmasdoshlar oilasiga tegishli bo'lib, doimiy yashil ko'p yillik o'simlik hisoblanadi. Yovvoyi tabiatda madaniyat Madagaskar orolida, Janubiy Afrikada, Hindistonning subtropik va tropiklarida, Janubi-Sharqiy Osiyoda va Amerika Qo'shma Shtatlarining janubida o'sadi. Bu foydali yopiq o'simliklar uyda yetishtirish juda oson va parvarish qilish shartlari jihatidan oddiy, shuning uchun hatto yangi boshlovchi bog'bon ham ularga o'stira oladi. Sansevieria uzoq vaqtgacha o'z ko'rinishini saqlab tura oladi. Tadqiqotlarimizda uni 2 hafta davomida qarovsiz qoldirdik. Ushbu muddatdan keyin o'simlik oldingi holatidan farqi ko'p sezilmadi. Bu o'simlikning suvsizlikka chiqamli ekanidan dalolat beradi. Shu sababdan uni barcha turdag'i xonodlarda o'stirish mumkin.

O'simlik o'rmalovchi ildiz tizimiga ega, uzunligi 1 metr va undan ham balandroq bo'lgan zich va chiqamli barg plastinkalaridan tashkil topgan. Barglarning rang palitrasи yashil, jigarrang va sariq ko'rinishlarga ega. Barg plastinkasi yuzasida rang-barang qo'shimchalar, chiziqlar va dog'lar mavjud. Gullash davrida, och yashil gulbarglari bo'lgan juda kichik kurtaklardan iborat bo'lgan silindrishimon poya hosil qiladi. Gullar quyosh botganda ochiladi va nozik vanilin hidiga ega. Gullash oxirida

mayda urug‘larga ega sharsimon rezavorlar mevalar pishib yetiladi. Lekin yopiq xona sharoitida sansevierialar juda kamdan-kam hollarda meva beradi.

Sansevieriya turlari. Hammasi bo‘lib, fanda Sansevieriyaning 610 ga yaqin navlarini bor. Ularning barchasi barglarning shakli, rangi va uzunligida farqlarga ega. Ulardan faqat 10 tasi xona gullari sifatida etishtiriladi.

Yirik Sanseveriya (*Sansevieria grandis*)- katta o‘lchamdagи o‘simlik bo‘lib, uning ildizidan uchi uchli ikkidan to‘rttagacha zich barglari bo‘ladi. Har bir barg plastinkasining o‘lchamlari 60 x 15 santimetr. Rangi - och yashil dog‘lar va chiziqlar ga ega bo‘ladi. Barglarning qirralari qizil rangga ega. Gullah davrida ildiz bo‘g‘zidan 70-80 santimetr unlikdagi vertikal poya o‘sadi, unda vaqt o‘tishi bilan zich gulband hosil qiladi va kichik oq-yashil gullar paydo bo‘ladi.

Nafis Sanseveriya (*Sansevieria gracilis*)- 5-6 santimetr balandlikdagi qalin poyadan o‘sadigan go‘shtli, tik barglari bo‘lgan ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. Barg plitalarining tuzilishi zich, cho‘zilgan uchi bilan to‘rburchaksimon. Barg ko‘k-yashil rangga bo‘yalgan va ko‘ndalang loyqa dog‘lar bilan qoplangan bo‘ladi.

Giatsinsimon Sanseveriya (*Sansevieria hyacinthoides*) O‘simlik 50 santimetr balandlikka ega bo‘ladi. Barglari tik, go‘shtli, ildiz bo‘g‘zidan 3-4 bo‘lak bo‘lib o‘sib chiqadi. Barg plastinkalarining uzunligi 15-40 santimetr, kengligi esa 6-8 santimetr. Rangi ochiqroq yon tomonida tor qirrasi oq yoki pushti rangga ega.

Doneer Sanseveriyasi (*Sansevieria doonei*) - katta qalin poyalarga ega bo‘lgan suvli o‘simlik bo‘lib, undan bir necha o‘nlab vertikal barglari o‘sadi. Bargalning uzunligi 35-40 santimetrga etadi, kengligi esa atigi 2-3 santimetrga etadi. Barglarning ko‘rinishi quyuqroq naqshli to‘q yashil rangga ega bo‘ladi.

Kirki Sanseveriyasi (*Sansevieria kirkii*) - nisbatan nozik yashil barglari oq chiziqlar va ingichka jigarrang chegarasi bo‘lgan siyrak poya bilan ajralib turadigan o‘simlik. Jigarrang va qizil-jigarrang barg plastinkalarini hosil qiladi.

Liberiya Sanseveriyasi (*Sansevieria liberica*). Bu o‘simlik buta shaklida o‘sadi va gorizontal yo‘nalishda o‘sadigan oltita barglari mavjuda keng tanaga ega. Voyaga etgan namunalardagi barglarning uzunligi 1 metrga yetishi mumkin, kengligi esa 8-10

santimetr. Barglarning ko‘rinishi to‘q ranglarda, chiziqlar va notekis dog‘lar bilan qoplangan. Bundan tashqari, tor qizil-jigarrang chegara mavjud.



### 1-rasm. Sanseveriyaning turli navlari

Uch qatorli Sanseveriya (*Sansevieria trifasciata*) - Bu o‘simlik xonadonlarda neg ko‘p tarqalgan tur hisoblanadi. Uning sariq qirrali yashil rangga ega uzun bo‘yli, uchli barg plastinklari mavjud. Chiziqli barglari bo‘lgan navlari ham bor.

Silindrismon Sanseveriya (*Sansevieria cylindrica*). Bu o‘simlikning barglari to‘q yashil ranga va parallel kulrang-sariq chiziqlarga ega. Uning barglari tik silindrarga o‘xshaydi. Uning barglari juda o‘tkir qirrali hisoblanadi. Shuning uchun ular zarar etkazishi mumkin. Shu sababli, o‘simlik bargalari uchli qismi turli vositalar bilan berkitib qo‘yilishi tavsiya etiladi.

Sanseveriya Robusta (*Sansevieria robusta*) To‘q yashil rangga ega yashil chiziqlar hosil qilib o‘suvchi, keng poyaga ega o‘simlik hisoblanadi. Robusta bir nechta kichik turlarga bo‘lingan:

- Qora - tez o‘sadigan nav. Yosh butalarning barglari to‘q yashil rangga ega, eskilari esa qora va kumush rang hosil qilishadi;
- Ko‘k –, och yashil nayzasimon barglari yuqoriga emas, bir necha qatlamlarda yon tomonga o‘sadigan nav. Barglari ko‘k rang hosil qiladi va ustki qismi yog‘li bo‘ladi;
- Qora marjon - barglari turli naqshlar bilan qoplangan xona o‘simligi.

Sanseveriya Futura (Sansevieria futura) - Yaqinda selektsionerlar tomonidan etishtirilgan tur, zikh o'sadigan barglari va zikh poyalarga ega. Hammasi bo'lib, taxminan 9-10 barg bargalari bo'ladi. Ularning barchasi och yashil rangga ega, quyuq yashil chiziqlar va sarg'ish chegara bilan qoplanagan. Sansevieria futura bir nechta navlarga bo'linadi:

- Futura Superba - sariq qirrali keng, go'shtli barg plastinkalari bo'lgan tur;
- Futura Gold – barglari Futura Superba nikidan bir oz qisqaroq va yashil-oltin rangga bo'yagan nav;
- Qora oltin - yashil-ko'k rangdagi cho'zilgan ingichka barglari bilan yopiq gul.

Sanseveriya Sensation Bentle (Sansevieria sensation bentel) - Bu uzun vertikal barglari bo'lgan juda manzarali o'simlik bo'lib, uning yuzasida uzunlamasina joylashgan kontrastli oq chiziqlar mavjud. Qolgan, chiziqli bo'lмаган qismida dog'lari bor. Barglar keng poyadan 50-60 santimetr balandlikda o'sadi. Sansevieria Sensation Bentle - havoni ifloslantiruvchi zarralardan tozalaydigan foydali xona guli. Yorqin yorug'likda yanada rang-barang bo'lib o'sadi.

Zeylanika Sanseveriyasi (Sansevieria zeylanika) – gul o'stiruvchilarining sevimli navlaridan biridir. Dastlab, gulda yupqa barglar paydo bo'ladi, ular yillar davomida zichroq bo'lib, chiziqlar va kumush rangli dog'lar bilan qoplanadi. Bunday naqshlar asosan barglarning markazida ko'p bo'ladi. Sansevieria zeylanika to'g'ri parvarish qilinsa, 150 santimetrgacha o'sishi mumkin.

Yuruvchi Sansevieriya yoki Pengeukula (Sansevieria pinguecula) - Bu o'somlik juda g'ayrioddiy shakli tufayli o'z nomini oldi. Turning poyalari poydevorda emas, balki asosiy magistraldan o'sadigan kurtaklar ustida hosil bo'ladi. Shunday qilib, buta qadam tashlayotganga o'xshaydi. Barg plastinkalari katta, uchi o'tkir va ingichka.

Sanseveriyani ko'paytirish. Ushbu o'simlik ildiz bo'linishi, barg plastinkalari va yon kurtaklar orqali ko'paytirildi. Urug'lardan ko'paytirish juda kam qo'llaniladigan usul bo'lib, ekish uchun urug'lik materialini topish oson emas.

Ildizni bo'lish orqali ko'paytirish. Sanseveriya o'simligini tupini bahorda, o'simlikni yangi tuvakka ko'chirish vaqtida amalga oshirildi. O'simlikni idishdan

ehtiyotkorlik bilan olib, dezinfektsiyalangan o‘tkir pichoq bilan har birida kamida bitta o‘sish nuqtasi ega bo‘lgan bo‘laklarga bo‘lish zarur bo‘ladi. Keyin bu qismlar oldindan tayyorlangan alohida idishlarga ekiladi va iliq joyda saqlanadi. Yangi ekilgan o‘simlik muntazam ravishda sug‘orib turildi. Ildiz bo‘lish orqali ko‘paytirish usuli asosan turf axil rangdagi navlar uchun juda samarali hisoblanadi.



## 2-rasm. Sanseveriya o‘simligini ko‘paytirish

Barg bilan ko‘paytirish. Buning uchun voyaga etgan, o‘sib chiqqan o‘simlik tanlab olindi. Undan bargni kesib olindi va o‘z navbatida 4-5 santimetr uzunlikdagi chiziqlar bilan bo‘laklarga bo‘lindi. Olingan bo‘laklar biroz vaqt havoda qoldiriladi, shundan so‘ng ular 45 daraja burchak ostida daryo qumiga yarim qismigacha ko‘mildi. Ko‘chatlari ekilgan konteynerlar shaffof plyonka yoki shisha bilan yopiladi. Namlik ketishiga qarab sug‘orib turiladi. Ekilgan ko‘chatlar 40-45 kunda ildiz otdi. Yangi burglar paydo bo‘lishi bilan yosh o‘simliklar yangi tuvavlarga ekiladi. Barglar orqali ko‘paytirish yashil barglari bo‘lgan navlarga mos keladi.

Sanseveriya o‘simligini parvarishlash.

Yorug‘lik. Sanseveriya orasida yorug‘lik va soyani yaxshi ko‘radigan turlari ham mavjuda. Lekin asosiy turlar yarim soyada joylarda juda yaxshi o‘sib rivojlanadi. Quyoshning yetarli yorug‘ligi natijasida o‘simlik bargalaridagi turli chiziqlar va

naqshlar yaxshi ko‘rinishga ega bo‘lishi kuzatildi. Bahor va yozda uni toza havoga olib chiqish o‘simlik o‘sishiga juda ijobiy yordam beradi. .

Harorat. Sanseveriya - 20-25 ° S haroratda yaxshi o‘sadigan issiqlikni yaxshi ko‘radigan o‘simlik hisoblanadi. Agar hona harorati oshib ketsa, xonani tez-tez ventilyatsiya qilishga zarur bo‘ladi. Qishki davrda o‘simlik salqinlikka muhtoj (11-14 ° C). Qishda, sansevieriya o‘sish sur’ati sezilarli darajada sekinlashadi va o‘simlik ko‘p namlik va oziqlanishga muhtoj bo‘lmaydi. Qish kunlarida haroratning 10 ° C darajadan pastga tushishiga o‘simlikni kasallanishiga va nobud bo‘lishioga olib keldi.

Havoning namligi. Sanseveriya uchun xonadagi odatdagi namlig yetarli hisoblanadi. O‘simlik suv purkashni talab qilmaydi. Suvga namlangan mato yordamida barglarni vaqtı-vaqtı bilan changdan tozalash yoki gulga iliq dushni amalga oshirish yetarli hisoblanadi. Faqat ushbu jarayonda suv qattiq emasligiga ishonch hosil qilish zarur, aks holda barglarda tuzli oq rangdagi izlar paydo bo‘ladi.

Sug‘orish rejimiga rioya qilish o‘simlikning normal o‘sishi va rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir. O‘simlikni tozalangan yoki yomg‘ir suvi bilan sug‘orishni tavsiya etiladi. Sug‘orishda sovuq suv ishlatish mumkin emas. O‘simlikni sug‘orishda substratning yuqori qatlagini tekshirib ko‘rish va namlik kamayganligiga qarab suv quyish amalga oshirialadi. Yozda sug‘orish haroratga qarab bir yoki ikki marotaba amalga oshiriladi. Sug‘orish honaning havo haroratiga bog‘liq ravishda o‘zgartirib boriladi. Xona qanchalik salqin bo‘lsa, sug‘orish kamroq amalga oshirilishi kerak.

Oziqlantirish. Sanseveriya issiq mavsumda oyiga bir marta oraliqda qo‘shimcha oziqlantiriladi. Buning uchun suyuq shakldagi kaktuslar yoki manzarali bargli o‘simliklar uchun mineral qo‘shimchalardan foydalanish mumkin. Azotli o‘g‘itlarning Sanseveriya uchun talab etilmaydi va qo‘llanilmaydi. O‘g‘itlashda barg rangi va uning ko‘rinishi kuzatilib oziqlantirish miqdori va muttadlari aniqlandi. Gul rangi och tusli bo‘lsa unga oziqlantisih zarur hisoblanadi. Ortiqcha oziqlantirish esa rang-barang barglarni to‘q yashil holga olib keldi.

Ko‘chirib o‘tkazish. Sanseveriya o‘simligi asosan o‘simlik hajmining kattalashib ketish va ildizlarining siqilib qolishini bartaraf etish maqsadida amalga

oshiriladi. Yosh o'simliklar ikki yilda bir marotaba ko'chirib o'tkaziladi. O'simlikni ko'chirib o'tkazish uchun oddiy tuproq mos kelmaydi. Shu boisdan 2: 1 torf, bargli torf va qum aralashmasidan substrat tayyorlandi. Ekishda idishning pastki qismiga drenaj sifatida g'ovak tarkibga ega g'isht yoki maxsus vositalardan foydalanildi. O'simlik ekilgan idishga nisbatan katta o'lchamga ega bo'lishi uning ildizlari tuvakning oastki qismidan chiqib ketishi bilan izohlanadi.

Zararkunanda va kasalliklar.

Sansevieria juda kuchli immunitetga ega. Shu sababdan ushbu gul kamdan-kam kasal bo'ladi. Ushbu o'simlikni yetishtirishda duch kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolar quyidagilardir:

1. Barglarda qora dog'lar paydo bo'lishi. Bu hodisa gul salqin joyda bo'lsa va ortiqcha sug'orish natijasida paydo bo'ladi.
2. Barglarning sarg'ayishi yorug'lik yetishmasligi yoki juda tor idshda o'stirilishi natijasida paydo bo'ladi.
3. Barg plastinkalari zaiflashishi va osilgan holda bo'lishi o'simlikka yetarli yorug'lik yetishmasligi belgilari hisoblanadi.
4. Barglarning pastki qismining sarg'ayishi. Namlikning oshib ketishi va ildiz bo'g'zida to'planib, zamburug'lar rivojlanishi natijasida yuzaga chiqadi.



**3-rasm. Sanseveriya o'simligida cherish kasalliklari.**

**Xulosa.** Tajribalarimiz natijasida Sanseveiya o'simligini parvarishlash texnologiya va o'simlikning o'ziga hos hususiyatlarini aniqladik.

1. Sanseveriya o'simligo xona sharoitida juda kam gullaydi yoki umaman gullamaydi. Uning gullari urug'lanmaydi. Biroq, o'simlikni yaxshi oziqlantirilganda bir yilda bir marotaba gullah holatlari kuzatildi.

2. Tajribalar natijasida Sansevieria juda yorug'likni yaxshi ko'rishi aniqlandi. Shuning uchun gulli idish uchun optimal joy janubga yoki g'arbgaga qaragan deraza tanlandi va o'simlikning o'sish suratlari 30-50 % foizgacha ko'tarildi. Shu bilan birga, haroratga nisbatan juda tasirchan emasligi aniqlandi. Tajribalarda salqin havoda o'simlik yaxshi saqlandi.

3. Kunning issiq vaqtida gulni soya joyga olish yoki quyoshning tik nurlarini berkitish zarur. Ko'pchilik holatlarda bargning uchki va chetki qismlarida kuyish holatlari kuzatildi.

4. O'simlik uchun eng salbiy tasir ko'rsatadigan omil bu suvning turg'unligi ekanligi aniqlandi. Suv ko'p saqlanib qolgan tajriba variantlarida chiqish holatlari kuzatildi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Berdiyev, E., & Egamberdiyev, SH. (2020). BENJAMIN FIKUSI VA ELASTIK FIKUS O‘SIMLIKLARINI VEGETATIV KO‘PAYTIRISH. JURNAL AGRO PROTSESSING, 2(4).
2. Egamberdiev, S., & Kholmurotov, M. (2021). Evaluation of rotation of *Ficus benjamina* types in growing environments. In E3S Web of Conferences (Vol. 284, p. 03008). EDP Sciences.
3. Egamberdiev, S., Kholmurotov, M., Berdiev, E., Ochilov, T., Oymatov, R., & Abdurakhmonov, Z. (2021). Determination of substrate composition, light, and temperature for interior plant growth. In E3S Web of Conferences (Vol. 284, p. 03015). EDP Sciences.
4. Bo‘riyev H., Abduraxmonov L Gulchilik, 2010.- 165-166-b.
5. Мироннова Й.В. Биологические основы использования фитонцидных растений в озеленении детских учреждений - Белгород – 2011. С. 6-12.
6. <https://www.gbif.org/species/2984588/metrics>
7. <https://www.iucn.org/>

# TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

TATU FF assistenti, **Z. Qadamova**

TATU FF talabasi, **A. Sotvoldiyev**

## *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada ta'lism jarayoniga innovatsion ta'lism texnologiyalarini qo'llashdagi muammolar tahlil qilingan va ularni rivojlanish omillari to'g'risida ma'lumot berilgan.*

